

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

SANITARIYA VA GIGIYENA

SARTAROSHLIK ISHLARI TEXNOLOGIYASI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

2-nashr

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2016

UO‘K 687.5:614(075.32)
KBK 38.937

Taqrizchilar: O‘zbekiston sartaroshlar uyushmasining raisi
F.Shomurodov;
maxsus fanlar kafedrasining mudiri **G.L.Musur-**
mankulova

Mualliflar jamoasi: S.A. Ganixadjayev, N.Sh. Salixanova,
U.S. Tulyaganova, S.A. Tursunboyeva, N.A. Raxmanova

S32 Sanitariya va gigiyena (sartaroshlik ishlari texnologiyasi): O‘quv qo‘llanma / Mualliflar jamoasi; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi, O‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. - T.: «Iqtisod-Moliya», 2016. — 124 b.

«Sanitariya va gigiyena (sartaroshlik ishlari texnologiyasi)» o‘quv qo‘llanmasi o‘quv dasturida ko‘rsatilgan mavzularni to‘liq qamrab olgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada sartaroshxonalar va sartaroshlik asbob-uskunalari, mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tayyorlov va yakuniy ishlar, bosh yuvish, soch olish, soch turmaklash, manikyur, soch bo‘yash, sochni uzoq muddatga turmaklash kabi mavzular chuqur va har tomonlama ko‘rib chiqilgan.

O‘quv qo‘llanma «Sartaroshlik san’ati va dekorativ kosmetika» yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslashgan kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari, amaliyot ustalari va kollej o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

UO‘K 687.5:614(075.32)
KBK 38.937ya722

ISBN 978-9943-13-217-7
ISBN 978-9943-13-624-3

© **«IQTISOD-MOLIYA», 2010**
© **«IQTISOD-MOLIYA», 2016**
© **Mualliflar jamoasi, 2016**

KIRISH

Soch orqali har bir insonning betakrorligini ifodalash mumkin. Shuning uchun ham insonlarning asrlar osha o'z sochlariga e'tibori kuchaya borganligini tushunish mumkin. Eramizdan avvalgi 2-3-ming yilliklar davridayoq odamlar o'z sochlarini turli shakllarda bezash va ularni har xil usulda turmaklashni odat qilishgan. Hozirgi kunda ham odamlar o'z sochlariga alohida e'tibor berishadi.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi dasturida xizmat ko'rsatish sohasiga katta ahamiyat berilgan. Maishiy xizmat tarmog'i, ayniqsa, sartoroshlik tarmog'ini kengayirish zararlighi ta'kidlab o'tilgan. Maishiy xizmat oldida, maishiy korxonalar tarmog'ini viloyat va shahardan tashqarida kengaytirish, sartaroshxonalarning asbob-uskunalarini zamonaviylashtirish zarurlighi, sartaroshxonalar, maxsus laboratoriyalar, konstruktorlik byuolarining ish faoliyatini yaxshilash, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yaxshilash maqsadlari qo'yilgan. Laboratoriyalarning ta'mirlash ishlarini yaxshilash, buyurtmalar bajarilishini va aholiga xizmat ko'rsatish ishlari nazoratini kuchaytirish zarur. Sartarosh-modelyer uchun sartaroshlik ishlari, asbob-uskunalar bilan tanishish zarur, chunki bu kelajakda uning bilimini rivojlanishiga asos bo'lib qoladi. Haqiqiy sartarosh ma'naviy jihatdan komil, go'zallik shaydosi bo'lishi shart.

Davlatimiz tomonidan sartaroshxonalarni rivojlantirish sohasiga katta ahamiyat qaratayotganligi e'tiborga olinib mazkur «Sartaroshlik ishlari texnologiyasi» o'quv qo'llanmasi ma'ruza matnlari asosida yozildi.

Bu fanning o'qitilishidan asosiy maqsad - sartaroshlik ishlarining bajarilish texnologiyasini, sartaroshlik ishlarining bajarilish ketma-ketliklarini o'rgatishdan iborat. Shuningdek, ta'lim berish mobaynida o'quvchilarni sartaroshlik sohasida mutaxassislikni to'g'ri tanlashga tayyorlash, sartaroshlikda ishlatiladigan asboblardan foydalanish, sanitariya va gigiyena qoidalariga amal qilish, yong'in xavfsizligi bo'yicha chora-tadbirlarni o'rgatishdan iborat.

Bu fan odam anatomiyasi, kimyo, fizika, sanitariya va gigiyena kabi fanlar bilan uzviy bog'liqlikda o'qitiladi.

Qo'llanma, asosan, kasbga yo'naltirilgan o'quv muassasalarining o'qituvchilari, amaliyot ustalari va o'quvchilarga moslashtirib yozilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent turizm va biznes kolleji o'qituvchilar jamoasi — S.A. Ganixodjayev, N.Sh. Salixanova, U.S. Tulaganova, S.A. Tursunboyeva hamda N.A. Raxmanovalar tomonidan tayyorlandi.

1-bo'lim. SARTAROSHXONALAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Sartaroshxonalarni jihozlash

Tayanch iboralar: keratin, litsetin, gigroskopik sochlar, kutikula, lipidlar, kosmetika, aralashmalar.

Sartaroshlik ishini tashkil etish degan iboraning mazmunida usta-sartaroshning mehnat va mahoratini sartaroshxonada yaratilgan qulayliklar, asbob-uskunalar va moddiy xarajatlarni, mijozga yuqori malakali madaniy xizmat ko'rsatishga samarali yo'naltirishni tashkil etish yotadi.

Maxsus jihozlangan sartaroshxonalarda quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi: ayollar bilan erkaklar bo'limidagi xizmatlar, kosmetika, manikyur, pedikyur xizmatlari, ulama, yasama qo'shimcha sochlar va kokillarni yasash, jilolantirish, tozalash va bo'yash xizmatlari. Yasama va qo'shimcha sochlarni yuvish va jilolash maxsus ustaxonalarda ham bajariladi.

Ustalarning mahorati, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va murakkabligi, mijozlarga yaratilgan sharoitning saviyasiga qarab sartaroshxonalar bir necha daraja (razryad)ga bo'linadi: sartaroshxona, salon-sartaroshxona, lyuks salon-sartaroshxonalar shular jumlasidandir.

Sartaroshxona va salon-sartaroshxonalarda ishni tashkil etishning umumiy talablari quyidagicha:

1. Mijozlarga belgilangan talablarga javob beradigan sifatli sartaroshlik xizmatini ko'rsatish.

2. Sartaroshxonaning tashqi reklamasi va badiiy bezagi, unda ko'rsatiladigan xizmat turlari, usullari, narxi, ishlash vaqti va ustaxonaning darajasi (razryadi)ni aks ettirishi kerak.

3. Sartaroshxonaning o'zi va unga o'rnatilgan texnik asbob-uskuna va jihozlar belgilangan sanitariya qoidalariga, texnika xavfsizligiga va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga javob berishi lozim.

4. Sartaroshxona xizmatchilarining maxsus kiyimlari bo'lishi zarur.

5. Ish joyida ustaning malakasi to'g'risidagi axborot, ismi-sharifi yozilishi lozim.

6. Sartaroshxonalarda sohaga oid narsalarni sotish, mijozlarga qulaylik yaratish uchun boshqa xildagi pullik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish mumkin.

Salon-sartaroshxonalarning ishini tashkil etishda quyidagi qo'shimcha talablar ham qo'yiladi:

1. Salonlarda sochga badiiy shakl berib qirqiladi. Sochga shakl tanlash, qirqish, pardoz qilish sohasida maslahatlar beriladi.

2. Ishlar birinchi toifali usta, modelchi sartarosh, uch yildan ortiq mehnat faoliyatiga ega bo'lgan yuqori malakali manikyur, pedikyur va kosmetologlar tomonidan bajariladi.

3. Modelyer-sartaroshlar, 1-darajali sartaroshlar, kosmetologlar, manikyur va pedikyur ustalari har yili zamonaviy usullardan xabardor ekanliklarini namoyish etishlari zarur. Uch yilda bir marotaba o'z darajasiga loyiqligi tekshirib turiladi.

Lyuks-salonlarni tashkil etishda quyidagi qo'shimcha talablar qo'yiladi:

1. Eng murakkab soch shakllariga ham yuksak badiiy mahorat va yuqori sifat bilan ishlov berish va hozirgi kunda ommalashgan yoki kelajakda rusum bo'ladigan soch shakllarining yangi va betakror namunalarini yaratish mumkin.

2. Lyuks-salonlarida sartaroshlarning umumiy sonidan eng kamida 25 % 1-darajali ustalar bo'lishi, manikyur, pedikyur va kosmetologlar eng kamida 4 yil ish faoliyatiga ega bo'lib, yuqori malakali, madaniyatli xizmat ko'rsata oladigan bo'lishi kerak.

3. Lyuks-salonlarida salon-sartaroshxonalarda belgilangan xizmat haqidan 25 % ustama narx belgilanadi.

Xizmat ko'rsatishning boshqa turlari va tegishli sohadagi maslahatlar uchun ham ustama narx olinadi.

Aholiga xizmat ko'rsatishning boshqa usullari: oldindan navbatga yozilish, uyda xizmatga chiqish usullari ham qo'llaniladi. Uyga borib xizmat qilganda, yo'lkira haqi, noqulaylikda xizmat ko'rsatgani uchun sartarosh qo'shimcha haq olishi mumkin.

Sartaroshxonalarda ho'l yoki nam latta bilan tez artib tozalash mumkin bo'lgan jihozlar bo'lishi kerak. Yosh bolalarning sochini olish qulay bo'lishi uchun bo'yi-bastiga mos o'tirgichlari bo'lishi lozim.

Ish o'rindiqlari ikki qator qilib joylashtirilgan bo'lsa, ularning oralig'i kamida 5 metr, oxirgi o'rindiqdan devorgacha bo'lgan oralig' 0,7 metr bo'lishi talab qilinadi.

Ish zalida kimyoviy usulda shakl berilganda asbob ilib qo'yiladi, har ishlayotgan 5 ustaga bitta bug' moslamasi o'rnatiladi.

Manikyur stoli yonida esa qo'l yuvish moslamasi (пакovina) o'rnatiladi.

Pedikyur xonalari issiq va sovuq suv bilan ta'minlanadi, oyoq yuvish uchun chinni vannalar bilan jihozlanadi. Vannalar chiqindi suvlarni oqizish tarmog'i (kanalizatsiya)ga ulanadi. Mijoz o'tiradigan kursi va oyoq vannasi poldan 20-25 sm balandlikda joylashtiriladi. Xonada asboblari uchun stol, toza sochiq uchun javon, ishlatilgan sochiqlarni tashlash uchun maxsus idish bo'lishi kerak.

Sochni quritishga mo'ljallangan xonada maxsus uskunalar o'rnatiladi. Ayollar bo'limida har bir ish o'rindig'i uchun ikki nafar quritish moslamasi bo'lishi kerak. Agar moslama ish zaliga o'rnatiladigan bo'lsa, xona sathi yana 2 m² ga kengaytirilishi lozim. Shunda ish o'rindig'i bilan moslama o'rtasiga masofa 1,5 metr bo'ladi. Yordamchi xonada issiq va sovuq suv bilan ta'minlangan rakovina, gaz yoki elektr plita, ustalar ushuncha stol, toza asboblari qo'yiladigan oynavand osma tokcha, axlat uchun quruq idish va qirqilgan sochni solishga qattiq qog'ozli qop bo'lishi kerak.

Kiyim almashtirish xonasida ishchilar soniga qarab balandligi 165 sm, eni 33 sm, chuqurligi 50 sm bo'lgan ustki kiyim va ish kiyimi uchun alohida ikki tabaqali shaxsiy kiyim javoni o'rnatiladi. Javonning pastki qismida poyafzal uchun quti yoki tokcha, yuqori qismida asboblari uchun tokcha bo'ladi. Kiyim javonida havo almashib turishi uchun eshiklarida maxsus teshiklar bo'lishi kerak. Kiyim javonlari bir necha qator bo'lsa, ular orasidan o'tish uchun 1 metr joy qoldirish lozim. Kiyim

yechish xonalarida kiyimni almashtirish uchun ajratilgan alohida 0,9×0,9 m bo'lgan bo'lmalar o'rnatiladi. Kiyim yechish xonasiga tutashgan va har 15 kishi foydalanadigan 2 ta yuvinish xonasi bo'lishi talab qilinadi.

Xizmatchilar xonasi qo'l yuvish, ovqatlanish va dam olish uchun lozim bo'lgan jihozlar bilan ta'minlanishi zarur.

Narsalarni saqlash xonalarida ishlatiladigan sochiqlarni taxlash uchun maxsus javon yoki tokcha, atir-upalarni saqlashga ham tokchalar yasaladi.

Tez alanga oluvchi ashyolarni saqlash xonasi yonmaydigan materiallardan qurilishi, eshik va derazalar tirqishsiz, mahkam bekilishi zarur. Barcha sartaroshlik amallari «Sartaroshxona» deb atalgan, maxsus jihozlangan xonalarda bajariladi. Sartaroshxonani joylashtirish uchun, odatda, binolarning birinchi qavati, hammomlar, sanitariya postlari, maishiy xizmat ko'rsatish binolari, vokzallar, katta korxonalar, o'quv yurtlari va maxsus qurilgan binolardan foydalanish ko'zda tutiladi. Agar yer-to'laning chuqurligi 0,75 m dan oshmagan bo'lsa, binolarning ostki qismida joylashtirish mumkin. Sartaroshxonaga kiraverishda yoki navbat kutish joylarida parfyumeriya mahsulotlari sotuvini tashkil etishga ruxsat ham beriladi.

5 tadan ortiq mijozga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan, ayollar va erkaklar sartaroshxonalarida quyidagi xonalar bo'lishi kerak:

1. Ustki kiyimni yechib, ilib qo'yish va navbat kutish mo'ljallangan xona.

2. Xizmat ko'rsatish xonasi — ayollar va erkaklarning sochini olish, yuvish, quritish, bo'yash, manikyur, pedikyur va kosmetika xizmatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan xonalar.

3. Yordamchi xonalar — ozodalikni saqlash uchun kerakli asboblarni, ishlatilgan, toza sochiq va choyshablarni, atir-upalarni, tez yonuvchi narsalarni saqlash xonasi.

4. Texnikaviy — havo almashtiruv va elektr bilan ta'minlash moslamasi. Bino alohida joylashgan bo'lsa, isitish tarmog'iga ega bo'lishi kerak.

1-2 ta mijozga xizmat ko'rsatadigan sartaroshxonalar, odatda, 15–20 m² xonalarda joylashtiriladi.

5. Mijozga xizmat ko'rsatadigan sartaroshxonalarda kirish joyi, yechinadigan joy va kutish xonasi, mutaxassislar xonasi va kiyim almashtirish joyi bilan qo'shib yuborilishiga ruxsat etiladi. Bunday hollarda toza, ishlatilgan sochiqlar va atir-upalarni saqlashga maxsus jihoz — tumbadan foydalanish mumkin.

Sartaroshxonalarning balandligi 3,3 metr, yordamchi xonalar balandligi 2,7 metr bo'lishi kerak. 5 kishidan ortiq mijozga xizmat ko'rsatuvchi sartaroshxonalarda mijozlar uchun va mutaxassislar uchun belgilangan alohida 2 ta eshigi bo'lishi lozim. Kirish yo'lagi isitiladigan bo'lib, uzunligi 1,2 m bo'lgan holda, eni eshikning enidan 1,5 barobar keng bo'lishi shart.

Sartaroshxonalar loyihalashtirilayotganda quyidagi talablarga rioya qilinishi lozim: kiyim ilish joyi kiraverishda joylashtirilib, kiyim ilgichlar bilan jihozlanishi kerak. Har bir ish joyiga uch-tadan ilmoq osish zarar. Xizmat ko'rsatish xonalariga navbat kutish joyi, kassa, boshni yuvish va soch quritish xonasi, tutash yordamchi xonalar bo'lishi ko'zda tutiladi. Ma'muriy-maishiy va ashyolarni saqlash xonalari shunday joylashishi lozimki, u joylarda xizmat ko'rsatish xonasini chetlab o'tib kirish imkoniyati bo'lsin.

Sartaroshxonalar tabiiy yorug' bo'lishi kerak. Quyosh nuridan havo tozalanadi, ishchilarni ko'zi toliqmaydi. Mehnat qobiliyati oshadi, o'zlarini yaxshi his etishadi. Xonaga quyosh nuri to'g'ri va yaxshi tushishi uchun derazalarning hajmiga e'tibor berish kerak. Agar derazaning hajmi xona poli sathining yarmiga teng bo'lsa, xona yorug'ligi me'yorida bo'ladi. Xona sathi 30 m² bo'lganda derazalar hajmi kamida 6 m² bo'lishi kerak. Shuni ham esda tutish kerakki, kir deraza oynalari 15-50 %, parda va to'r pardalar 18-40 % yorug'likni to'sib qoladi. Xonaning oynavand devori tarafidan qarama-qarshi devorgacha bo'lgan masofa 7 metrdan oshmasligi shart.

Xonani sun'iy yoritishda nur bir xilda yoyilishi va ko'zni qamashtirmasligi kerak. Noto'g'ri yoritishda ustaning ko'zi tez charchaydi. Ko'p sartaroshxonalarda kunduzi yorug'likni beruvchi lyuminessent lampalaridan foydalaniladi. U tabiiy yorug'likka yaqin nur chiqaradi, xona haroratini oshirmaydi,

sochning rangi to'g'ri tasavvur qilishga imkoniyat beradi. Bu esa sochni bo'yashda qo'l keladi. Havo almashtirish ham normal ishlashning asosiy omili hisoblanadi. Derazaning tabaqasi va tuynugini ochish orqali havo almashtiriladi. Tuynukning kattaligi derazaning $1/6$ qismidan kam bo'lmasligi zarur.

1.2. Sartaroshxonalarining sanitariya-texnik tuzilishi va yong'inni oldini olish choralari

Sartaroshxonalar gaz, suv, kanalizatsiya va havo almashtirish tizimi bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Suv, ichimlik suvi GOST 2874-74 talabiga javob berishi kerak. Sartaroshxona markaziy suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimiga ulanganda hojatxona va rakovina quriladi. Bosh ish zalida yuviladigan bo'lsa, u holda xonaga 1-2 ta rakovina o'rnatiladi. Manikyur va pedikyur xonalarida ham rakovina bo'lishi zarur.

Xonadagi harorat $18-20^{\circ}\text{C}$, bosh yuvish va quritish xonasida 22 daraja, yuvinish xonasida 25 darajadan oshmasligi kerak.

20 dan ortiq ish o'rindig'iga ega bo'lgan zallarda havoni almashtirish va yoz kunlarida sovitib turish uchun avtomat konditsionerlar o'rnatish tavsiya etiladi. 3-5 kishi ishlaydigan xonalarda deraza tabaqasi yoki tuynugi orqali havosini almashtirib turish mumkin.

Sartaroshxona boshqaruvchisi kamida 1 yilda bir marta barcha xizmatchilarni yong'inning oldini olishga oid ko'rsatmalar bilan tanishtiradi.

Tor yo'laklar va o'tish joylarini narsalar bilan to'sib qo'yish taqiqlanadi.

Qo'yilgan himoya o'tkazgichlar (предохранитель) o'rniga turli simlardan foydalanish man qilinadi.

Xonani isitish uchun elektr isitgichlaridan foydalanish, ruxsat etilmagan joyda chekish, gugurt yoqish, sigaret qoldig'ini tashlash mumkin emas.

Sartarosh biror joyga chiqqanda qizuvchi asboblarni o'chirib ketishi talab qilinadi.

Elektr chiroqlariga, tokka ulanadigan joylarga ro‘molcha va qog‘ozlarni ilib qo‘yish, isitish tizimi va asboblarni ustiga sochiq, paxta choyshablarni ilib quritish taqiqlanadi. Qizdirish uchun ishlatiladigan asboblarni o‘rnatishdan oldin ular ostiga olovga bardosh bera oladigan narsa qo‘yish talab qilanadi.

Har 100 m² ga bir dona olov o‘chirish moslamasi bo‘lishi zarur. Hamma sartaroshlar yong‘inning oldini olish qoidalariga rioya qilishlari, kamida 3 oyda bir marotaba sartaroshxonani butkul tozalab tartibga keltirishda ishtirok etishlari shart.

Sartaroshxona boshqaruvchisi ishchilar orasidan ustalarni tanlab, o‘t o‘chiruvchi guruhi tuzib, ularning o‘qishini tashkil qilishi kerak. Boshqaruvchi yong‘inning oldini olishga mo‘ljallangan asbob va moslamalarning mavjudligi va shayligiga javob beradi.

Oxirgi ishchi xonadan ketayotganda (chiroqlar, elektr uza- tkichlar, isitish moslamalarining o‘chirilganligi) yong‘in xavf- sizligi qoidalari bajarilganligi to‘g‘risida qayd qilish daftariga yozib qoldirishi lozim.

Xonani pardoqlash. Xona devorlari yaxshilab suvoq qilinadi. Devorlar shipgacha yoki 1,8 m balandlikkacha yog‘li bo‘yoq yoki boshqa suv o‘tkazmaydigan bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi. Sartaroshxonalar devorlariga gulli qog‘ozlar yelimlash taqiqla- nadi. Yordamchi, bosh yuvish, narsalarni saqlash, hojatxona va yuvinish xonalari devorlari chinni koshinlar (kafel) bilan qopla- nadi. Pol bir tekisda bo‘ladi, yoriqlar, o‘nqir-cho‘nqir joylari bo‘lmasligi lozim. Polni ba‘zi materiallar bilan qoplash faqat sanitariya xodimlari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Xonalarni ta‘mirlash va ozodaligiga rioya qilish. Xonalarni kamida bir yilga bir marotaba oqlash va bo‘yash lozim. Sani- tariya xodimlari talabiga ko‘ra bir yilda bir necha bor qilish ham mumkin.

Sartaroshxona ish boshlanishidan oldin yoki ish tugagach obdon tozalanadi. Ish davomida esa doim yig‘ishtirilib turiladi. Sartaroshxona bir oyda bir marta bir kunga yopilib sanitariya tadbiri o‘tkaziladi. Zararkunandalarni yo‘qotish uchun xlor qorishmasidan 0,5 % qo‘shilib, aralashtirilgan suyuqlikdan foydalanish tavsiya etiladi.

Qirqilgan sochlar o'tirg'ich atrofidan xokandozga supurib olinib, qattiq qog'ozdan tayyorlangan maxsus qopga, chelak yoki og'zi yopiladigan idishga tashlanadi. Ish tugagach (haftada kamida ikki marta) yig'ilgan sochlarni yoqish yoki chiqindi tashiladigan mashinalarga ortib yuborish mumkin.

Agar xonada suvarak, kalamush, chivinlar paydo bo'lsa, sanitariya va epidemiologiya bo'limi xodimlariga murojaat qilinadi.

2-bo'lim. SARTAROSHLIK ASBOB-USKUNALARI

2.1. Soch tarash uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar

Yildan yilga sartaroshxonalarning yangi asbob-uskunalar bilan jihozlanishi yaxshilanib bormoqda. Bu sartaroshlar ishini yengillashtiradi, sochga ishlov berish texnologik jarayonini yaxshilaydi va bajariladigan muolajalarni vaqti qisqaradi.

Zamonaviy sartaroshxonalar quyidagi asbob-uskunalar bilan jihozlanishi zarur: soch quritish asbob-uskunasi, termik usulda turmaklash, infraqizil nurlar asosida soch quritish — akselerator asbob-uskunasi, gidroko'taruvchi kreslolar, sterilizator.

Sartaroshlik asboblari — bu ish quroli bo'lib, sochning shakli va xususiyatini o'zgartirish qobiliyatiga ega.

Sartaroshning ishi ko'p jihatdan asboblarning sifati va xilma-xilligiga bog'liq.

Ustalarining asboblari to'rt turga bo'linadi:

1. Soch tarash uchun — turli xildagi taroqlar.
2. Soch olish va qirqish uchun - elektr mashinkalar, qo'l mashinkalari, qaychi va ustalar.
3. Sochni uzoq muddatga turmaklash uchun — tayoqchalar (koklyushki), naysimon moslama (sterjen), qisqichlar (zajim).
4. Sochga shakl berish, yotqizish uchun — metal yoki plastmassadan tayyorlangan, sochni o'rab shakl beradigan moslama (bigudi), tutqich (klipsi), maxsus metall simlar (shchipsi), elektr quritgich (fen).

Shakl, usul, asbob va moslamalar qaysi mamlakatda o'ylab

topilgan va ommalashgan bo'lsa, o'sha mamlakat tilida unga nom berilgan. Keyinchalik shu atama boshqa mamlakatlarda ham o'zgarishsiz ishlatilgan. O'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun ispan, ingliz, fransuz, nemis va rus tillaridagi atamalar va ommalashgan asboblarning hamda shakl nomlarini kitobda o'z holicha berilishi qulayroq deb topildi.

Taroqlar. Kimyoviy ashyolardan foydalanmay amalga oshiriladigan ishlarda metall (aluminium)dan va plastmassadan tayyorlangan taroqlar gigiyena talablariga ko'proq javob berib, ular soch olishda ham, bigudiga ham juda qulay, deb hisoblanadi (1-, 2-, 3-rasm).

Taroqlarni to'rt turga bo'lish mumkin:

- Tishlari siyrak yoki zich bo'lgan, uzunligi 15-20 sm, qalinligi 1-2 mm, oddiy konussimon metall taroq erkaklar va ayollar sartaroshxonalarida ishlatadigan asosiy asbob hisoblanadi.

- Tishlari siyrak va uzun, katta dastali plastmassa taroq, asosan, ayollarning uzun sochlarini tarashda ishlatiladi.

- Mayda tishli, dastasi ingichka mixsimon bo'lgan plastmassa yoki metall taroqlar sochni mayda tutamlarga ajratib, ularni bigudi va tayoqchalarga o'rashda va sochga shakl berishda ishlatiladi. Taroqning mayda tishlarida shaklning tashqi taramlariga oro berilsa, mixsimon dastasi sochni ko'tarib, hurpaytirib kattaroq shakl berishga ishlatiladi.

- Uchi mixsimon, uchli plastmassadan yasalgan taroqning tishlari birin-ketin kalta va uzun bo'lib tishlarining uchi to'mtoq, tomchisimon bo'ladi (1-rasm). Bunday turdagi taroqlar sochning pastki qatlamiga o'tmagan holda yuqoridagi sochlarni hurpaytirib shakl berishda qulay hisoblanadi. Bunday taroq bilan sochga shakl berilganda, shishirilgan soch bir joyga to'planib qolmaydi, osonlik bilan taraladi.

Usta ishlatmayotganda taroqlar dezinfeksiyalangan suyuqlikka solib qo'yiladi. Ish tugagandan so'ng taroqlar sovunli iliq suvda yuvilib, mo'yqalam bilan tishlari orasidagi to'plangan kirlardan tozalanadi. Metall taroqlar spirt alangasida toblanadi.



Massajka



Cho'tka



Ikki taraflı bombaj



Brashing




Dumaloq brash



Bombaj

1-rasm. Turmaklashda ishlatiladigan taroqlar

Tikansimon taroq (cho'tka)lar, asosan, bigudidan bo'shatilgan sochlarni tarab yoyish uchun ishlatiladi (2-rasm).



2-rasm. Taroqlar: a) oddiy taroq; b) aralash taroq;
d) hurpaytiruvchi taroq

Bu taroqning egiluvchan tikanlari buralgan sochlarni alohida tutam va tolalarga ajratib yuborib, sochga shishirilgan va hurpaygan, chiroyli shakl beradi. Shuningdek, bosh terisini uqalashga hamda soch tomirlaridagi qon aylanishini yaxshilashga ko'maklashadi. Tishlarining egiluvchanligi chigal sochlarni yoyib yuborganda odamning asabiga tegmaydi.

Bunday taroqlar ikkiga bo'linadi (3-rasm):

- massaj taroqlari; qattiq sochdan yasalgan taroqlar.

Massaj taroqlarining asosi tekis plastmassadan yasaladi, tikanlari yumshoq simlardan yasilib, taroqdagi shishib turgan

rezina yostiqchaga qotiriladi, bu taroq tishlarining egiluvchanligini ta'minlaydi. Rezina yostiqcha taroq ostiga mahkam qilib yopishtirilgan bo'ladi.



3-rasm. Taroqlar

Qattiq sochdan yasalgan taroqlarning asosi va dastasi yog'ochdan yasalgan bo'ladi. Erkaklar bo'limida asosan tekis taroqlar islatilsa, ayollar bo'limida yarim doira yoki dumaloq taroqlar ishlatiladi. Taroqda tabiiy yoki sun'iy sochlar qotirilgan bo'ladi. Taroq asosidagi teshiklarga uzunligi 15-20 mm bo'lgan qattiq soch 8-10 donadan qotiriladi. Har bir taroqda 100 dona teshik bo'lsa, ularga 1000 ta soch tolasi qotiriladi. Taroqning asosi dastasi bilan yaxlit bo'ladi. Bunday taroq juda egiluvchan bo'lganligi sababli, sochni tarashga qulay, ayniqsa, sochi siyrak mijozlarning sochiga shakl berishda yordam beradi. Bunday taroqning birgina kamchiligi dezinfeksiya qilishning qiyinligidir. Mazkur taroqlar bilan sochni hurpaytirish, ayniqsa, siyrak sochlar uchun qulay va samaralidir.

2.2. Soch olish va qirqishda ishlatiladigan asbob-uskunalar


Sartaroshlik ishlarida qaychilar katta ahamiyatga ega. Chunki ishning unumdorligi qaychilarga bog'liqdir. Qaychilar yuqori sifatli po'latdan yasaladi. Qirqish joyining charxlash burchagi qat'iy belgilab qo'yiladi. Qaychilar qirqish qismi, harakatga soluvchi qism, aylanalar va biriktiruvchi vintdan iborat. Qaychilarning asosi ham qirqish qismi va uchidan iborat.

Qaychini to'g'ri charxlashdan tashqari biriktiruvchi vintni me'yorida qotirish uning bimalol ochilib yopilishi va uchlarning bir-biriga to'la tegishini ta'minlaydi. Qaychining uchlari biroz aylana shaklda bo'lib, yopilganda bir-biriga tekis tegmay qolsa, soch chetlarini tekislashda noqulayliklar tug'diradi.

Qaychilar ikki turga bo'linadi: (4-rasm) tekis va tishsimon. Ularning har biri yana o'ziga xos bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, tekis qaychilar aylanasida kichik barmoq tiraladigan qo'shimcha dumli, ikki aylananing birida qo'shimcha rezinali bo'lishi mumkin.

Tishli qaychilardan yordamchi ishlarni bajarishda foydalaniladi. Soch qirqilgandan keyin tekislash va ma'lum oraliqqa qisqarib borishini ta'minlaydi. Bunday qaychilarning tishi bir taraflama yoki ikki taraflama bo'lishi mumkin.

Qaychilarni malakali mutaxassis charxlaydi. Ularning o'tkirligi yumshoq paxta bo'lagini qirqish bilan tekshiriladi. To'g'ri va bir tekis charxlangan qaychi paxta siqimini bimalol qirqa oladi.



4-rasm. **Qaychilar:** a) oddiy kesadigan; b) filirovkali

Qaychilarni g'ilofda saqlagan ma'qul. Ularni uchloriga rezina naychalar kiydirib qo'yilsa, biror narsaga urilganda sinib ke-

tishdan himoya qiladi. Ho'l sochga ishlatilgan qaychini quruq latta bilan artib qo'ygan ma'qul. Vint bilan bir-biriga ulangan joyini har zamonda yog'lab yoki vazelin surib qo'yish maqsadga muvofiq. Soch olishda qaychi, asosan, barmoqlarning birinchi bo'g'inida ushlanadi. Vintning boshi ustaga qaratilgan bo'lishi kerak. Tapa aylanaga katta barmoq, kichik aylanaga kichik barmoq kiydiriladi.

Ustaralar. Hozirgi paytda kesish qismi o'tkir qilib charxlangan, «xavfli» deb nom olgan ustalaraning bir necha turlari mavjud.

Tig'li yoki xavfli ustalar tig'dan va unga biriktirilgan das-tadan iborat bo'ladi. Ishlatishga qulay bo'lishi uchun biriktirilgan joyi bemaol harakatga keladi. Tig'i har ikkala tarafdin bir tekisda charxlangan qirra va qalin qismdan iborat (5-rasm). Ustaraning dastasi tig'i uchun g'ilof vazifasini ham bajaradi. Ustaralar qismining charxlanishi, tig'ining eni va ustara uchining shakliga qarab bir-biridan farq qiladi. Tig'ining tepasi qalin, past tarafi keskin yupqalashganidan kesish qismining qalin yoki yupqaligini aniqlash mumkin.

O'tkir tig'li ustalar ishlatish uchun qulay hisoblanadi. Qirraning yupqaligi uni charxlash va kamar uchlarini to'g'rilashga qulay hisoblanadi.

Har qanday ishni uddalay olish uchun bir necha xil ustardan foydalangan ma'qul. Boshdagi sochni olish uchun o'tkir tig'li yupqa ustardan foydalangan afzal bo'lsa, soqol olishga ingichkaroq ustalar qulay. Ingichka ustalar yuz terisini kamroq tirnaydi, lekin ingichka ustalarni tez-tez charxlab, qirralarini tekislab turish talab qilinadi.

Xavfsiz ustalar, asosan, soch-soqol olish uchun emas, balki soch tekislashda va kaltalatishga ham ishlatiladi. Ular ustaraning ikki yoniga biriktirilgan qo'shimcha nakladkalarining shakliga qarab ajratiladi.

Soch tekislashda tishli nasadkalar ishlatiladi, ularning bo'rtib chiqib turadigan qavariqlari bo'ladi. Qavariqlar sochning hamhammasini kesmasdan bir tekisda kesilishiga yordam beradi. Ularning kesish qismi (tig'i) almashtirib turiladi. Shu sababdan

charxlash va ustara uchini tekislashni talab qilmaydi. Ular ishlatishga qulay, teri kesilishiga yo'l qo'ymaydi, lekin tig'ni almashtirishda ehtiyot bo'lishi lozim. Xavfsiz ustalar turli shakllarda bo'lishi mumkin. Ular, asosan, plastmassadan yasaladi. Tig'ni almashtirishda qo'lning quruq bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Ustalararni qayrash moslamasi. Bunday moslama tig'i almashtirilmaydigan «xavfli» ustalararni qayrash uchun qo'llaniladi. Ustalar maxsus ustaxonada charxlash moslamasida qayralganidan keyin unga sayqal beriladi. Moslamalarni bir-biriga qiyoslash uchun har uch xildagi moslama bo'lgani ma'qul. Yetarli tajribaga ega bo'lmagan ustalar moslama xillarini uning ustiga tirnoqni yurg'izish orqali aniqlab olsalar bo'ladi.

Mayda qumli (tekis) moslama ustida tirnoq izi qolmaydi, tirnoq biroz qiriladi, tirnalishi ham seziladi. Yirik qumli moslama yuzasi dag'alroq bo'lib, tirnoq yaxshigina qiriladi va tirnoqda iz qoladi.

Juda o'tmas bo'lib qolgan ustalar oldin yirik, keyin o'rta, oxirida mayda qumli moslamada qayraladi.

Ozroq o'tmas bo'lgan ustalar avval o'rtacha, mayda qumli moslamada qayraladi.


Faqat qumli mayda moslamada qayralganda, ishning sifati yuqoriroq bo'ladi, lekin bu juda ko'p vaqtni talab qiladi. Ustalar, ko'pincha, maydasidan ko'proq foydalanishadi. Chunki yetarli tajribaga ega bo'lmagan holda, yirik qumli moslamadan foydalanish ustara tig'ini ishdan chiqarishga olib kelishi mumkin. Mayda qumli moslamadan foydalanganda, uning yuzasiga suyuq sovun yoki ko'pik surtiladi. Shunday qilinganda ish silliq ketadi, qirralar yaxshi tekislanadi. Yirik qumli moslamadan foydalanganda, uning yuzasiga mashina moyi surtilgani yaxshiroq. Moslama stol ustida mustahkam turishi uchun unga tirgovuch o'rnatiladi yoki moslamaning tagiga, ya'ni stol ustiga suv bilan ho'llangan yumshoq qog'oz to'shaladi.

Ustaraning qirrasi pastga qaratilgan holda 45° burchakka yonboshlatib, moslama yuzasiga tekkizgan holda oldinga tomon harakatga keltiriladi. Ustarani moslamaga ishqalash paytida

uning qirrası va tepa qismi to'la tegib turishi lozim. Keyin ustara ikkinchi tarafa sekin o'girilib usta tomonga tortiladi.

Qayrayotganda moslamaning yuzasi doimo ho'l bo'lib turishini ta'minlanishini unutmaslik kerak. Moslama qumi qanchalik yirik bo'lsa, ustarani shunchalik sekinroq bosish zarur. Harakat boshlanganda qattiqroq bosilib, harakat tugallanayotganida sekinlashib boradi.

Qayrayotganda harakatning soni ustara metalining qattiqligi, o'tmaslik darajasi, qirrasining qalinligiga qarab har bir tomon 20-100 marotabagacha qayralishi mumkin.



5-rasm. Ustara

6-rasm. Filirovka ustarasi va nasadkalari

Uning maromiga yetgan-yetmaganligini ko'z bilan aniqlasa bo'ladi. Ustaraning tig'i bilan chap qo'lning katta barmog'idagi tirnoq ustida ustara tepasini o'ziga qaratgan holda bir tekisda tortiladi. Agar ustara to'g'ri qayralgan bo'lsa, tig'ning uchi bir tekisda qayrilib, unga tushgan yorug'lik bir xilda tovlanadi.

Qayrash tugallandi, biroq hali ustara ishga shay emas, uning qirrasida qumli yuzaga ishqalanganda hosil bo'lgan mayda qilovi bo'ladi. Bu qilov kamarga ishqalash orqali yo'qotiladi. Bunday kamarlar charmdan yoki brezent matodan tayyorlanadi. Ikki tarafлама, omixta kamarlar mavjud. Ularning bir tarafi charm, ikkinchi tarafi brezentdan tayyorlanadi.

Sayqalni yaxshilash va kamroq vaqt sarflash uchun yangi kamarning ustiga yupqa qilib maxsus qorishma (mastika) surtiladi. Surtilgan mastika shisha idishning osti bilan bir tekis kamar bo'ylab ishqalab yoyiladi. Buning uchun shisha idishcha ichiga issiq suv quyiladi. Keyin kamar yarim soat davomida qurutiladi. Keyinchalik mastika, faqat lozim bo'lganda, surtib

turiladi. Ustara avval brezent kamarda, keyin charm kamarda maromiga yetkaziladi. Bu ish xuddi moslamada qayrash usulida bajariladi.

Tez-tez qayrash oqibatida ustaraning uchida juda yupqa tig' hosil bo'ladi. Natijada ularni charxlash ham, ishlatish ham qiyinlashadi. Bu holda ustaraning uchi yemirila boshlaydi. Shunday paytda uni yumshoqroq yog'och yordamida o'tmaslashtirib, yana qayragan ma'qul.

Ustaraning sifatli charxlanganini qanday aniqlash mumkin? Quyida keng ommalashgan ikki usulni keltiramiz.

Birinci usul: ustaraning chap qo'ldagi katta barmoqning ho'llangan tirnog'i ustiga yotqizib ohista ishqalanadi. Agar tirnoq qirilishni sezsa, unda ustara tig'ida mayda qil va qilovlar qolib ketganligini bildiradi.

Ikkinchi usul: chap qo'lga 5–7 sm olinadi. Soch tolasini ustaraning uchiga tegizilib sochga puflanadi. Soch ikkiga bo'linib ketsa, demak, ustara o'tkir.

Ustaraning uchi biroz qayrilgan bo'lishi kerak. Shunday bo'lmasa, qirqib olish yoki kesib olishga sabab bo'lishi mumkin.

Ustaraning elektrolit yordamida o'tkirlash usuli ham bor. Bu usul metallni anod yordamida yemirilish qonuniyatiga asoslangan. Bunda ustara elektrolit solingan idishga joylashtiriladi va u orqali elektr toki o'tkaziladi. Elektrolit bilan aralashgan tok ustara uchidagi qil-qilovlarni yemirib, ustaraning bir tekisda o'tkir bo'lishiga olib keladi.

So'nggi paytda tig'i almashtirilgan turli shakldagi ustalar ko'paymoqda. Ular o'tmas bo'lib qolganda, almashtirib qo'ya qolinadi. Bu ustaning ishini qulay va yengil qiladi.

Soch olish mashinkalari ikkiga bo'linadi: qo'l mashinkalari va elektr mashinkalar. Qo'l mashinkalari undagi prujinaning shakliga qarab uchga bo'linadi: doirasimon, taqasimon va spiral-simon bo'lishi mumkin. Hamma mashinkalarning ish vaqti tugagach, qismlarga bo'lib, moylash tavsiya etiladi. Tozalab, moylangach, u yig'ib sozlanadi. To'g'ri sozlangan mashinkani ishlatganda u o'ziga xos ovoz chiqaradi. Har safar soch olishdan oldin mashinka mikroblardan xoli qilinadi.

Ish paytida mashinka o'ng qo'lda ushlanadi. Katta barmoq mashinkaning qimirlamaydigan dastasidan chiqib turgan tirka-gichga taqaladi, boshqa barmoqlar harakatga keluvchi dastada joylashib, u dastadagi to'g'ri chiqib turgan tirkagich ko'rsatkich va o'rta barmoqlar orasiga joylashtiriladi.

Dastani bir-biriga siqish orqali usta mashinkaning kesish qismini harakatga keltiradi va ular orasiga tushgan sochlar qirqila boshlaydi.

Soch olishda sochning o'sish yo'nalishiga qarshi harakat qilinadi. Chunki mashinka qarshilik ko'rsatgan sochlarni qirqishga moslashgan. Mashinkani oldinga asta-sekin siljitish kerak. Uni tez siljitganda, tishlar orasiga keragidan ortiq soch tushib, ularni hammasini kesishga ulgurmaydi, natijada ishni yangidan boshlashga to'g'ri keladi.

Agar tishlar orasiga moy tegsa, ular sochni moylab kesa olmay qoladi. Natijada kesilmagan sochlarni torta boshlaydi. Bu holatda mashinkani bo'laklarga ajratib, qattiqroq mo'yqalam bilan tishlari orasini tozalab qayta yig'iladi va sozlanadi. Ba'zan vinti bo'shatilib, tishlari orasiga qog'oz joylashtiriladi. O'ng qo'lda mashinkani harakatga keltirgan holda, chap qo'l bilan qog'oz asta-sekin tortiladi. Tish orasidagi moylarni qog'oz o'ziga shimib oladi. Bu ham yordam bermasa mashinka ochilib, yaxshilab tozalanadi, agar moylanib turilmasa, uning qirqish qismlarining osti mayda qumli moslama yuzasiga ishqalab nuqsonini bartaraf etish mumkin.

Yuqori mehnat unumdorligiga ega bo'lganligi sababli, elektr mashinalari keng ommalashib ketgan. Harakatga kelish prinsipi-ga qarab ular turlarga bo'linadi. Ular plastmassa qoplamga ega.

Mashinka elektrodvigatel (qo'zg'atgich) va bosh qismidan iborat. Qo'zg'atgich va bosh qism o'rtasida harakatni uzatuvchi moslama (reduktor) joylashgan bo'lib, u plastmassadan tayyorlanadi. U sinib ketmasligi uchun maxsus prujina bilan jihozlangan bo'ladi. Mashinka jamlanmasiga tokka ulovchi sim moslama va bir necha keskichlar kiradi. Bosh qismining chap tarafida o'chirib-yoqadigan tugmachasi bo'ladi. Boshqa tarafida

esa almashtirib turadigan kesish moslamalarini qotirib qo‘yadigan tugmasi bo‘ladi.

Elektr mashinkalar bilan ehtiyotkorlik bilan muomala qilish zarur. Uni qo‘llar ho‘l holatda ishlatish, hujjatida ko‘rsatilgan tok kuchlanishidan boshqasiga ulash, juda ho‘l va kir sochlarga ishlatish taqiqlanadi. Har kuni ishlatiladigan mashinkalarning qismlarini ishdan chiqishini oldini olish uchun 3-4 oydan keyin ta‘mirlab turish lozim. 1,5-2 yil ishlatilgandan so‘ng, jamg‘armaga qo‘shib berilgan grafitni almashtirish tavsiya etiladi. Bosh qismidagi almashtiriladigan qirqish qismlari sochni 3 mm, 1/10 mm, 1/20 mm uzunlikda olishga mo‘ljallangan.

Mashinkaning bosh qismi faqat ishlab turgan holatda almashtiriladi. Mashinka to‘g‘ri sozlangan bo‘lsa, uning tovushi past va silkinishi kam bo‘ladi. Shovqini baland va titraydigan mashinkalar noto‘g‘ri sozlangan bo‘ladi.

Sochini kaltaroq yoki uzunroq olishga maxsus ajratilgan muruvvatni burash orqali erishiladi. Muruvvatning buralishi cheklangan bo‘lib, uni burashda kuch ishlatib bo‘lmaydi. Ustki qirqish moslama (plastina)sini o‘rnatganda, uning uchlari pastki plastinka uchlariga ozroq yetmay turishiga e‘tibor qaratish kerak. Aks holda, sochning chetlariga shakl berishda mijozning terisiga shikast yetkazib qo‘yish mumkin.

2.3. Sochni uzoq muddatga turmaklash uchun ishlatiladigan vositalar

Qisqichlar — yupqa kokil yasashda ishlatiladi. Ularning turlari juda ko‘p bo‘lishiga qaramasdan bir maqsadda — ho‘l sochni quritganda, unga berilgan shakl o‘zgarmaydi. Shaklning qolishini ta‘minlashda ishlatiladi. Odatda, uzunligi 3-4 sm bo‘lgan qisqichlar ishlatiladi. Soch quritilib, unga yakuniy shakl berishda, uzunligi 10-12 sm bo‘lgan to‘g‘ri yoki yoy-simon qisqichlardan foydalaniladi. Ular uzunligi bir xil bo‘lgan, yopiq holda bir-biriga tegib turadigan, bir-biri bilan o‘q orqali ulangan, prujinali ikkita metall qismdan iborat bo‘lib, ularning o‘zini ochish uchun kichik pichoqdan foydalaniladi.

Naycha va quritish idishlari. Bular sochni o'rab quritishda ishlatiladi. Naycha (trubka)ning diametri 7-8 sm bo'lib, isitish idishning ichiga bimalol kirishga mo'ljallangan bo'ladi. Uning uzunligi 8-10 sm bo'ladi. Naychaning bir uchida qopqoq bo'lib, u isitish moslamasiga sochni joyga o'rab o'rnatilganda, moslamaning o'ziga mahkam berkitadi.

Isitish idishchasi (banniy) esa aralashma surtib, naychaga o'ralgan sochni yaxshilab quritishga mo'ljallangan. Bu idishning diametri 2,5 sm bo'lib, bir tomoni qopqoq shaklida yopilgan bo'ladi. Ikkinchi uchi ochiq holda bo'lib, unga soch o'ralgan naycha kiritiladi. Idishda uzunasiga ochilgan 0,5 sm kenglikdagi ochiq ariqcha bo'lib, naycha joylashtirilganda undan soch o'rami o'tadi.

Bu usulda soch quritilganda «qisqichlar» (zajim) ishlatiladi. Ular bilan ajratib olingan sochlar qistirib qo'yiladi. Qisqichlar idishdagi sochga surtilgan aralashma qaynaganda bosh terisini kuyib qolishdan asraydi. Ular eni 0,8 sm, uzunligi 7-9 sm bo'lgan, metalldan yasalgan, yupqa ikki bo'lakdan tayyorlanib, ochilib yopilishiga mo'ljallangan bo'ladi. Bo'lakchanning ikkinchi qismida esa berkitib qo'yiladigan qulfchasi ham bor. Har ikki bo'lakka ham rezina naycha kiydirilib yoki rezina yelimlab qo'yilgan bo'lib, ushbu rezinalar yordamida soch siqib turiladi.

Tayoqchalar (koklyushki) sochga kimyoviy usulda shakl berishda ishlatiladi. Ular plastmassadan yoki qattiq daraxtlar yog'ochidan tayyorlanadi. Sochning sifatiga qarab, diametri 3 dan 12 mm gacha bo'lgan tayoqchalar ishlatiladi. Har ikki chetida o'ralgan sochni rezina bilan qistirib qo'yishga mo'ljallangan chuqurchalari bo'ladi. Tayoqchanning soch o'raladigan o'rta qismi ikki cheti bilan barobarlashadi va rezina taqilganda sochni chaynamaydi. Ba'zi tayoqchalarning ustki qismida uzunasiga ochilgan ariqchalar bo'ladi. Bu sochga oldindan kimyoviy qorishmalar surmasdan tayoqchalarga o'rash usulini qo'llashga imkoniyat yaratadi.

Qizdiruvchi moslamalar ikki turga bo'linadi: tashqi tarafdin qizdiruvchi va elektr qizdiruvchi. Ular temirdan yasalgan bo'lib, dastali temir qalamcha, dastali temir naycha va ularni bir-lashtirib qo'yadigan qisqichlardan iborat bo'ladi. Soch qalam-

chaga o‘ralib, naychaga joylashtiriladi va og‘zi yopib qo‘yiladi. Erkaklar xonasida sochni jingalak qilish uchun 5-8 mm, ayollar uchun 10-12 mm diametrli tayoqchalardan foydalanilmaydi.

Elektr toki yordamida qizdiriladigan metall tayoqchalar das-tali elektr qizdirgichlarga o‘rnatilib qizdiriladi. Qizdirgichning ichida tashqari tomondan himoya qopqog‘iga ega bo‘lgan elektr «spiral» sim joylashgan. Issiqlikni 150-200 °C gacha muvo-zanatda saqlab turuvchi moslamasi mavjud.

Qo‘llar ho‘l bo‘lgan holatda elektr isitgich asbobdan foy-dalanish mumkin emas.

2.4. Sochga shakl berish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar

Bigudilar, odatda, alyumin qorishmasi yoki plastmassadan tayyorlanadi. Shaklan ular konusga, silindrga yoki nayga o‘x-shagan bo‘lishi mumkin. Qanday ashyodan foydalanilishidan qat’i nazar ular diametriga qarab turlarga bo‘linadi. Ularning uzunligi 8-10 sm, diametri 1,5 dan 5 sm gacha bo‘lishi mumkin. Metall bigudilarning ustki qoplamida sochni burab quritayot-ganda, ular orasidan issiq havoning aylanishi qulay bo‘lishi va sochni tez quritish uchun mo‘ljallangan juda ko‘p teshiklar mavjud. Sochni o‘rab, rezina band bilan bog‘lab qo‘yish uchun bigudining boshqa qismida tishchalar yoki chuqurchalar bo‘lishi kerak.

Metall bigudilarning afzalligi shundaki, quritish jarayonida metall qizib sochning tezroq qurishiga olib keladi. Albatta, bunda soch o‘rami juda ko‘p bo‘lmasligi lozim.

Bigudining kamchiliklari:

- qotirib qo‘yadigan rezinaband bigudining asos qismiga tegib turgan sochlarni yaxshi siqmasligi natijasida, quritilgan soch taralganda, shakl yana o‘z holiga kelib qolishi mumkin;
- qizdirilgan bigudilar mijozning bo‘yni, chekkasi va quloq-larining uchini kuydiradi, natijada ularning teri bilan tegib tur-gan joylariga doimo paxta bo‘laklarini qo‘yib turishga to‘g‘ri keladi;

- qirqiladigan rezina bandlarini dezinfeksiya qilishning murakkabligi.



7-rasm. Bigudi turlari

Chyotkachali metall bigudilar (7-rasm). Bu bigudilarning mukammalroq turi hisoblanadi. Yopishib turadigan qoplama o'rniga tikansimon qoplama qo'yiladi. Undagi tikansimon tishlar orasiga o'ralgan soch tolalari bir maromda quritiladi. Bigudining tishlari soch o'ramini teshib turadi. O'ralgan sochni tirkab qo'yish usuli ham sochning to'planib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Sochning yo'nalishi ham quritilganda o'zgarib ketmaydi. Bu usul ancha yengil bo'lib, sochning shakli ham chiroyli chiqadi.

Bu bigudining farqi yana shundaki, ichkaridan chiqib turadigan tikanlarning tashqi qoplamasidan chiqib turishini ta'minlash maqsadida iloji boricha ko'proq teshikchalar qilingan. Bunday bigudilarning uzunligi 8 sm, diametri 1,5 dan 5 sm gacha bo'ladi. Tishlari, ya'ni tikanaklarining uzunligi bigudining aylanasiidan taxminan 1 sm ortiq bo'lishi lozim. U tikanachalar bilan soch o'ramini teshib turishi kerak. Bu bigudilarga soch o'ralgandan keyin ikkiga bukilgan, uchlari biroz dumaloq shakldagi 6-8 smli qattiq metall sim (shpilka) bilan qistirib qo'yiladi. Uzun sochlarni bo'shatish paytida sochlar chigallashib ketishi mumkin. Shunda bigudining ichkari tarafiga qo'l tiqib, soch ilingan tikanchalar sug'urib olinadi. Natijada soch bemalol sochiladi. Soch bo'shatib olingandan keyin tikanchani

yana bigudiga o'rnatib qo'ysa bo'ladi. Ish tugagach, tikanlarda ilinib qolgan sochlar bo'lgan bo'lsa, tozalab qo'yiladi.

Shu turdagi bigudilarning plastmassadan yasalgan har xil shakllari mavjud. Lekin ular amalda kam uchraydi.

Qo'l feni (quritgich) (8-rasm). Sochni quritish jarayonida unga turli xil shakllar berish mumkin. Buning uchun turli xil qo'shimcha moslamalarni quritgichga biriktirib ishlatiladi. Bular: grebenka, forsunka, cho'tka. Fenning turlari ko'p, lekin ularning umumiy tuzilishi deyarli bir xil. Fenning metall dan yoki plastmassadan tayyorlangan, asosida elektr havo purkagich, issiqlik muvozanatini saqlovchi moslama – termoregulyator, qizdirish moslamasi va o'chirib-yoquvchi tugma joylashadi. Tugmani bosish orqali qizdirish moslamasi va havo purkagich harakatga keltiriladi. Metall taroq biriktirilgan quritgichdan foydalanayotganda ehtiyot bo'lish kerak, chunki qizigan metall taroq mijozning terisini kuydirib qo'yishi mumkin.



8-rasm. Ploykalar

Purkagichlar (pulverizator). Bu moslamalar atir yoki tetiklashtiruvchi suyuqliklarni sepish uchun ishlatiladi. Deyarli barcha sartaroshlik ishlari yakunida ishlatilishi sababli, ularning tuzilishi va kamchiliklarini bartaraf etish yo'llarini bilish lozim.

Ular shisha idish, qopqoq, sozlanadigan murvatli burchaksimon temir naycha, rezinadan yasalgan naycha va 1-2 ta klapanli koptokchadan iborat. Idish va burchaksimon temir naycha orasidan havo o'tmasligi uchun qattiq qilib berkitiladi. Ichkarisidagi naycha tiqilib qolmasligi uchun uni vaqti-vaqti bilan ingichka sim bilan tozalab turiladi. Murvat tiqilib qolganda uni

yechib olib tozalash mumkin. Agarda purkagich lak sepishga ishlatilsa, ish yakunidan keyin uning ichlari atir yoki spirt bilan tozalanadi.

Zamonaviy quritgichlar kuchli elektr asboblari hisoblanadi. Eng kuchlilari 250 Vt kuchlanishgacha yetadi. Ularning ustunligi shundaki, havo qanchalik kuchli kelsa, kelayotgan havoning qisishi shuncha past bo'ladi. Bu soch kabi tabiatan nozik narsa uchun juda muhim. Fenning kuchlanishi faqat yuqori elektr bilan belgilanmaydi. Sartaroshning ishi mushkul bo'lib, u sabr-bardoshni, diqqat va mahoratni talab qiladi. Shuning uchun purkagich bilan ishlayotgan sartarosh quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1) asbob qo'lga qay darajada mos tushishiga, o'chirib-yoqish tugmalarining qulay joylashganligiga;

2) uzoq quritish va shakl berish jarayoni qo'lni toliqtirmasligiga;

3) ovozi yetarlicha past emasligiga;

4) fen aylantirib ishlatganda, tokka ulangan sim o'ralashib qolmasligiga;

5) fenni ishlatishdan maqsad nimaligiga.

Agar maqsad faqat sochni quritishning o'zi bo'lsa, unda kuchli shamol beruvchi quritgichdan foydalansa, vaqt ancha tejaladi. Fendan foydalanishdan maqsad — ham quritish, ham sochni o'rab shakl berish bo'lsa, uch xil issiqlik oqimidan foydalangan ma'qul. Yuqori daraja — sochni dastlabki quritib olish, o'rta daraja — sochni o'rab olish, past daraja — o'ralgan sochlarni sovutishda ishlatilsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sochga «shishirilgan» shakl berish uchun quritgichga biriktiriladigan qo'shimcha moslamalardan ham foydalanish qulay.

Fen kimyoviy usulda buralgan sochlarni quritishda ishlatilganda, havoni tarqatib beruvchi moslamani biriktirgan ma'qulroq. Chunki bu moslama kuchli havo oqimini yengil shabadaga aylantirib berish xususiyatiga ega bo'lib, sochlarni yoyib yubormasdan, berilgan shaklni saqlab qolgan holda qurita oladi.

Sochni hurpaytirish uchun ikkita turli o'lchamdagi aylana taroq va bitta aylana taroq majmuyidan foydalangan ma'qul.

Soch quritish — oddiy amal emas. Fen va taroqdan mohirona foydalangan satarosh mijoz sochiga jilo va ko'rkam tus berishga qodir. Bunday natijaga erishish uchun fen bilan ishlashning muhim usullaridan xabardor bo'lishi lozim.

Fen bilan ishlaganda sartarosh soch bilan asbob o'rtasidagi masofani saqlay bilishi kerak, oraliq masofa taxminan 20 sm bo'lishi zarur. Masofa qisqargani sari issiqlik darajasi ortib boradi. Hozirgi paytda sezgir (sensor) moslamalar bilan jihozlangan asboblarning mavjud. Ular masofaga qarab issiqlikni moslashtirib beradi.

Fenni qo'lda shunday tutish kerakki, issiqlikni soch tomidan uchi tomon yo'nalishi ta'minlansin. Shundagina sochning qatlami silliq bo'lib qoladi va soch yana ham jilolanadi.

Soch kalta qilib olingan taqdirda avval soch o'z shaklida taralib, undan keyin «oqimga qarshi» fen yordamida taraladi. Sochga bu usulda hurpayganroq shakl berish uchun mijozning boshi oldinga biroz egiladi.

Soch yarim uzun yoki uzun bo'lsa mijozning (ayollarning boshi oldi) tarafga egilib, sochlarning orqadan oldinga qarab «oqimga qarshi» fen yordamida taraladi. Och yarim quruq holda kelinganda esa bosh o'z holatiga ko'tarilib, sochga yakuniy shakl beriladi.

Bunday quritish usuli sochga issiq havo yordamida shakl berish ham deyiladi. Bu usul o'rtacha uzunlikdagi yoki kalta, to'g'ri yoki ozroq to'liqinsimon sochlarga shakl berishda, ayniqsa, qol keladi. Havo yordamida shakl berilgan sochlarning qattiq, egiluvchan va hajmli bo'ladi. Bunda oddiy temir taroq va dumaloq taroqiardan foydalanish mumkin. Ingichkaroq dumaloq taroqlar bilan sochga burama shakl bersa ham bo'ladi.

Uzun sochlarga havo bilan shakl berish unchalik to'g'ri kelmaydi. Uzun sochlarga shakl berish ko'p vaqtni talab qilishiga qaramasdan, fen vositasida berilgan shakl uzoqqa bormaydi.

Shuning uchun tirkama taroqni unchalik qirmasdan ishga solgan ma'qul. Ho'l sochga berilgan shaklning foydasi yo'q.

Sochning tepa qismlarini bosh ustiga qotirib qo'yib, ostki sochlardan boshlash maqsadga muvofiq. Shunday qilganda

shakl berilgan pastki sochlarga qurimagan tepa sochlarning nomi o'tmaydi. Har bir soch tutamini taroqni burab, biroz tortgan holda, oqimga qarshi tarab chiqish kerak. Soch tutami to'la qurimagunicha shu usulni bir necha bor qaytarish lozim.

Ingichka dumaloq taroq yordamida sochning qattiqligiga qarab to'liqinli ko'rinish beriladi. Bunda fen soch tutami taroqqa butkul o'ralgandan keyin ishlatiladi.

Sochning uchi va tomirining yonlari kattaroq diametrli dumaloq taroq bilan quritib chiqiladi.

Har bir soch tutamini avval issiq havo yordamida taroq bilan butkul quritib olib, keyin sovuq havo bilan sovutiladi. Shunday qilinganda, sochning va shaklning mustahkamligi va qattiqligi saqlab qolinadi.

Agar kalta sochlarning yarim quruq holatida ildizi atroflariga lak surtib yuborilsa, hurpayganroq shakl hosil qilish mumkin.

Buning uchun soch orasiga barmoqlarni tiqib, sochning uchlaridan biroz tortgan holda fen bilan havo yuboriladi. Oxirida qo'lni siqib soch uchlarini to'liqinsimon qilib bukiladi.

Jingalak sochlar jozibasini bo'rttirib, tabiiy qilib ko'rsatish uchun qotirishga mo'ljallangan ko'pikli suyuqlik sochga ishqalangach, sochni biroz boshga bosgan holda, kaft ostidan issiq havo purkash kerak bo'ladi.

Soch tutamiga yirik o'rama shakl berish uchun dumaloq cho'tka taroqqa (9-rasm) burab fen bilan qurutiladi.



9-rasm. Brashing

Qurutilgan soch o'ramini fenda sovuq havo bilan quritgandan keyin qisqich bilan qisgan holda soviguncha ushlab turish lozim.

Kalta sochni «tik» holatda saqlash uchun uni tepaga tortgan holda quritish kerak. Soch tolalari mayin bo'lgach unga qotiruvchi aralashma surtiladi.

Sochni «o'g'il bolalar» shaklida olish uchun barmoqlar yordamida shakl bergan ma'qul. Bunda sochni ko'pikli qotiruvchi suyuqlik bilan yuvib, barmoqlarni soch orasiga tiqqan holda ushlab, orqaga tortib quritgan ma'qul. Bundan so'ng sochni tarab yubormaslik zarur.

Sochni qayirib yotqizishda yaxshisi tirkaladigan taroqlar jamlanmasidan foydalanish kerak. Ikkita har xil diametrlilik dumaloq taroq va bitta yarim aylana taroqdan foydalanganda, shakl turg'un hamda hurpaygan holatda bo'ladi.

Yaxshi fen sartarosh ishlarining sifatini ta'minlaydi. Zamonaviy fenlar juda kuchli bo'lib, sharoitga qarab havo haroratini sovuqdan juda issiqqacha o'zgartirish imkoniyatiga ega. Qo'lni turli holatlarda tutishga imkoniyat yaratuvchi aylana dastali fen juda qulaydir.

Havoni mayinlashtirib beruvchi moslamali fen tabiiy va sun'iy jingalak qilingan sochlarga shakl berishga moslashgan. U havoni yumshatib turganligi tufayli fenni sochga yaqin tutishga imkon beradi.

Agar sochni ham qattiq, ham tabiiydek qilib buramoqchi bo'lsangiz bigudidan foydalangan yaxshiroq.

Avval, yuvilgan soch biroz qurutilib, bigudiga o'raladi.

Sochga kerak bo'lgan taranglik, uni bigudiga o'rab to'ia quritgunga qadar bajariladi. Bunda vaqt ham tejaladi.

Bigudidan soch tutamini ajratib olish uchun dastali, ingichka tishli taroq va o'rashdan oldin qurib qolgan soch tutamini ho'llab turish uchun suv purkagich ham kerak bo'ladi.

Soch tutamini ajratib olishda uning kengligi bigudining uzunligidan oshib ketmasligiga e'tibor berish kerak. Bigudida aniq kenglikda o'ralgan soch kutilgan natijani beradi.

Har bir o'ram boshning shakliga mutanosib ravishda, soch tomirining asosigacha, qiyshaytirmasdan o'ralishini ta'minlash lozim. O'ramning qattiq chiqishiga bu ham ta'sir etadi. Bigudining ichidagi o'qlog'i qancha tig'iz joylashsa, o'ram ham

shuncha mustahkam bo‘ladi. Buning uchun sochni o‘rashdan oldin mijozga og‘riq sezdirilmagan holda biroz tortish kerak.

Porolonli bigudida ishlash ancha qulay. Chunki sochning uchlari o‘qdonning ustidagi mayda bo‘rtmalarga yaxshi ilinib qoladi va o‘raganda chiqib ketmaydi. Bigudiga sochlar tiqilib to‘planib qolmaydigan qilib qotiriladi. Bunday holat, ko‘pincha, bigudini rezinkaband yoki maxsus tirkagich (skoba) bilan qotirganda yuz berishi mumkin. Agar bigudini plastmassa tirkagich (shpilka) bilan qotirilsa, salbiy natijalarning oldini olish mumkin.

Shpilkaning iloji boricha o‘ramning yo‘nalishiga qarshi shunday tirkash kerakki, uning uchi bundan oldin o‘ralgan (valik) o‘qdonning ustiga tirkalib tursin. Eng birinchi bigudi, odatda, peshonaning ustida bo‘ladi va u holda shpilka bosh terisiga tegib turadi.

Soch o‘rashni har doim boshning old tomonidan boshlab, orqa tomonga davom ettiriladi. Har doim ish boshning oldi markazidan boshlanadi.

Agar soch uzun bo‘lsa, soch tutamini kamroq ajratib olish lozim. Ko‘proq olingan holda, uning qurishi qiyin bo‘ladi.

Soch kalta bo‘lib, uni o‘rash jarayonida siipanib ketavergan taqdirda, uning ichiga yupqa qog‘oz o‘ralsa ish oson kechadi.

Mijozning sochi nozik bo‘lsa, uni o‘rashdan oldin qotiruvchi suyuqlikda namlab olish lozim. Shunda shakl mustahkam bo‘ladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, nozik va siyrak sochlarga faqat eng yengil qotiruvchi suyuqliklar to‘g‘ri keladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Sartaroshxonalar necha turga bo‘linadi?
2. Salon bilan oddiy sartaroshxonalarning farqi nimada?
3. Sartaroshxonalarni jihozlash tartiblari qanday amalga oshiriladi?
4. Sartaroshxonalarning sanitariya-texnik tuzilishi nimaga asoslangan?
5. Necha kvadrat metrda o‘t o‘chirish moslamasi bo‘lishi zarur?

6. Yong‘inning oldini olish bo‘yicha qanday choralar mavjud?
7. Sartaroshxonalarni qayerda joylashtirish qulay?
8. Sartaroshxonalarni joylashtirish tartiblari qanday?
9. Sartaroshxonalarda qanday asbob-uskunalaridan foydalaniladi?
10. Qanday qaychi va taroq turlari bor va ular qanday dezinfeksiya qilinadi?

Amaliy topirishlar

1. Qaychi ushlashni mashq qilish.
2. Qaychini charxlashni mashq qilish.
3. Sochga ishlatiladigan elektr asboblardan foydalanishni mashq qilish.

3-bo'lim. MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA TAYYORLOV VA YAKUNIY ISHLAR

3.1. Ish joyini tayyorlash

Tayanch iboralar: penyuar, pulvelizator, vodorod peroksidi, vazelin sera, shampun.

Sartaroshlik xizmatining barcha turlari mijozni kutib olishdan boshlanadi. Aynan shu paytda usta bilan mijoz o'rta-sida aloqa o'rnatiladi va undan keyin amalga oshiriladigan ish-ning qanday borishini aniqlab beradi. Ustaning ishchanlik kay-fiyati, ishning sifati, xizmat ko'rsatish madaniyati, mijozlar saf-ining kengayishi va pirovard natijada birinchi o'rnatilgan alo-qaga bog'liq bo'ladi.

Ishga tayyorgarlik ko'rish va ishni yakunlashga — mijozga bevosita xizmat ko'rsatish amallari bilan bog'liq bo'lmagan barcha ishlar jarayoni kiradi.

Sochga shakl berish, shu jumladan, bigudiga o'rash, sochni tarash, turmaklash, bo'yash, soch va soqol olish, sochni yuvish ishlari asosiy ishlab chiqarish jarayoniga kiradi.

Ish joyini to'g'ri tayyorlash ish samaradorligining oshishi va xizmat ko'rsatish madaniyatining saviyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bunda kerakli asbob-uskunalarni ko'zdan kechirib, qulay qilib ish stoliga joylashtirish, toza sochiq va choyshablarning shayligini ta'minlash. Issiq suv, dizinfeksiya aralashmalari, atir-upalar va kimyoviy vositalarning yetarli bo'lishini ta'min-lash ishlari amalga oshiriladi. Ustara, qaychi va boshqa qirqu-vchi asboblarni qayrash, dizinfeksiya qilish, lozim bo'lsa, almashtiriladigan tig'larini yangilash ham shu jarayonga kiradi.

Odatda, ishda ko'p qo'llaniladigan asosiy asboblarni ish sto-lining o'ng tarafida, olib ishlatishga qulay joyga qo'yiladi.

Ayollar bo'limida ishlaydigan ustalarning asbob-uskunalari va moslamalari ko'proq bo'lganligi sababli asosiy ish stolidan tashqari qo'shimcha — g'ildirakli stolcha bo'lgani yaxshi. Bu stolchaga spirt aralashmasi, dezinfeksiya aralashmasi, paxta,

shisha idishga solingan periks vodorodi, pardozi suyuqligi, odevkolon, shampun, upa kabi pardozi ashyolari qo'yiladi.

Agar ish stoliga joylashtirilgan bosh yuvish moslamasi bo'lsa, albatta, atir sovun bo'lishi shart. Sartarosh har bir mijozga xizmat ko'rsatishdan oldin mijozning ko'zi oldida bosh yuvish moslamasini atir sovun bilan yuvib yuborishi lozim.

Ustaning ishi, iloji boricha, mijozning talabini qondirishi kerak. Buning uchun ishni to'g'ri tashkil qilish zarur. Ayollar bo'limida mijozlar ko'payib ketsa, oldindan navbatga yozib qo'yishni tashkil etish lozim. Navbatga yozishni ustaning o'zi olib boradi. Ustalarning 60 % mijozlarga navbatga yozish bo'yicha xizmat ko'rsatishsa, 40 % bevosita navbatda turganlarga xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Navbatga rioya etilishini boshqaruvchi nazorat qilib turadi. U ishning turi, murakkabligi va narxini ham hisobga oladi. Ustaning turmash, bo'yash kabi murakkab ishlari ham qayd etish daftariga yozib boriladi.

Usta mijozga sifatli va madaniy xizmat ko'rsatish uchun javobgar hisoblanadi. Yaxshi natijaga erishish ustaning kasb mahorati va qulay muhitni yaratishiga bog'liq. Ustaning tashqi ko'rinishi, asboblarni to'g'ri tanlashi, sanitariya talablariga rioya qilishi va muomala madaniyati mijozda ishning yaxshi bajarihlashiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Usta yangi urf bo'lgan soch shakllaridan xabardor bo'lishi bilan birga, mijozning xohishini ham hisobga olishi lozim. Buning uchun usta doimiy ravishda maxsus adabiyotlardan foydalanishi, o'rganishi, malakasini oshirishi, nozik didli bo'lishi, shuningdek, chegaradan chiqmasligi kerak. U barcha turdagi soch shakllarini bajarish, soch olish, bo'yash, issiqlik va kimyoviy quritish usullarini yuqori saviyada amalga oshira bilishi zarur.

Usta ish joyining tartibligiga, asbob-uskunalar, choyshab va sochiqlarning shayligiga javob beradi. Chunki ishning sifati ko'p jihatdan ana shularga ham bog'liq.

Mehnatga haq to'lash tizimining to'g'ri tashkil etilishi ham ishning yaxshi borishiga ta'sir ko'rsatadi. Bevosita ustaning o'zi mijozdan pul oladigan bo'lsa, narx o'zaro kelishilgani ma'qul.

Ustaning kun davomida ishlagani va rejani bajarganini aks ettiruvchi ko'rgazmali ma'lumotnoma bo'lishi kerak.

Choyshab mijozning kiyim-kechagini sochning qirqilgan tolalaridan muhofaza qiladi. Choyshab doimo salfetka bilan birga ishlatiladi. Avval mijozning bo'yni va yoqalari orasiga salfetka o'raladi, undan keyin iyakning ostigacha choyshab o'raladi. Usta mijozning orqa tarafida turib, choyshabning chap uchi o'ng tarafini bo'yin ostiga bosib turadigan qilib o'raydi. Bosh turgan o'ng uchi esa choyshabning chap tarafi ostiga qistiriladi. Bunda mijozning bo'ynini siqib qolishi yoki buklangan joylari qo'pol bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Choyshabni shunday o'rash kerakki, undan oldin o'ralgan salfetka qirralari ko'rinib turishi kerak.

Choyshabni o'rab bo'lgandan keyin salfetka qirrasi choyshab o'ralgan joyining ustiga qayirib qo'yiladi, shundan keyin, bo'yinga ozroq upa sepilib, orasiga yupqa qilib, titilgan paxta joylashtiriladi. Bularning barchasi, qirqilgan soch tolalari, mijozning yoqa orasidan ko'ylagi orasiga tushmasligi uchun qilinadi. Ish tugagandan keyin bo'yindagi mayda sochlar yangi salfetka yordamida olib tashlanadi

Ustara bilan soch (sochni ho'llab) olinganda bo'yinga upa sepilmaydi. Erkaklar bo'limida sochga fenda shakl berilayotganda choyshab yechilib, yelkasiga toza sochiq tashlab qo'yiladi.

Soqol olishda esa faqat salfetkadan foydalaniladi. Bitta salfetka o'rindiqlarning bosh suyaydigan qismida tashlab qo'yilsa, ikkinchisi bilan mijozning bo'yni o'rab qo'yiladi. Uning bir uchi yoqaga qistiriladi. Salfetkaning bir uchi chap tarafga qistirilgandan keyin o'rtasi 90° bukilib, o'ng tarafga qistiriladi.

Ayollar bo'limida kalta sochni bo'yashda mijoz yelkasiga qo'shimcha sochiq tashlanib, uni bo'yoqdan himoya qilish uchun ustidan polietilen mato bilan yopiladi.

Ayollar bo'limida sochiqdan, asosan, bosh yuvish, bo'yash, jingalak qilishda foydalaniladi. Mayda sochlardan tozalash oson bo'lganligi sababli, paxmoq sochiqlardan ko'ra, katak shakldagi (vafelniy) sochiqlardan foydalangan afzal.

Qurigan sochni tarab yuborishda ayollar yelkasiga sun'iy matodan tayyorlangan choyshab tashlab qo'yiladi. Bu choyshab mijoz terisiga tegmasligi sababli, undan bir necha bor foydalanish mumkin.

Sochni bo'yash va jingalak qilish uchun tayyorgarlik ko'rish ishlari bir qadar ko'proq vaqtni talab qiladi. Qorishmani to'g'ri tayyorlash sochning xususiyati, uning tuzilishini aniqlash, qorishmaning sochga qanday ta'sir qilishini amalda sinab ko'rish va hokazolar.

Sartaroshlikda ishlatiladigan so'zlarning ma'nosini aniq bilish ayrim amallarni to'g'ri bajarishga o'rganishda yordam beradi. Sochni tarash va tozalashning ma'nosi ham bajariladigan amalning har xil ekanligidan dalolat beradi.

Sochni tarash soch bilan bog'liq bo'lgan har qanday ishning boshlanish jarayoniga kiradi.

Soch tarash mijozning chalkash sochlarini o'sish yo'nalishiga qarata tarab, tekislab olish demakdir. Agar soch dastlab yaxshilab tarab olinmasa, ularni bigudiga yoki tayyoqchalarga o'rab quritish hamda bo'yash ham qiyinlashadi.

Soch dastlab taralganda tishli taroq ishlatiladi. Shuningdek, tikanli taroqda taragan ham ma'qul. Yumshoq rezina yostiqchali taroqlar bu ishni mijozga og'riq sezdirmasdan bajarilishini ta'minlaydi. Yuvilgan ho'l va nozik sochlarni tutamlarga ajratib tarash kerak. Kimyoviy usulda bo'yalgan va uzoq muddatga turmaklangan sochni yuvgandan keyin tarash uchun avval yumshatilgan suvda chayib yuborgan ma'qul. Soch yuvmasdan o'raladigan bo'lsa, suv yoki maxsus aralashmani sochga paxta yoki purkagich bilan sepish kerak. Shunda to'g'rilangan soch tutamining shakli buzilmaydi va ish osonlashadi. Juda ham chalkashib ketgan sochlar esa tarashdan oldin qismlarga bo'lib olinadi – avval qoq o'rtadan to'g'ri qilib farq ochiladi, keyin tepa o'ram orqali bir quloqdan ikkinchi quloqqa qarab yana farq ochiladi. Keyin har qismini alohida o'ram qilib tarash kifoya. Soch qancha kam chalkashgan bo'lsa qismlar soni ham kamroq bo'ladi.

Sochni tarab yoyish amali, sochni qurutib bigudilardan xalos

qilingandan keyin oddiy taroq yoki cho'tkali taroq yordamida yoyib yuborilib, soch shakliga hurpaygan va tabiiy ko'rinish berish uchun bajariladi.

3.2. Yakuniy ishlar

Xizmat ko'rsatish sohasida avvalambor, muomala madaniyati, mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan diqqat-e'tiborga bog'liqdir.

Hamмамiz mijoz sifatida sartaroshxonalarga kirib turamiz.

Ba'zan tez-tez kirib turamiz, ba'zan esa — aksincha. Buning sababi nimada? Biz xizmat qiluvchi shaxslarning qanday munosabatda bo'lishlarini, nozik bir tarzda sezib turamiz. Bir sartaroshxonada uning xodimi kulib kutib olsa, boshqa joyda uning qo'pol munosabatda bo'lganligining guvohi bo'lamiz.

G'arb tadbirkorlarining muvaffaqiyatlari quyidagilardan iborat:

<i>MUVAFFAQIYAT = KASBIY MAHORAT + VIJDON</i>
--

Vijsdon haqida gapirganda, har bir xizmat ko'rsatuvchi soha xodimi quyidagi axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishi lozim:

- to'g'rilik, nazokat, vazminlik;
- xushmuomalalik, xushfe'llik;
- iltifot;
- g'amxo'rlik;
- rostgo'ylik, to'g'rilik va hokazolar.

Yakuniy ishlarga quyidagilar kiradi:

- yuz terisi va bo'yinni mayda kesilib tushgan sochlardan cho'tka yoki sochiq bilan qoqib tushirish;

- ustki choyshabni yechish, ya'ni choyshabni mijozning kiyimiga mayda sochlarni tushirmasdan ichkariga asta-sekin qayriltirib chap tomondan olib qoqiladi;

- mijozga bajarilgan ishni har tomondan ko'rib chiqishiga va baholashiga imkoniyat beradi;

- preyskurant bo'yicha mijoz tomonidan to'lovni amalga oshirish;

- usta mijozga tashakkur bildirib va kuzatib, ish joyini tozalaydi;

- a) ishlatilgan ashyolarni tashlab, ishlatilmaganlarini esa joylashtirib qo'yadi;
- b) ishlatilgan sochiqlarni maxsus qopqoqli konteynerga solib qo'yadi;
- d) taroqlarni dezinfeksiya qilib, chayib olib qo'yadi;
- e) ish joyini sochlardan tozalab qo'yadi;
- f) navbatdagi mijozni taklif qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Tayyorlov ishlariga qanday harakatlar kiradi?
2. Yakuniy ishlardan eng asosiysi qaysi hisoblanadi?
3. Mijozga sifatli va madaniy xizmat ko'rsatish uchun kim javobgar hisoblanadi?
4. Ustaning ishonchini nima oshiradi?
5. Choyshab qanday boylanadi?

Amaliy mashg'ulotlar

1. Tayyorlov va yakuniy ishlar mashqi (sartarosh ustaxonasida o'tkaziladi).


4-bo'lim. BOSHNI YUVISH VA MASSAJ QILISH

4.1. Soch haqida umumiy tushuncha

Tayanch iboralar: balzam, shampun, brilliant eritmasi, elastik soch, efir moyi, glitserin.

Sochning tuzilishi to'g'risida gapirishdan oldin terining tuzilishini bilib olish kerak. Chunki kimyoviy moddalar sochga ham, teriga ham ta'sir o'tkazadi. Shuni unutmaslik kerakki, ko'pincha, bu ta'sir salbiy bo'lishi ham mumkin.

Terining ustki qatlami epidermis deb ataladi (10-rasm).



10-rasm. Soch tuzilishi

Sochni namlanishdan himoya qiluvchi, yog' ajratib chiqaradigan bezlar aynan shu qatlamda joylashgan bo'ladi. Terining eng yuqori qismida muguzli, uning pastida so'rg'ichli qatlam, eng pastida, ya'ni quyi qismida esa to'qimalar bo'lib, ularda sochning negizi (piyozi) va bezlar joylashadi. Havo, nur, taroq kabi tashqi ta'sir natijasida to'qimalarning nobud bo'lishi va ko'chib tushishi sodir bo'ladi. Nobud bo'lgan to'qimalarning qayta tiklanishi, ko'payishi va mustahkamlanishi terining chuqurroq qatlamida yuz beradi. Muguzli qatlamning yemirilishi faqat tashqi muhitga emas, balki teri asosiy qatlamining sog'lomligiga ham bog'liq. Chunki yuqori qism doimo pastki qismdan oziqlanib turadi.

Epidermisning tola yangilanish jarayoni taxminan 20 kun davom etadi. Nobud bo'lgan to'qimalar oq rangdagi mayda zarrachalarga aylanib to'kila boshlaydi. Bular to'q rangdagi sochlarni taraganda ko'zga tashlanadi. Sochga kimyoviy qorishmalarning surunkali ta'sir etishi, issiq fendan juda uzoq muddat foydalanish, bosh terisining qattiq qatlamidagi tabiiy yangilanib turish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi va to'qimalar yemirilishi kuchayib, boshda qazg'oq paydo bo'ladi. Boshdagi yog' ajratib beruvchi bezlarning faoliyatiga qarab qazg'oq quruq yoki yog'li bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham terining barcha qism va qoplamlarining mutanosib faoliyatini ta'minlash uchun maxsus davolash amallarini qo'llash kerak bo'ladi. Bosh terisi sog'lom bo'lsa, yemirilish jarayoni unchalik sezilmaydi.

Tananing boshqa qismlariga qaraganda bosh terisida soch juda ko'p bo'lib, yog' bezlari ham shunga yarasha ko'payadi. Har bir soch tolasi yog' bezlariga ega bo'ladi. Soch tolasi dumaloq shaklda bo'lib, bir necha qatlamdan iboratdir. Sochning qatlamlari, asosan, 3 qismga bo'linadi. Ular sochning o'zagi, sochning qobiq moddasi va sochning qoplami (kutikula)dan iborat.

Sochning o'zagi yirik to'qimalardan iborat bo'lib, mayda havo pufakchalari sochning hayot faoliyatini ta'minlab turadi. U sochning eng markazida joylashgan bo'lib, sochning umumiy diametriga nisbatan ancha ingichkadir. Sochning qobiq qismi sochning asosiy qatlamidir. U mayda, ipsimon to'qimalar (keratin)dan iborat bo'lib, uni qizdirib shakl berish, kimyoviy usul bilan bo'yashda asosiy vazifani bajaradi. Kimyoviy bo'yoqlar aslida tabiiy rangga ega bo'lgan qatlamga vodorod peroksid yordamida shimdiriladi.

Sochning qattiq qoplami bamisoli baliqning tangasi singari yapaloq, qattiq qismlardan iborat bo'lib, ular sochning ichiga qarab bir-birini biroz yopib turadi. Bu tangachalar sochni tashqi ta'sirdan yopib turadi. Go'yo soch bosh terisini himoya qilib turgandek, tangachalar ham soch asosini himoyalaydi.

Sochning qurishi yoki kasallanishi natijasida tangalar ham qurib, bamisoli archaning yong'og'i kabi yoyilib, ochilib qoladi.

Yengil aralashmalar va tabiiy malhamlar yordamida soch parvarish qilinsa, tangalar tekislanib, yana sochni qattiq himoya qila boshlaydi. Aks holda, sochning rangi xira tortib qolishi mumkin.

Soch tolasining tuzilishi boshidan uchigacha bir xil bo'lganligi sababli, uni o'rganish qiyin emas. Ammo sochning tomirini o'rganish ancha qiyinroq. Agarda usta bilmasdan sochning o'zagiga zarar yetkazib qo'ysa, soch o'sishdan to'xtamaydi. Lekin surunkali sochning tomiriga salbiy ta'sir etaversa, soch qisman yoki butunlay to'kilib ketishi mumkin. Shuning uchun usta kimyoviy moddalardan foydalanishda bilimdonlik bilan yondashib, asosan, sochning tomiriga shikast yetkazmaslikka harakat qilishi lozim.

Sochning tomiri bosh terisidagi soch qopchasida joylashib, yog' ajratuvchi bezlarning yog' chiqish yo'lagi ham unga tutashgan bo'ladi. Soch o'sha yerda paydo bo'ladi, o'sib chiqadi va oziqlanadi. Bu qopcha fanda folikula deb nomlanadi. Bosh terisidagi teshikchalar orqali soch tashqariga o'sib chiqadi. Sochning tomiri bosh terisining yuzasiga nisbatan burchak shaklida egilgan holatda joylashadi. U o'saverib o'z-o'zidan pastga egilib turadi. Sochni olishda shu xususiyatni hisobga olish zarur.

Sochning pastki qismi qalinlashgan bo'lib, «piyozcha» deb ataladi. U bosh terisida joylashib, surgichlari bilan qon tomir-lari va asab tolalariga ulangan bo'ladi. Ular sochning sogiom o'sishida asosiy vazifani o'taydi. Piyozcha esa soch to'kilganda birga tushib ketadi.

Soch qopchasi konussimon bo'lib, yuqori tarafi ingichka, past tarafi har tomonga keng yoyilgan bo'ladi. Yuqoridagi ingichka qismi bir tarafdin yog' bezlaridan, ikkinchi tarafdin ter bezlaridan chiqib keluvchi ingichka naysimon yo'laklarga tutashgan holda, bosh terisining tashqarisiga chiqib turadi. Soch qopchasiga soch muskullari ham tutashgan bo'lib, ular epidermisdagi to'qimalarga ulanib ketadi. Muskullar kuchli tortishganida bezlar keskin siqiladi.

Sochlar uzunligi turlicha bo'lib, ular tez o'sadi. Odam tug'ilganda paydo bo'lgan sochlar juda uzoq yillar o'sadi.

Odam keksayishi bilan sochning o'sishi ham sustlashadi va to'kila boshlaydi. Sochga rang beruvchi to'qimalarning faoliyati tugashi natijasida sochlar oqaradi.

Sochlar boshda o'ziga xos holda joylashadi. Odatda, ular guruh-guruh bo'lib o'sadi. Tomiri esa teri ostiga burchak shaklida joylashadi. Boshning tepasidan pastga, o'rim hosil qilgandek bo'lib tarqaladi. Boshning tepasidagi o'ramda soch ko'proq bo'ladi. O'ram chap yoki o'ng tarafga keskin aylana ko'rinishida yo'nalgan bo'ladi. Boshdagi sochlar soni turiichadir. U odamning irqi va sochining ranggiga bog'liq. Bosh terisi yuzasining 1 sm² ga, odatda, to'q rangli sochlar tolasi 150-550 dona bo'lsa, och rangli nozik sochlar tolasi 180-750 ta bo'ladi. Qora rangli sochlar soni taxminan 100 000 ta bo'lsa, malla sochlar soni 150 000 taga yetadi.

Sochning rangi undagi rang (pigment)ning miqdoriga bog'liq. Ranglar jilosi sochdagi pigmentlar miqdoriga qarab to'q qora rangdan oq-kumush ranggacha bo'lishi mumkin. Bunday ochiq rangli sochlarda pigment umuman yo'q, desa ham bo'ladi. Boshqa barcha rangdagi sochlar soch tarkibidagi pigmentlarning aralashuvi natijasidir. Yosh bolalarning sochi ochroq bo'lib, ular ulg'ayavergach, sochi ham to'q bo'lib boradi. Balog'atga yetgan chog'ida soch rangi to'la turg'unlashadi. Qarigan sari soch oqara boshlaydi, lekin ba'zan soch oqarishi ertaroq yuz berishi mumkin.

Sochning rangi odamning irqiga ham bog'liq. Shimol tarafda yashovchilarning soch rangi ochroq bo'lsa, Osiyo mamlakatlari va O'rta Yer dengizi atrofida yashovchi aholining sochlari to'q rangda bo'ladi. Soch rangi nasldan naslga ham o'tadi. Sochning erta oqarishi yoki erta to'kilishi ham nasldan o'tishi mumkin. Hozirda soch ranglari 10 guruhga va 50 xilga bo'linadi.

Sochning shakli irqiy yoki nasliy bo'lishi mumkin. Uchta asosiy irq – mongoloid (osiyoliklar), yevropoid va negroidlarning sochlari ham o'ziga xos shaklda bo'ladi. Mongoloidlarga mansub odamlarning sochlari qattiq va dag'al, to'g'ri yoki biroz to'lqinsimon bo'ladi. Yevropaliklarning sochi nozik, to'lqinsimon yoki biroz jingalak bo'lishi mumkin. Negroidlarning

sochi qattiq bo'lib, jingalak yoki o'ta jingalak bo'ladi.

Sochning qalinligi ham yoshiga, irqiga va nasliga bog'liq bo'lishi mumkin. Uzunligi esa turlicha bo'lib, buning sabablari ham turlicha. Sochning o'sishiga piyozchalar to'qimasining ko'payishi ham sabab bo'ladi. Soch bir kunda taxminan 0,5 mm, bir oyda 1,5-2 sm, bir yilda 15-20 sm o'sishi mumkin. Soch o'sishining tezlanishi uni qirqib turishga bog'liq emas. Sochning umri odamning salomatligiga bog'liq. Sog'lom soch, odatda, 8-10 yil yashaydi.

4.2. Sochning kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari

Sochning tarkibiy qismi oqsil moddalarini tashkil qiluvchi keratin va pigmentdan iborat (insondagi qattiq a'zolar – soch, mo'ylov va tirnoq, hayvonlarda – shox, tirnoq va tuyoqlar keratin moddasining shakllanishidan paydo bo'ladi).

Soch tarkibida quyidagi kimyoviy elementlar mavjud: uglerod – 49,5 %, kislorod – 23 %, azot – 13-17 %, vodorod – 6,5 %, oltingugurt – 4 %.

Keratin epidermisni ba'zi kimyoviy birikmalar ta'siridan, iqlimning o'zgarishidan asrab, mikroblardan saqlaydi.

Sochning tuzilishi ham xuddi terining himoya qatlamiga o'xshash bo'ladi. Sochning asosi bir-biriga tutash bo'lgan yadrosiz to'qimalardan iborat bo'ladi. Bular o'lik to'qimalar hisoblanadi. Ularning qotishi teridan ajralib chiqadigan oqsil moddasi yordamida vujudga keladi va keratin paydo bo'ladi.

Kuchsiz ishqorlar yuqori haroratda keratinga yomon ta'sir ko'rsatadi. Kuchli ishqorlar past haroratda ham keratinni yemiradi. Kimyoviy aralashmalarda kislotalarning me'yorida ortiq qo'shilishi va yuqori haroratning ishlatilishi ham keratinni yemiradi. Bunday holda keratin asta-sekin yemirilishi mumkin.

Har qanday oqsil moddasi kabi keratin ham aminokislotalardan tashkil topgan. Keratin to'qimalari zanjirsimon to'qimalardan iborat bo'lib, u soch asosini mahkam o'rab turadi. Bu kabi bir-biriga ulanib ketgan qismlar sochning egiluvchanligi va mustahkamligini ta'minlaydi.

Pigment — kul rang-jigar rang va qizil-sariq moddalardan iborat. Sochning rangi ularning mutanosibligi va miqdoriga bog'liq. Bu oqsillar 13 % azot va 10 % oltingugurtdan iborat. Undan tashqari, ko'p miqdorda kislorod, qisman temir va margumush ham bor. Pigment suvda erimaydi. U ishqor va sovutilgan kislotalarda eriydi. Sochdagi pigment vodorod yoki brom qorishmasi yordamida qisman yoki butunlay yo'q qilinishi mumkin. Sochning piyozchasi ichida paydo bo'ladigan to'qimalar tarkibida bo'yoq moddalari mavjud bo'ladi. Bu to'qimalar bora-bora sochning ustki qatlamiga o'tadi. To'q rangli sochlarda bunday tabiiy bo'yoq moddasi juda ko'p bo'ladi. Bu moddalar soch asosiga tubdan singib, soch ko'rinishiga to'q tus beradi. Pigment soch tolasi bo'ylab urug'dek yoki kukundek yoyiladi. Urug'dek tarqalgan ranglar to'qroq tus bersa, kukundek yoyilgan rang moddalari ochroq tus beradi.

Sochning rangi tabiiy ravishda, kasallanish natijasida va sun'iy usulda o'zgarishi mumkin. Sun'iy usulda sochga och tus berish yoki rangsizlantirish uchun pigmentga kimyoviy moddalar yordamida ta'sir o'tkazilib, urug'simon pigmentlar yoyib yuboriladi. Tarkibida qizil, sanq pigmentlari bor sochlarga ochiq rang berish, kul rang-jigar rang pigmentlari bor sochlarga ochiqroq rang berishdan qiyinroq kechadi, shuning uchun qizil-sariq rangli sochlar och tus oladi. Sochning rangiga juda och rang berishdan ehtiyot bo'lish kerak, chunki bu soch holatining buzilishiga olib keladi.

Sochning fizik xususiyatlariga uning mustahkamligi, egiluvchanligi, suv singdira olishi va elektrlashuvi kiradi.

Sochning mustahkamligiga uning mexanik, kimyoviy va biologik ta'sirlarga bardosh berish xususiyatlari kiradi. Soch ho'l holatda egiluvchan bo'ladi. Ho'l sochning shaklini o'zgartirish oson bo'lsa ham, vaqt o'tishi bilan, u o'z shakliga qaytadi. Soch bigudiga o'rab shakl berilganda ham, baribir, o'z holatiga qaytadi. Kimyoviy usulda ta'sir etilganda soch kislotalar ta'siriga qarshilik ko'rsatishiga to'g'ri keladi. Bu, o'z o'rnida, sochning begona moddalar ta'siriga bardosh berishiga ham ta'sir qiladi.

Sochning tarkibi, mustahkamligi va egiluvchanligiga ish-

qorlar ancha ta'sir qiladi. Ular ba'zan sochni o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Soch qarshiligining kamayishi, kimyoviy qorishmalardagi ishqorning miqdoriga ham bog'liq. Ammiakning 5 %li aralashmasi sochning buzilishiga kam ta'sir qiladi, 20 %ga yetsa — salbiy ta'sir ko'zga tashlanadi, 70 %ga chiqsa — sochning himoya qatlamini butkul yo'q qiladi.

Ishqorlar sochning suv shimib olish sifatini oshiradi. Ishqonring haddan ortiq ta'siridan sochga suv shimilib, u 2-3 barobar shishib ketadi. Uzoq muddat turmaklangan yoki shakl berilgan soch o'zgaradi. Uning qoplamini dag'allashib, suv shimadigan bo'lib qoladi. O'ziga 100 %li suv singdirilgan soch bilan ishlash uchun — 1 %li, 10 % suv shimadigan sochga 10 %li ishqor aralashmasidan foydalanish lozim.

Sochni kimyoviy usulda turmaklashda uning o'zgarishi — 15 %ni, qisqich bilan turmaklab quritganda — 20 %ni, elektr asbobida 60 %ni tashkil etadi. Sochga och rang beruvchi ashyolar uning mustahkamligini kamaytiradi. Vodorod aralashmasi ta'sirida soch ingichkalashadi.

Aynan shuning uchun ham uni teridagi mayda tuklarni ketkazishda ishlatiladi. Sochga surunkali och rang berish sochning egiluvchanligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni suv shimadigan, sinadigan qilib, fenda qurishini ham qiyinlashtiradi. Juda och rang berilgan sochni uzoq muddat turmaklamagan ma'qul. Chunki sifati kutilgandek bo'lmaydi.

Qorishma va aralashmalarni tayyorlashda juda ehtiyot bo'lmasa, soch mo'rt bo'lib qolishi mumkin. Nozik sochlarga ishlov berishda aralashma tarkibi ham, issiqlik me'yori ham sog'lom sochga nisbatan kamroq bo'lishi lozim. Kimyoviy usulda ham qorishma kuchsiz tayyorlanib, kamroq ushlanib turilishi kerak.

Sochning egiluvchanligi soch cho'zilganda cho'zilishi va erkin qo'yilganda o'z holiga qaytish xususiyatiga ega. Soch ho'llanganda, uning egiluvchanligi oshadi. Tortilgan quruq soch 20-30 %ga, sovuq suvda ho'llangan soch 80 %ga uzunlashishi mumkin. Issiq suv yoki suv bug'lari ta'sirida soch cho'zilish xususiyatini yo'qotib unda katta o'zgarishlar seziladi. Egiluvchanligini yo'qotgan sochlar bug' yoki elektr usulida ishlov

berilganda shakli anchagacha saqlanib qoladi. Turmaklab shakl berish usulining asosida sochning aynan shu xususiyati yotadi.

Uzoq muddat issiqlik bilan ishlov berish sochga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Soch turmaklanib qizdirilganda, undagi shimilgan suv qaynay boshlab, sochni kuydiradi. Juda katta haroratda sochni kuydirib qo'yish hech gap emas. Issiqlik bilan sochga shakl berishda buni unutmaslik kerak.

Soch o'ziga suv bug'lari, o'simlik va jonivor moylarini singdirib, mineral moylarni qabul qilmaydi va ular soch sirtida qolib ketadi. Soch namlikni havodan ham olishi mumkin. Shuning uchun havoning namligi soch shakliga ta'sir etadi.

Yog' bezlari soch xaltachalari bilan o'zaro bog'langan bo'lib, soch o'sib turgan teri va sochning holatiga ta'sir qiladi. Teri yog'i bez to'qimalaridan ajralib chiqib, soch xaltachasiga ter bilan birga o'tadi va xaltachaning uchi orqali sochning qobig'i bo'ylab bir maromda tarqalib, sochni qurish va sinishdan himoya qiladi.

Soch yog'i moy jismlari, suv va boshqa ashyolardan tarkib topgan. Undagi moy miqdori 60 %ni tashkil etib, ular biri-biri bilan aralashgan yoki erkin holdagi kislota yog'lari, xolisterin, mum va boshqalardan tarkib topgan. Yog'larning tarkibi odamning fiziologik xususiyatlari va kasalliklariga bog'liq. Yog' odam terisi uzra bir maromda yoyilgan yupqa qatlamni tashkil etadi. Bu qatlam odam terisini sartaroshlikda ishlatiladigan turli kimyoviy qorishmalar va suv tarkibida mavjud bo'lgan salbiy ta'sir etuvchi narsalardan himoya etuvchi o'ziga xos to'siq hisoblanadi. Yog'li qatlam ba'zi ishqorlarni eritib yuborish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli, u ishqorning ta'sirini yo'q qiladi. Bosh terisidagi yog' sovun bilan yuvish orqali ketkaziladi. Tananing fiziologik xususiyatiga qarab ma'lum vaqtdan keyin teri yana yog' bilan qoplanib qoladi. Ishlash paytida bosh terisining yangi yog' qoplami bilan xususiyati va tezligi hisobga olinishi kerak. Nozik sochlarni bo'yash, rangini ketkazish va turmaklashdan bir necha kun oldin sochni yuvib qo'yish kerak. Shunda yog' qatlami yangilanishga ulguradi. Agar yog' qatlami tezda o'ziga kelmasa, sartaroshlik ishlari qiyinlashadi.

4.3. Soch kasalliklari

Soch chiroyli va sogʻlom koʻrinishga ega boʻlishi uchun maxsus ashyolardan doimo foydalanib turilsa, soch ildizlari mustahkamlanib, kasalliklarning oldi olinadi.

Mijozlarning bu borada birinchi maslahatchisi sartarosh hisoblanadi. Usta faqatgina chiroyli qilib soch olishni emas, balki sochni parvarishlash va kasalliklarning oldini olish yuzasidan bajariladigan barcha amallarni bilib bajarishi, toʻgʻri maslahat bera olishi, kasallik alomatlarini aniqlay bilishi, har bir mijozning bosh terisining oʻziga xos xususiyatlarini farqlashi kerak. Masalan, sochning yogʻli boʻlishi kasallik alomati boʻlmasligi mumkin. Agar bir necha kun yuvilmagan boʻlsa ham soch va bosh terisi yogʻli boʻlishi tabiiy hol. Baʼzan biror turdagi shampundan foydalanish ham yogʻning koʻp ajralib chiqishiga olib keladi. U holda boshqa shampundan foydalanishni tavsiya qilish lozim. Faqat surunkasiga koʻp yogʻ chiqadigan hollardagina davolash usullarini qollash taqozo etiladi.

Bosh kiyimlarining sochga taʼsiri. Bosh kiyimlari sochning sifatiga bevosita aloqador. Sochga doimo havodan toza kislorod kelib turishi lozim. Ular xuddi teri nafas olganidek, nafas olib turishi kerak. Sochga va bosh terisiga doimo toza havo kelib turishi, ular yaxshilanishining muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun ular doimo toza havodan bahramand boʻlib turishi foydali. Albatta, qahraton qishda va jazirama yozda bosh kiyimsiz yurib boʻlmaydi. Bosh kiyim boshni siqib turmashgi kerak, aks holda, soch ildizlariga qon maromida kelmaydi va sochning muddatidan oldin toʻkilib ketishiga olib keladi. Bosh kiyimi, albatta, toza boʻlishi kerakligi oʻz-oʻzidan maʼlum.

Teskari shishirib tarash (nachyos)ning sochga taʼsiri. Chiroyli tashqi koʻrinishni hosil qilish uchun avval uning asosini yaratish kerak. Shu maqsadda, odatda, sochning asos qismi teskari tarab shishiriladi. Agar bu usul mahorat bilan bilib amalga oshirilsa, sochga zarar yetkazilmaydi. Lekin baʼzi sartaroshlar sochni shishirish maqsadida usulni toʻgʻri bajarmasdan

sochni chigallashtirib tashlaydi (qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradi). Bilmasdan bu usuldan foydalanish, sochning tashqi ko'rinishini beso'naqay qilib qo'yishdan tashqari, ingichka va quruq sochlarni shikastlaydi.

Bu usulda tarab shishirilgan sochlar bilan uzoq muddat yurib bo'lmaydi. Ayniqsa, siyrak va ingichka sochlar bundan qiynaladi.

Sartarosh-usta soch kasalliklarining oldini olish va uni parvarish qilish uchun ular haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim. Quruq va yog'li seboreya bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. Odatda, quruq seboreya balog'atga yetgunga qadar yoshlarda bo'ladi. Vaqt o'tib ular 20-30 yoshga yetganda yog'li seboreya paydo bo'ladi. Bosh terisining juda yaltiroqligi uning salbiy alomati hisoblanadi. Bu kasallikning o'z vaqtida oldi olinmasa soch to'kilishi mumkin.

Soch to'kilishi – siyqa bosh bo'lib qolishi. Bir kunda ellikdan ortiq tolaning to'kilishi, boshning hamma yerida barobar bir tekisda yoki bir joyda kuzatilishi va bunga kasallik, nasldan naslga o'tish yoki boshqa narsalar sabab bo'lishi mumkin.

Sochning vaqtinchalik to'kilishi tif bilan og'riganda, tug'ruqdan keyin yoki teri kasalligi natijasida kuzatilishi mumkin. Ba'zan tananing biror qismida juda katta quvvat jamlanishi kerak bo'ladi va bu quvvat talab qilinmagan yoki kam quvvat bilan kifoyalanadigan joylarda ozuqa moddalar kamayadi. Kasallik o'chog'i bartaraf etilgach, muvozanat tiklanib soch yana o'sa boshlaydi. Usta bunday sochlarni yana o'sib ketishini tezlashtirishga ko'maklashishi uchun turli mustahkamlovchi malhamlar surgan holda boshni uqalasa yaxshi natija beradi.

Yuqumli kasalliklar natijasida soch to'kilishi tez uchrab turadigan hol. Bu holat kasallik boshlangandan 2-3 oy o'tgandan keyin boshlanib, 6-8 hafta davom etadi. Soch to'kilishi, asosan, boshning chekka qismlari va orqa tarafida kuzatiladi. Odamning tana a'zosi juda kuchdan qolganda, bu hol tez ko'zga tashlanadi. Ba'zan yuqumli kasallik tufayli sochning to'rtidan uch qismi qoladi. Sochning muddatidan oldin to'kilishi, ko'pincha, erkaklarda uchraydi. Bunga soch tomirlarining yemirilishi sabab

bo'ladi. Nasliy asoratlar ham bunga sabab bo'lishi mumkin. Uzoq muddat xasta bo'lish yoki asab kasallaklaridan ham soch to'kilib ketishi mumkin.

Tugunchali kasallikka chalingan sochlarda och-kul rang tugunchalar paydo bo'ladi. Soch boshdan oxirigacha bir xil qalinlikda bo'lmasdan ba'zi joylarda shishib qolgan joylar paydo bo'ladi. Bu joylarda sochlar sinishga moyil bo'lib qoladi.

Zamburug' kasalliklari bilan boshdagi sochlar va soqol zararlanadi. Bu kasallik mijoz yoki sartaroshning sartaroshlik asboblarini dezinfeksiya qilishda e'tiborsizlik natijasida paydo bo'ladi. Gigiyena qoidalariga to'liq rioya qilish orqali bu kasallikning oldini olish mumkin.

Erkaklarning bosh va soqol qismida bu kasallikning uch turi bo'lib: mumli temiratki, qirqma temiratki va mayda donli temiratki, deb ataladi.

Mumli temiratki, odatda, bosh qismida bo'lib, bo'rtib turadi. Bir necha mm dan 1 sm gacha bo'lgan kul rang-sariq bo'rtmalar unga xos bo'ladi. Ularning asosi terining ostiga chuqur kirib borib, uning teshiklaridan sochlar chiqib turadi. O'z vaqtida oldi olinmasa, bunday bo'rtmalar butun boshni egalashi mumkin. Sochlar dag'al, quruq, sinuvchan bo'lib qoladi va uchi buralib ketadi. Uiar tez sinuvchan bo'lib, tortilganda osonlikcha tomiri bilan sug'uriladi.

Qirqma temiratki uchrab turadigan kasallik hisoblanadi. U yuzaki yoki chuqur joylashgan bo'lishi mumkin.

Yuzaki joylashgan temiratki kichik-kichik quruq, dag'al aylana shaklida bo'lib, uning o'rtadagi sochlar chala qirqilganga o'xshab turganligi sababli qirqma temiratki deyiladi. Undagi mayda sochlar yaltiramaydi, rangsiz va dag'al bo'ladi.

Chuqur joylashgan qirqma temiratki, ko'pincha, soqol o'sadigan qismida bo'ladi. So'galga o'xshab ketadigan bu qabariqlarning ildizi teri ostida chuqur joylashadi. Kasallangan joylarning ustki qismi qurib qolgan teri qatlamlari bilan qoplangan bo'ladi. Uning o'rtasidagi tuklar tomiri bilan birga to'kiladi. Bu kasallik maxsus davolanishni talab qiladi. Kasallik odamga, hayvonga tegish va asboblaridan foydalanish orqali yuqishi mumkin.

Tushgan sochlar va qurigan teri qatlamlarida juda ko'p kasal tarqatuvchi mikroblar bo'ladi. Ular ko'p oylar va yillar davomida kasallikni qo'zg'atishi mumkin.

Bosh teri qatlamining sho'rlanishini davolash lozim. Aks holda, u sochning to'kilib ketishiga olib keladi.

Bosh terisining to'qimalari doimo yangilanib turadi. Nobud bo'lgan to'qimalar teridan ajraladi. Bu jarayon odamga sezilmagan holda yuz beradi. Nobud to'qimalar birlashib qolgandagina ko'zga tashlanadi. Bir dona qurib tushgan qazg'oq aslida 500-1000 ga yaqin mayda qurigan to'qima bo'laklaridan kelib chiqishi sababi hanuzgacha o'rganilmagan.

Bosh terisi o'ta qurib ketishi, sifatsiz shampun yoki sovundan foydalanilganda, noto'g'ri kimyoviy ishlov berilganda yoki havoning o'ta quruqligida ham qazg'oq paydo bo'lishi mumkin. Lekin bu holatlar to'xtaganda teri tezda o'z holiga qaytadi.

4.4. Soch yuvish va bosh massaji qoidalar

Sochni yuvish chiroyli, yaltiroq va sog'lom sochga ega bo'lish uchun birinchi qadam hisoblanadi. Buning uchun shampunni to'g'ri tanlashning ahamiyati katta.

Sochni avaylab, ehtiyot bo'lib yuvishning bir necha qoidalar mavjud:

1. Sochni yuvishdan oldin yaxshilab tarab yuborish kerak. Shunday qilinsa, sochlardagi kirlar va oldin ishlatilgan preparatlarning qoldiqlari ancha yumshaydi.

2. Boshni iliq suvda chayib yuborilsa, shampun tejaladi.

3. Shampunni oz-ozdan ishlatish kerak. Soch kaltaroq bo'lsa, bir choy qoshiq shampun kifoya qiladi.

4. Shampunni darhol sochga surish kerak emas. Avval uni kaftlarga surib olish kerak.

5. Sochni qattiq ishqalamaslik, aksincha, mayin siypalash kerak.

6. Shampunni sochda uzoq vaqt qoldirib bo'lmaydi. Yuviladigan va oziqlantiradigan moddalar bir necha soniya ta'sir qiladi, xolos.

7. Sochni yuvilgandan keyin yaxshilab chayib yuborish kerak. Chunki shampun qoldiqlari sochlarga zarar keltirishi mumkin.

8. Sochni yuvib bo'lgach, yengil siqib, sochiq bilan o'rab qo'yish kerak. Sochni artayotganda qattiq va keskin harakat qilish kerak emas.

9. Ho'l sochlarga ehtiyotkorlik bilan muomala qilish lozim. Soch quruq holatda, uning tarkibi, tirnoqdan ham qattiq bo'ladi. Lekin u ho'llanishi bilanoq, bu xususiyati yo'qoladi. Sochning ustki qatlami shishib, ko'tarilib ta'sirchan bo'lib qoladi. Ehtiyot bo'lib taralmasa, ko'tarilib qolgan soch tangachalari to'kilib ketib, sochning turg'unligi, yaltirashi va cho'ziruvchanligi yo'qoladi. Shuning uchun chalkashib qolgan ho'l sochlarni siyrak tishli, uchlari o'tkir bo'lmagan silliq taroqda tarab yuborish kerak. Ho'l sochlarni uchidan boshlab tarab, yuqoriga ko'tarila boshlansa, sochlar tortilib uzilmaydi. Agar sochning chigali tarqalmasa, bu uning shikastlanganligidan dalolat beradi.

10. Sochni har kuni yuvish zararli emas. Chunki zamonaviy shampunlar shunday yengil ta'sir qiladiki, sog'lom sochlar bunga bimalol chiday oladi. Tadqiqotlarga qaraganda, sochni tez yuvish yog' ajralib chiqishini ko'paytiradi, degan fikr noto'g'ri. Shampun tarkibidagi moddalar sochning qurib ketishiga olib kelmaydi.

11. Agar soch uzun bo'lib, uchlari yorilib ketgan bo'lsa, uni har kuni yuvish-yuvmaslikni o'ylab ko'rish kerak. Bosh terisi quruq bo'lsa, ha deb yuvaverish tavsiya etilmaydi.

12. Har qanday yengil shampun bilan ham soch, ha deb yuvilaverilsa, asoratsiz bo'lmaydi. Ho'l sochlarni tarayverish ham zarar keltirishi mumkin. Agar sochlar ta'sirchan bo'lsa, unisini ham, bunisini ham har kuni takrorlamagan ma'qul.

Massaj 2 turga bo'linadi: gigiyenik va davolash usulida.

Davolash usuli ham 2 turga bo'linadi: tinchlantiruvchi hamda qo'zg'altiruvchi. Uqalash – davolashning eng qadimiy usullaridan biri hisoblanadi.

Massaj so'zi arabcha «mass» – yengil bosish, degan so'zdan kelib chiqqan. Massajga silash, uqalash, burash, shappa-

tilash va qaltiratish kabi badanga yoki teriga mexanik ta'sir etish usullari kiradi. Sochni parvarish qilishda boshning soch o'sadigan qismini uqalashning ahamiyati katta. O'tmishdan bu usuldan nafaqat sog'lomlashtirish, balki oro berish va gigiyenik maqsadda ham foydalanilgan. Uqalab turish bosh terisida qon aylanishini va oziqlanishini yaxshilaydi hamda soch ildizini mustahkamlaydi. Undan tashqari, boshni uqalash butun badanga rohat va tetiklikni baxshida etadi, bosh og'rig'i, qon bosimi va charchoqni ketkazadi. Sochni yuvishda va tarashda ham bosh terisi uqalanadi.

Quruq uqalash orqali yog' bezlari faoliyatini yaxshilash mumkin. Soch to'kilishining oldini olishda ham uqalashning ahamiyati katta.

Bosh terisida yiring va zamburug'li kasalliklari, kuchli soch to'kilishi, ekzema bo'lsa va mijozda gipertoniyaning 1-2-darajasi yoki yurak xastaligi bo'lsa, massaj qilish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Uqalashdan oldin boshning soch o'sadigan qismida juda ko'p yog' bezlari borligini unutmaslik kerak. Bosh terisi ostida boshni himoyalab turuvchi pay qoplamlari bo'ladi.

U peshonaning qosh ustki qismidan boshlanib, bosh orqasining bo'yin qismida tugaydi. U peshona mushagiga joylashgan bo'lib, orqada bo'yin ortidagi suyakka ulangan bo'ladi. Bu bosh mushaklari yordamida bosh terisi oldinga va orqaga qimirlaydi. Uqalash davomida faqat bosh terisining ustini ishqalamasdan, uni bosh suyagiga bosgan holda, bosh suyagini his qilib, to'g'ri hamda aylanma harakatlar qilish kerak. Boshni o'tirgan holda yoki turgan holda uqalash mumkin. Bo'yinni kiyim yoqalaridan ozod qilish kerak. Uqalash amali soch o'ramidan boshlab oldinga, orqaga va quloqlar tarafiga yo'naltirib bajariladi. Agar bosh terisi quruq bo'lsa, uni yog' bilan uqalash, yog'li bo'lsa upa sepib uqalash tavsiya etiladi.

Uqalash 5-15 daqiqa davom etadi. Avval boshni yengil silab terisi qizdirib olinadi. Asta-sekin barmoqlar ta'sirini kuchaytirib, keyin yana yengil uqalanadi. Uqalashni tugatishda ohista silab yakunlanadi. Agar uqalash harakati bir maromda oshirilsa, mijoz ham shu maromga moslashadi va ancha bo'shashadi.

Uqalashni shiddat bilan boshlab, to'satdan to'xtatib qo'yish mumkin emas. Uqalashdan keyin sochni yuvish shart bo'lsa ham 10-15 daqiqa dam olgan ma'qul boshni haftada 2 marta ko'p uqalab bo'lmaydi.

Shunday qilib, massajdan oldin mijoz qulay o'tirib olishi, bo'ynini kiyimlardan xoli qilishi, kiyimini choyshab bilan yopishi lozim. Ustani qo'li toza bo'lishi kerak. Boshni uqalash kaft yoki barmoq uchlari yordamida yengil silashdan boshlanadi. Birinchi navbatda, peshona va soch o'sishi tugaydigan joylar uqalanadi.

1. Qo'llarning katta barmoqlari va ko'rsatkich barmoqlari yordamida peshona terisini yaxshilab ushlab, biroz tortilgan holda, ikki yon chekka tomonga qarab harakatlanadi. Bu harakat bir necha bor takrorlanib, terini siqish har ikki qo'lda barobar olib boriladi.

2. Chekka yonoqqa yetganda bosh, ko'rsatkich va o'rta barmoqni birlashtirgan hamda aylana harakatlarni takrorlab turib, bu harakatni quloq usti, orqasi va pastdagi bosh chanog'ining bo'rtib chiqib turgan suyaklari orqali davom ettiriladi.

3. Endi bosh barmog'ingiz, qolgan to'rtta barmoq yordamida qosh ustilaridan peshona tepasiga qaratib soch tugagan joyigacha yurgiziladi.

4. Barmoqlarning ichki tarafi bilan peshonani pastdan tepaga bosibroq uqalanadi. Shundan so'ng boshning soch o'sadigan qismiga o'tishdan oldin sochlar o'ramidan pastga qarab, har tarafga tarab olinadi.

5. Sochni o'ramidan boshlab, ikki o'ramga ayirib ochilgan farqdan aylanma harakatlar qilib uqalanadi. Barmoqlarning yumshoq uchlari bilan biroz bosgan holda, aylanma harakat ikki chekkada davom ettiriladi. Bunda soch o'ramidan o'sishi tugagan qismigacha harakat olib boriladi. Shunday qilib, oraliq masofani 2-3 sm qoldirgan holda, butun bosh terisi uqalanib chiqiladi.

6. Bosh barmoq yordamida to'rtta barmoqning yumshoq uchlari bilan bosh terisini soch bilan aralashtirib o'ramdan pastga qaratib, oldinga va orqaga barobar harakatlar qilib boriladi.

7. Chap qo‘l bilan boshning orqa qismini suyab turgan holda, o‘ng qo‘lni yoyib, bosh ustidan aylanma harakatlar qilib, butun bosh usti uqalab chiqiladi.

8. Ikki qo‘lni bosh ustiga bir-biriga qarama-qarshi holatda yaxshilab joylashtiriladi. Kaft va barmoqlarni bosh terisiga tiragan holda, bir-birlariga qarata, soch yo‘nalishiga qarshi harakatlantiradi. Bu holda usta mijozning boshi atrofida aylanib, bu amalni bajaradi.

9. O‘ng qo‘l bilan boshning old qismini, chap qo‘l bilan orqa qismini mahkam ushlab bir-biriga, goh bir-biridan uzoqlashtirgan holatda harakat qilib, bosh terisining hamma yeri qimirlatib chiqiladi. Undan keyin bosh ohista silanadi.

10. Bosh terisini yumshatib, qizdirib olgandan keyin barmoq uchlari bilan yengil urib chiqiladi.

11. Bo‘yin qismini yaxshilab uqalab yuborish uchun ikki qo‘lni bosh orqasiga shunday joylashtirish kerakki, ikki bosh barmoq orqada – soch tugagan joyda joylashadi, boshqa barmoqlar esa ulardan pastroqda bo‘ladi. Shu holatda barmoqlarni bosh terisiga ohista bosgan holda, tepadan pastga qarata harakatlar 3 marotaba qaytariladi. Bu amalni ko‘p marotaba qaytarish yoki qattiq bosish mumkin emas. Aks holda, boshdagi qon miqdori kamayishi mumkin.

12. Ikki qo‘lning bosh barmoqlarini bo‘yin pastidagi 7 umurtqa pog‘onasiga qo‘yib, umurtqa pog‘onasining o‘rta qismida 1-2 sm joy qoldirgan holda pastdan tepaga aylanma harakatlar bilan uqalab chiqiladi.

13. Uqalash amali barmoqlarning yumshoq uchlari va kaft yordamida ohista silab yuborish bilan yakunlanadi.

Soch to‘kilib ketishining oldini olishda ham uqalashning foydasi ko‘p. Ko‘pchilik mohir sartaroshlar sochni har kuni paxmoq sochiq bilan yaxshilab ishqalab turishni maslahat beradi. Shu orqali to‘qimalarda qon aylanishi yaxshilanib, sochning tabiiy o‘rishiga ko‘maklashsa bo‘ladi. Bosh terisining yumshoq taroqlar yordamida turli yo‘nalishlarga taragan holda ham massaj qilish mumkin. Lekin bu harakat massajda bajariladigan barcha amallar o‘rnini bosa olmaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Bosh yuvish qoidalari nimalardan iborat?
2. Sochni har kuni yuvish mumkinmi?
3. Qanday massaj turlari bor?
4. Bosh massaji qanday bajariladi?
5. Massajda qanday qoidalarga amal qilinadi?
6. Soch qanday tuzilishga ega?
7. Sochning kimyoviy tarkibi nimalardan iborat?
8. Sochning fizik xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Yog‘ning ajralib chiqishi deganda, nimani tushunasiz?
10. Qanday soch kasalliklarini bilasiz?

Amaliy topshiriqlar

1. Soch turiga tushadigan yuvish mahsulotlarini topish.
2. Soch yuvish.
3. Bosh massaji harakatlarini o‘rganish (sartarosh ustaxonasida o‘tkaziladi).

5-bo'lim. SOCH OLISH

5.1. Soch qirqish

Tayanch iboralar: ustara, filirovka, kutikula, keratin, soch quritgich.

Sartaroshlik ishlari sochni qirqish amalidan boshlanadi.

Sochni qirqish sartaroshlik ishining asosini tashkil etadi.

Soch qirqish guruh, tur va shakllarga bo'linadi.

1-guruh — sochni bir tekisda kaltalash.

Bunda mashinkadan, barmoq bilan qaychidan, taroq bilan qaychidan foydalanib, soch sathi yasaladi.

2-guruh — sochni turli uzunlikda qirqib shakl berish.

Bunda sochni oxirigacha qirqib tashlash, sochga noaniq shakl berish (tushevka), sochning atrofini tekislash (siluet), sochni oralab kesish (filirovka) kiradi.

Sochni qirqish usuli unga qanday shakl berish maqsad qilib olinishiga qarab qo'llaniladi.

Soch shakli uning tashqi ko'rinishidir. Bu ko'rinishni usta bajaradi. Bir necha ommabop fasonlar mavjud, ular boks, polka, kanadka, yojik, kare va hokazolar. Ular ba'zi umumiy qabul qilingan ko'rinishga ega bo'lishi yoki g'ayrioddiy va g'ayritabiyy ko'rinishga ham ega bo'lishi mumkin.

O'ziga xoslik — zamonaviy shakl va zamonaviy soch olish usullarining zamonaviy ko'rinishi hisoblanadi. Zamonaviy talablar tez-tez o'zgarib turishini hisobga olgan holda, sartaroshlar soch olish usullarini yaxshi bilishlari lozim.

Bu amalni mashinkada yoki oddiy qaychi yordamida amalga oshirish mumkin. Sochni butunlay olib tashlash yoki unga «poluboks», «polka» va boshqa shakllar berishda mashinkadan foydalaniladi. Mashinkaning uchiga qistirilgan qirquvchi mexanizmning raqamiga qarab sochni 0, 2, 3 mm uzunlikda qoldirib olish mumkin. Sochni 3 mm dan uzunroq qoldirish uchun taroqdan yoki taroq va qaychidan, barmoqlardan va tirkagichlardan (nasadka) foydalanish mumkin. Taroq yorda-

mida soch tepaga ma'lum burchak ostida ko'tariladi, qaychi bilan kesish yordamida kalta kesilgan sochlardan asta-sekin uzun sochlarga o'tish mumkin. Taroq bilan ko'tarilganda, uning tepasidan chiqib qolgan sochlarni taroq yoki mashinka yordamida kesiladi.

Mashinka bilan ishlaganda harakatning ohistaligi va tezligiga e'tibor berish, agar qo'l mashinkasi ishlatilsa, kesuvchi tishlarni harakatga keltiruvchi barmoqlar harakatiga e'tibor qaratish lozim. Mashinka tishlarining harakati sochning o'sish yo'nalishiga qayshi qatatilgan bo'lishi kerak. Faqat quruq va toza sochlar yaxshi qirqiladi. Sochni butunlay olib tashlashda, boshning xohlagan joyidan boshlab o'rama tarafga qarata olinadi. Qirqish mexanizmining kengligi, uning kesa olish kengligidan kattaroq. Mashinkani ikkinchi bor kesishga shaylaganda, oldingi kesilgan joyning kengligidan kamroq joy olinsa, ular orasida kesilmagan soch yo'laklari qolib ketmaydi.

Sochni qaychida olishning bir necha usullari bor: barmoqlar yordamida, qaychi yordamida va sath tayyorlash (11-rasm).



11-rasm. Sochni qaychida olish usullari


Bu usullar bir-biriga xalaqit bermaydi, aksincha, bir-birini to'ldirib turadi. Chunki erkaklar va ayollar sochiga shakl berishda har uchala usuldan ham foydalaniladi. Barmoqlar yordamida sochni qisqartirish, keyinchalik yakuniy shakl yasash uchun yordamchi amal hisoblanadi. Buning uchun soch tutami barmoq yordamida ko'tarilib ko'rsatkich hamda o'rta barmoqlar

yordamida qisiladi va boshning o'sha qismiga nisbatan to'g'ri ko'tariladi, keyin taroq chap qo'lning ko'rsatkich va bosh barmoqlari bilan qaychda kesishga xalaqit bermaydigan holatda ushlanadi (12-rasm).



12-rasm. Sochni barmoqlar bilan qisish usullari

Taroqdan chiqib turgan sochlar, 1-2 sm qoldirilib, bir tekisda kesiladi. Agarda soch tutami barmoq bilan ajratib olib kesilsa, soch ham tekis, ham chiroyli shaklga kiradi, kesish ham oson bo'ladi (13-rasm). Mabodo soch qo'lga ilinmasa, unda bu amalni bajarish uchun taroq ishlatiladi.



13-rasm. Taroq ushlash usullari

Odatda, taroq shaklni yakunlash paytida boshning orqa va ikki chekka taraflarida sath tayyorlash jarayonida ishlatiladi. Bunda taroq bilan soch biroz ko'tarilib, uning ustidan chiqib

turgan qismlari tekislab kesiladi. Tarash va kesish harakati bir-biriga mos tushsa, sochlar tekis kesilib, «zinapoyalar» va «chiziqlar» paydo bo‘lib qolmaydi.


Boshning tepa qismidagi sochni tekislash amali – sath tayyorlash deyiladi. Agar tepadagi soch uzun bo‘lsa, oldin bar-moqlar yordamida kesiladi. Soch qancha mayin bo‘lsa, uni shuncha kaltaroq uzunlikda qoldirgan yaxshi.

Sochni kaltalashtirib olgandan keyin unga mustahkamlik bag‘ishlovchi aralashma suriladi va taroq bilan fen yordamida soch tik holatga keltiriladi. Shu holatda qirqilib tekislangan soch shakli chiroyliroq chiqadi. Bu usul bilan boshning chekka qismlari ham tekislanga, yaxshi bo‘ladi.


Siluet usuli – sochni tepasidan boshlab pastga qarata kaltar-tirib, bir maromda kesish amali shunday ataladi. Bunday amalni to‘la bajarish uchun oralab kesish (filirovka)dan foydalaniladi.

Atroflarni tekislab shakl berish (okantovka), uzun sochdan qisqaroq sochga ohista tish (tushevka) ishlari bajariladi. (14-rasm).

Sochning hammasini olib tashlash siluet usulining asosiy amallaridan biri hisoblanib, alohida diqqat talab qiladi. Bu usul, odatda, taroq va mashinka yordamida amalga oshiriladi. Uzun sochdan qisqa sochga o‘tish amalini bajarish uchun maxsus ustaradan ham foydalaniladi.



O‘ralgan sochni filirovka qilish



Pointing usuli



Qaychini uchi bilan filirovka qilish

14-rasm. Filirovka usullari

Sochni olish amali kesish mexanizmi 3 mm bo'lgan tirka-gich moslamani ishlatishdan boshlanadi. Yasaladigan soch shakliga qarab mashinka tishlari ostiga taroq qo'yib ham ishlatish mumkin. Taroqning ushlash burchagini o'zgartirish va mashinka tishlarini ko'tarib yoki tushirib yurgizish orqali sochni kaltaroq kesa boshlash, keyin uzunroq qilib qoldirish mumkin. Taroq va mashinka harakati bir-biriga mos kelishini ta'minlash lozim. Soch olishni boshning chekka — yanoq qismidan boshlagan ma'qul. Boshning orqa qismini olishda kalta sochdan uzunroq sochga o'tish joyi juda baland bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Mashinkada olib bo'lingach, qaychilar ishga tushadi. Bu anchagina mahoratni talab qiluvchi murakkab vazifa hisoblanadi. Taroqning tishlari yuqoriga qaratib ushlanadi. Ish boshning taroqqa ilinadigan sochi bor joyidan boshlanadi. Taroq va qaychi bir-biriga moslab to'g'ri ushlanadi va tepaga qarab bir tekisda harakatga keltiriladi. Quloq atrofidagi sochlarni kesishda qaychining uchi ishga solinadi.

Soch uchi boshlangan joylarni juda kalta sochlardan uzunroq sochlarga o'tkazib atroflarini tekislash amali yakuniy usulga kiradi. Bu amal oralab kesadigan qaychi yoki maxsus ustara ham amalga oshiriladi. Sochni oralab kesish amali uzun va qisqa sochlarni bilinmaydigan qilib, tekislab yuborishda ishlatilib, u amalni bajarish soch shakliga yaxshi tashqi ko'rinish beradi.

Bunda maxsus qaychi va ustaralardan foydalaniladi. Ustara ustiga maxsus tirkama o'rnatib foydalanilganda yana ham yaxshiroq chiqadi.

Uzun sochlar o'rimlar oralab kesilsa, kalta sochlar soch ustidan yoki taroq ustidan kesiladi. Ustaradan foydalanilganda, uni sekinroq bosish va qo'lni ohista harakat qildirish kerak.

Uzun soch o'rimlarini ham ustidan, ham orasidan oralab kesgan yaxshi. Soch qancha bo'liq bo'lsa, shuncha ingichkaroq oralab kessa bo'ladi. Oralab kesishni oshirib yuborish ham yaxshi emas. Aks holda, sochlarni bir-biriga aralashtirib

shakl yasash uchun asos qolmaydi. Sochni oralab kesishni avval orqadan boshlab, keyin chekka va yanoq qismlari, undan keyin oldi qismining uchlaridan bajariladi. Sochni oralab kesish amali to'g'ri qaychilar va maxsus ustalarada bajariladi. O'rtacha uzunlikdagi sochlarda oralab kesish sochning uchlarida bajariladi. Kalta sochlarni oralab qisqartirish qaychi yoki maxsus ustarada bajariladi.

Uzun sochlarning o'rimi chap qo'lining ko'rsatkich va o'rta barmoqlari bilan qisib ushlanadi. Maxsus qaychi yordamida soch uchining belgilangan joyidan boshlab, ildizi tomonga qarab qirqa boshlanadi. Qaychini oxirigacha yopib yuborilmaydi. Aks holda, sochlar butunlay kesilib ketadi.

Ish qaychining yarim ochiq holatida barmoqni mokidek harakatlantirib bajariladi va bir necha harakatda soch tutami qirqiladi. Bu usul bilan sochning uchlari turli uzunlikda oralab kesiladi. Kalta sochlarni oralab kesishda, maxsus to'qmoq qaychi ishlatiladi. Ular soch oralarini to'qmoqroq qilib qirqish xususiyatiga ega bo'ladi. Sochni oralab kesish ustara yordamida amalga oshiriladi. Avval sochni yuvib yoki ho'llab olish kerak bo'ladi. Shunday qilinganda, soch uchlari ayrilib ketmaydi va mijozga ham yoqadi. Agar soch uzunligi 10 sm dan ortiq bo'lsa, o'rimlarga ajratilib, sochning o'sish yo'nalishiga qarab yurgizib kesiladi. Oralab qirqish o'rimlarning ustidan ham, ostidan ham bajarilishi mumkin. Agar ustara o'tkir bo'lmasa, soch yaxshi kesilmaydi va soch uchlari ayrilib ketadi.

Agar soch juda bo'liq bo'lsa, ular maxsus qaychilarda yoki ustarada oralab kesiladi. Oralab kesib chiqish oralab qirqishdan ko'ra ichkariroqda bajariladi. Oralab qirqish soch uchidan boshlab, 1-5 sm masofagacha qirqilsa, sochni oralab kesib chiqish ildizdan 1-2 sm qoldirib bajariladi.

Sochning chetlarini tekislab kesish qaychida, mashinkada va ustarada amalga oshirilib, sochga shakl berish tugallanadi hamda bu ishni 0,2 mm li kesish mexanizmida bajariladi, buni bajarishda mijozning yuz tuzilishi va soch chetlarining o'sish yo'nalishi hisobga olinishi kerak.

5.2. Sessun usuli

Sessun ismli ingliz sartaroshi o'ylab topgan «sessun» fasoni ko'p ayollar orasida uzoq vaqt ommalashgan.

Bu usulni bajarishda toza yuvilgan soch 1 mm gacha aniqlik bilan zinama-zina qirqilib, tekis shakl yaratiladi.

Bu shaklni yaratish uchun sochning tepasidan gorizontalarq ochib, peshonadan o'ramagacha sochlarni oldinga yaxshilab tarab ajratib olinadi va orqa qismi ham tekis taralib, bittavertikal farq bilan ikkiga bo'linadi. Shu tariqa boshdagi soch uch qismga bo'linib, orqadagi farq orqa sochlarni aylana holda kesib tekislash uchun nishon bo'lib xizmat qiladi. Soch shaklining ko'rinishiga qarab tekislab kesiladi.

Orqa soch 1-o'rimining qirqilgan holati sochga buriladigan yakuniy shakl ko'rinishini belgilab beradi. 1-o'rimga moslashtirib, 0,2-0,4 sm qalinlikda 2-o'rim ajratib olinib qirqiladi va uning ustiga yotqiziladi. O'rimlarni qirqish uchun ko'rsatkich va o'rta barmoqlar o'rtasiga siqilib o'zidan tortish kerak bo'ladi. O'rimning tepa qismi pastki qismidan uzunroq bo'lishi kerak. Tepadagi qismi pastki qismiga nisbatan burchak hosil qilishi lozim. Tepa va pastki qismi uzunligidagi farq burchakning keskinligiga bog'liq bo'ladi.

Sochni shu tariqa kesish kerakki, ularni qirqib chiqqandan keyin pastga taralsa, pastdagi soch tepasidagidan 1 mm kaltaroq bo'lishi lozim. Kesiladigan o'rim qanchalik yupqa bo'ladigan bo'lsa, shakl shunchalik chiroyli va sifatli chiqadi. Yonoq qismlari ham shu usulda olinadi, lekin burchakni tanlash mijozning yuziga nisbatan olinadi. Yonoqdagi sochlarni kesishda uning pastki va ustki qismi orqa tarafdagi 1-o'rimning o'lchamiga mos kelishiga e'tibor berish lozim.

Sochning oldi va oldi tepa qismi oxirida qirqiladi. Bunda sochni oldinga tushib turadigan qismining tugaydigan joylari yonoqnika mos kelishi kerak. Oldinga tushib turadigan sochning uchini kesish uchun uni ko'rsatkich va o'rta barmoq bilan yuzdan tepaga ko'tarib qirqiladi. Yakunlangan «sessun» fasoni orqadan qaraganda uchi bilan pastga qaragan uchburchak shak-

lida bo‘ladi. Soch olish tugagach, unga fen yoki bigudi yordamida ozroq ichkariga qaytarilgan shakl beriladi. «Sessun» ommabop shakl hisoblanib, uni yaratishda ishlatilgan uslublardan foydalangan holda, har kungi va tantanali shakllar yaratish mumkin.

5.3. Yojik usuli

Bu shakl kimga yarashadi? Bunday shakl yosh, cho‘ziq yuzli, terisi tekis, bo‘yni chiroyli qizlarga yarashadi.

Shakl uchun somondek to‘g‘ri sochlar mos keladi, shundagina «tikanlari» yaxshi ko‘rinib turadi. Hozirgi preparatlar ingichka sochlarning ham mustahkam turishini ta‘minlaydi.

Soch olishda boshning cheka qismlarida juda kalta qilib, orqa tarafni iyakning ostigacha o‘lchamda, bosh atrofini bir xil qilib, 1 sm bosh tepasi va 2 sm qilib oldi qismini olish kerak.

Sochlarga shakl berish uchun uni soch qotiradigan ko‘pik aralashmasi (fiksator) bilan namlab, sog‘lom va qattiq sochlarni havo bilan, ingichka siyrak sochlarni fen bilan, sochning oldi tarafini orqaga tarang holda quritish kerak. Agar biroz gel surib yuborilsa, soch yaxshiroq turadi.

5.4. Garson usuli

Bu shakl tabiatan bosiq, xotirjam ayollarga mos keladi. Sochning ko‘rinishini ular xohishiga ko‘ra o‘zgartirish mumkin. Bu shakl, ayniqsa, sochi tufayli ko‘p ovoragarchilikni yoqtirmaydiganlarga xush keladi. Bu shakl uchun bo‘liq, qattiq, to‘g‘ri va biroz to‘lqinli sochlar mos keladi. Soch ranggi och jigar rang yoki kul rang bo‘lsa, shakl yana ham chiroyliroq ko‘rinadi. Sochni bunday shaklda olishda nimalar muhim sanaladi?

Yo‘nalishiga qarab, sochni yaxshilab tarab olgandan keyin, bosh atrofidagi soch aylantirib quloqlarning tepasi orqali qir-qiladi. Orqadagi soch zinama-zina usulda qirqilib, past biroz kaltalashtirilib, aylanasiimon shakl beradi. Yon cbekka va old sochlar ham zinama-zina usulda kesilib, bir-biriga bog‘lanib ketadi. Bu sochga shakl berish uchun ko‘pikli aralashma

(fiksator) surtilib fen va barmoqlar yordamida har tarafga yoyib quritiladi. Shaklni yakunlashda, gel yordamida yonoq tomondagi sochlar shishirilib oldinga taraladi. Hali nami ketmagan sochlarni, fen yordamida pastdan tepaga havo yuborib quritiladi.

5.5. Gribok shakli

Bunday shakl har qanday yoshdagi, sportchilardek yuradigan ayollarga mos keladi. Kalta soch ularni yosh qilib ko'rsatadi. Bu shaklga ingichka sochlar ham, siyrak sochlar ham to'g'ri keladi. Bu shakl, siyrak sochlarni ham hajmdor qilib ko'rsatadi. Sochning ba'zi o'rimlariga rang berish ham mumkin. Bu shaklda sochni shunday kesish kerakki, o'ramdan o'sib chiqqan uzun sochlar kelib peshonaga tushib tursin. Bu usul sochni juda bo'liq qilib ko'rsatadi. Sochning yon tomonlari quloqning usti uzra kesiladi. Quloq oldidagi sochlar (baki) oralab kesilsa, soch ko'proq bo'lib ko'rinadi. Tepadagi sochlar 7 sm uzunlikda, orqadagilari esa kalta qilib, zinama-zina usulida kesiladi. Shaklga keltirishda tepadagi sochlarni fenning tarog'iga o'rab, shishirib oldinga, orqaga va yon tomonlarga yotqiziladi. Sochning uchiga gel surtib, yoyib qo'yiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qanday soch olish qoidalari bor?
2. Soch qisqartirish metodlari nimalardan iborat?
3. «Sessun» soch turmagi qayerdan kelib chiqqan?
4. Okantovka va filirovkaning qanday turlari mavjud?
5. Qanday qaychi turlarini bilasiz?
6. «Yojik» soch turmagi qanday kesiladi?
7. «Garson» soch kesish usulining qulay tomonlari nimalardan iborat?
8. «Gribok» shakli qayerdan kelib chiqqan?
9. Qanday soch kesish usullari (strijkalar)ni bilasiz?

Amaliy topshiriqlar

1. Taroq va qaychi bilan mashq qilish.
2. Mashinkadan foydalanish mashqi.
3. Tushevka operatsiyasini o'rganish.
4. Okantovka operatsiyasini o'rganish.
5. «Kanadka», «Polka», «Poluboks» kabi soch kesishlarda bar-moqlar harakati.
6. «Yojik» shaklida soch kesish.
7. «Garson» shaklida soch kesish.
8. «Gradiurovka», «Baxroma», «Toyuvchan filirovka» kabi-soch kesishlarni mashq qilish.
9. Bajarilgan soch kesishlarning rasm orqali albomini yaratish va ularning texnologik xaritalarini tayyorlash.
10. Sportga oid, klassik va bolalar soch kesishlarini bajarish.

6-bo'lim. SOCH TURMAKLASH

6.1. Sochlarga sovuq vositalar bilan shakl berish

Tayanch iboralar: bombaj, brashing, ployka, bigudi, losyon, aralashma, qaynatma, fen.

Bu usulda to'g'ri shakl berish uchun mijozning yuz tuzilishiga yaxshilab qarab olish va qilinadigan soch to'liqlarining joylashadigan soch qismlarini belgilab olish kerak. Shundan keyin toza sochni iliq suv bilan ho'llab, siqib sochiq bilan artiladi. Keyin sochga ishlov berish uchun tayyorlangan aralashma bilan soch namlanib, yaxshilab chuqurroq tarab yuboriladi, ishlov berish joyi hamda dastlabki to'liq uchun ajratiladigan o'ram belgilab olinadi. Sochga shakl berishda uning tabiiy buralgan joylari va to'liqlari ham hisobga olinishi kerak. Shunda shakl mustahkam chiqadi. Aksincha, sochning tabiiy to'liqlarini teskari burab yasalgan shakl xunuk ko'rinib qolishi mumkin.

Soch to'liqlarining tabiiy yo'nalishini aniqlash uchun soch ikki qarama-qarshi tomonlariga tarab ko'riladi, soch o'rimini barmoqqa o'rab ko'rish orqali qanday to'liqlar hosil qilish mumkinligini mashq qilib ko'rsa bo'ladi.

Buning uchun yaxshilab taralgan sochdan bir tutamini ajratib olib, barmoqqa yaxshilab o'rab olinadi va uning uchi oxirgi o'ramni hosil qilib bo'lgach, barmoq asta sug'urib olinib, qisqich bilan qistirilib boshiga tirkab qo'yiladi. Shu tariqa soch tutamlarining barchasi burab chiqiladi. Qo'lga soch tutamini o'raganda, chuvalashib ketishi yoki qayrilib ketishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

Hozirgi paytda sochni barmoqqa o'rash usuli kam qo'llaniladi. Shveysariyalik sartarosh Kramir o'ylab topgan bigudilar hozirgi kunda keng tarqalgan bo'lib, uning yordamida tabiiy to'liqlardan qolishmaydigan shakllar yasash mumkin.

Kramir usulining ahamiyati shundaki, buralgan soch bir tekisda hamda tarang tortilib turishi kerak. Bigudining aylanma

shakli sochni bir tekisda baravar o'ralib turishini ta'minlasa, uning uchidagi tishchalari sochning mahkam tortilib turishni ta'minlaydi. Sochni bigudiga o'raganda, o'ramning yo'nalishi, uning tishini yo'nalishiga qarshi bo'lishi kerak. Ajratib olingan soch tutami o'ralib bo'lgandan keyin, bigudini teskari burab, boshiga tirkab qo'yiladi. Chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i sochning bigudiga bejirim o'ralishini, chetdagi tishlarining ustiga chiqib ketmasligini hamda chalkashmasligini ta'minlab turadi. Aks holda, bigudi sochdan ajratib olinib, qayta o'raladi va boshga yaxshilab qotiriladi.

Soch bigudiga to'g'ri o'ralsa, shakl juda chiroyli chiqadi. O'ramni mijozning chap tarafidan o'rish ma'qul, shunda o'rab qo'yilgan sochlar ishni davom ettirishga xalaqit bermaydi.

Bigudi mijoz sochining ahvoli va xususiyatiga qarab tanlanadi. Qattiq sochlarga yirikroq, ingichka va mayin sochlarga ingichkaroq bigudi ishlatiladi. Ishlatishga qulay bo'lganligi uchun, asosan, plastmassa bigudilardan foydalaniladi. Sochlarining hammasi o'rab bo'lingach, boshga mayda turli qalpoqcha kiygizib qo'yiladi.

6.2. Bigudi va qisqichlar yordamisiz, sochga sovuq usulda shakl berish

«Ondulyatsiya» usulidan sartaroshlar tez-tez foydalanishadi.

Sovuq usulda yasalgan soch shakli ko'pga bormaydi, lekin maxsus aralashma bilan ishlov berilgan soch tutamlarida, barmoqlar va taroq yordamida turli xil ko'rinishlarga ega bo'lgan ajoyib to'liqlar shaklini berish mumkin. Sochga ishlov beriladigan aralashma, asosan, sochga sepiladigan lak va soch uchun ishlatiladigan ko'piklardan tarkib topadi.


Sartoroshlar, ko'pincha, quyidagi yaxshi sinalgan usulga aralashma tayyorlaydilar. Bir litr suvga 5-6 choy qoshiqda kanop urug'idan solib, 20 daqiqa davomida qaynatiladi va uni sovitib yaxshilab aralashtirib, dokadan o'tkaziladi. Keyin soch o'rimlariga u bilan ishlov berilib, oldindan o'ylab qo'yilgan turli shakllarni bersa bo'ladi (15-rasm). Bunda chap qo'lning

ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bilan soch tutami qisib olinib, taroq yordamida sochga shakl beriladi.



15-rasm. Ondulyatsiya bilan beriladigan to'liqin shakllari

Shu yo'l bilan soch tutamlari barmoqqa buralib, kronlar yasaladi. Har bir kron sochning umumiy shaklini bir bo'lagi hisoblanib, uning ko'rinishi, balandligi, kattaligi, ingichkaligi bog'liq yoki buralgan shakllari mijozning yuz tuzilishiga qarab yasaladi. Soch tolalaridan yasalgan to'liqinlar ham turli xil nomlanadi. Misol uchun, to'g'ri to'liqinlar, qayrilgan to'liqinlar, ko'ndalang to'liqinlar, katta-kichik, baland-past to'liqinlar va hokazo. To'liqinning to'g'ri qayrilgan yoki ko'ndalang deb nomlanishi, uning sochga ochilgan farqiga nisbatan joylashib turishiga qarab belgilanishida. Ensiz to'liqinlarning hajmi 2-3 sm bo'lsa, enli to'liqinlar uchun 5-6 sm soch o'rami ajratib olinadi. To'liqin yasash uchun ajratib olingan soch tutami qanchalik ensiz bo'lsa, soch shakli shunchalik uzoq muddat saqlanib qolishini yoddan chiqarmaslik kerak. Yuzning oldi tarafidagi to'liqinlar, peshonada yoki ikki yon chekkada bo'lishi mumkin va u to'liqinlar mijozning o'zini o'rab turgan bo'ladi.



16-rasm. Sovuq usulda (ondulyatsiya) shakl berish

Sochga to'liqin yasash jarayoni, odatda, boshning oldi tarafidan boshlanib, orqa tarafiga qarab davom ettiriladi (16-rasm).

Dastlabki yasalgan to'liqlar tarqalib ketmasligi uchun ba'zan qisqichlar yordamida qistirib qo'yish, fen bilan quritib olish yoki lak bilan qotirib qo'yish ham mumkin.

O'simliklardan olingan ashyolar (kanop urug'i) yordamida tayyorlangan aralashmalar soch qotirish uchun ishlatilgan bo'lsa, sochga berilgan shaklni yaxshi saqlab qolishdan va quritishdan oldin boshga to'rdan yasalgan qopcha kiydirib qo'yiladi. Soch yaxshilab quritib olingach, to'r qalpoqcha yechib olinib, lak sepiladi va shakl berish yakunlanadi.

6.3. Sochga bigudi va qisqichlar yordamida shakl berish

Bu usulda sochga berilgan shakl uzoq muddat saqlanib qolmasa-da, ba'zi turdagi sochlarda yaxshi natija bera oladi. Buning uchun soch namlikni o'ziga tez singdirib oladigan va tezda quriyidigan, cho'ziluvchan va bo'ysunuvchi bo'lishi kerak. Juda dag'al sochlarni to'g'ridan to'g'ri bigudiga o'rab shakl berib bo'lmaydi. Bunday sochlarga kimyoviy usulda yoki issiqlik bilan shakl berishdan oldin, albatta, kimyoviy aralashmalar bilan ishlov berish kerak.

Sochga ishlatiladigan aralashmalar tarkibi kimyoviy ashyolardan yoki o'simliklardan olingan narsalardan tayyorlangan bo'lishi mumkin, sog'lom va kuchli sochlarga kimyoviy aralashmalar ishlatilsa, nimjon va kuchsiz sochlarga o'simliklardan tayyorlangan aralashmalar ishlatiladi. Kimyoviy aralashmalarining xususiyatlari ularning idishida yoki yorlig'ida yozilgan bo'ladi va mijozning sochiga moslab ishlatiladi. O'simliklardan tayyorlangan aralashmalarni ishlatishda ham sochning xususiyati ham hisobga olinadi.

Soch shaklining hajmi shishirilgan holda chiqishi uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- soch tutamini bir gal katta, bir gal kichik diametrli bigudida o'rash;
- soch tutamini bigudiga o'raganda bir gal o'ziga qaratib, bir gal teskari qilib o'rash;
- soch tutamini shaxmat usulida o'rab chiqish;
- soch tutamini gorizonttal usulida o'rash (17-rasm).

Sochni bigudiga o'rashning ham o'ziga xos uslublari bor:

- soch tutami bigudining enidan oshmasligi kerak;
- soch tutamining qalinligi esa 1 smdan oshmasligi shart;
- soch tutamini ajratib olib bigudiga o'rayotganda, u boshga nisbatan perpendikulyar holatda bo'lishi lozim;

- soch tutamini bigudiga o'rayotganda, bigudini chapga va o'ngga siljitish orqali sochlarning bir tekisda taralishini ta'minlash lozim;

- bigudiga o'ralgan soch tutamini shpilka yoki maxsus qistirgichlar yordamida tirkab qo'ygan ma'qul.

Soch quritilgandan keyin bigudilar yechib olinib, massaj tarog'i bilan sochni oldindan orqa tarafga qarata yaxshilab tarab yuborilib, bitta yoki ikkita tutqichli taroq bilan soch tutamlari yana bir bor tartibga keltirib olinadi va to'lqin shaklli soch o'ramalari hosil bo'ladi (18-rasm).



*17-rasm. Gorizontal o'rash
turining usulidan biri*



*18-rasm. To'lqin
shakllari*

Sochga shakl berishda nachyos usuli yoki teskari tarashdan ham foydalansa bo'ladi. Buning uchun 1 sm qalinlikdan oshmagan soch o'rimi ajratib olinib, ildizga yaqin bo'lgan joydan boshlab nachyos qilish boshlanadi. Bunda taroqning tishlari ustadan mijoz tarafga qaragan bo'lishi lozim. Keyin taroqning orqasidagi tutqichi yordamida sochlar ko'tarilib shaklga keltiriladi. Keyingi tutam ajratib olinganda, oldingisidan ham biroz qo'shib olinadi va teskari taraladi. Barcha sochlar nachyos qilib chiqilgandan so'ng, soch shaklining ustki qismi massaj tarog'i

bilan tarab chiqiladi va taroq orqasi bilan sochning umumiy shakli yana bir marta tartibga keltiriladi.

6.4. Sochni qisqa muddatga jingalak qilish

Issiqlik yordamida sochga shakl berish yuqori texnikani talab etadi. Eng murakkab jarayon — bu qisqichlar bilan ishlashdir. Sartaroshlik qisqichlari va issiqlik yordamida sochga shakl berish ixtirochisi fransuz sartaroshi Masel edi. Ayrimlar hozirgi paytda issiqlik yordamida shakl berish eskirdi va bunga zarurat yo‘q, deb hisoblaydilar. Biroq, ko‘pincha, qisqa muddatga jingalak qilish mumkin emas, bundan tashqari, sochni fen ostida quritish ham yaxshi emas. Bu yerda shakl berishning issiq usulini qo‘llash mumkin, uni har bir usta bilishi shart. Qisqichlar bilan ishlashni yaxshilab o‘rganib olish uchun sovuq qisqichlarni barmoqlar bilan ochib-yopib, chapga va o‘ngga burashni mashq qilish kerak. Bunday mashqlar har kuni 20-30 daqqa takrorlanadi. Qisqichni o‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan ushlagan holda, jimjiloq bilan ochib, yordamchi barmoq bilan yopiladi. Qo‘l biroz oldinga uzatilgan va bilak ozroq bukilgan holatda ushlanadi. Qo‘lning shu holatini nihoyatda mukammal egallash kerak. Shundan keyin taroqdan foydalanish mashq qilinadi. Issiq qisqich bilan ishlayotganda, ishdan chiqmaydigan taroq tanlanib, chap qo‘l bilan ishlanadi. Taroq bilan ishlaganda, chap qo‘lning bosh va jimjilog‘i pastda, ko‘rsatkich, o‘rta va yordamchi barmoqlar esa taroq ustida bo‘ladi.

Soch taroq bilan pastga taralib, keyin uni biroz tepaga ko‘targan holda qisqich bilan qisib olib, burala boshlanadi. Mashq qilayotgan paytda, qisqich manikenni soch tirkalgan yostiqchasiga tegib ketmasligi kerak.

Issiq qisqich bilan ishlashni o‘rgana boshlaganda, uzunligi taxminan 30 sm, eni 2-3 sm bo‘lgan yasama soch tutami manikennning boshiga tirkagan holda, burab mashq qilinadi.

Qisqichning haroratini to‘g‘ri aniqlashni ham bilish kerak. Mohir sartaroshlar uning haroratini kafti, burni yoki qulog‘i kabi sezgir joylarga yaqinlashtirib aniqlasa, yoshlar uni bir

bo‘lak oq qog‘ozga tekkizib ko‘radi va sariq iz qolgan-qolmaganini aniqlaydi. Qisqichning harorati 70-80 °C bo‘lishi kerak.

1. Qisqich bilan ishlashni boshlashda, oldin farq ochilgan bo‘lsa — farqning oldidan, bo‘lmasa — peshonaning ustidan buriladigan soch tutamlarini belgilab olish kerak. Undan keyin burash uchun taroq yordamida tutam ajratib olinib, biroz tepaga ko‘tariladi va oldinga ozroq tortilib, qisqich soch orasiga kiritiladi.

Bunda qisqichning chap qismi o‘ng qismiga qaraganda ozroq baland bo‘lsa, uning dastlabki holatini aniqlash osonlashadi. Qisqichni chiqarmasdan turib, uni 180° ga burgan holda, birinchi to‘lqinning tugash qismi mustahkamlab olinadi. Qisqichni ohista yarim burab, ozroq tortish bilan tutam oxiri qizdiriladi. Qisqichni yopib olib, uni chap tarafga ozroq tortib, pastdagi sochlarni o‘ng tarafga taraladi. Undan keyin buralgan soch ostidan yana tutam ajratib olib, ish davom ettiriladi.

2. Undan keyingi harakat qisqich dastasini kaftda gorizontol holatda ushlab, yarim aylantirib bajariladi. Ikkinchi bor yarim aylantirib olingach, sochga to‘lqinsimon shaklni berish boshlanadi. Buning uchun qisqichni qattiq harakat bilan ochib-yopib soch o‘ramini tortibroq ushlagan holda, unga ko‘zlangan to‘lqinli shakl berish kerak. So‘ngra qisqichni yopib, taroq bilan yangi yo‘nalishdagi soch o‘ramini ajratib olib, qisqichni tepaga qarata to‘la aylantirib o‘rab olinadi. Keyin qisqichni ozroq ochib-yopib turib, soch tutami chuqurlashtiriladi. Sochni to‘la o‘rab olganda, taroq sochda qolsa, keyingi soch tutamlarini ajratib olish osonlashadi. 5 soniya ichida qisqichning harorati sochlarga o‘tadi. Shundan so‘ng qisqich orqaga buraladi. Shu yo‘sinda har bir ajratilgan soch tutami birin-ketin buraladi va sochlarning hammasiga to‘lqinsimon shakl beriladi.

3. Sochning orasiga qisqich kiritilganda yoki o‘ralganda, qisqich dastasini bosh terisiga nisbatan vertikal holatda ushlamaslik kerak. Yuqoridagi dastlabki o‘ralgan shaklni ikkinchi bor o‘rab yubormaslik uchun qo‘lni ohista harakatga keltirib, yaxshilab burash kerak. Pastdagi sochlarni ham taroq bilan yaxshilab ajratib, o‘rala boshlanganda, tepadagi, undan oldingi

o'ralgan soch, keyingi o'ralgan soch o'ramlari ustiga, bir-biriga mos, o'xshash va mutanosib ravishda tushib turishini ta'minlash kerak. Agar soch quyuq, qattiq va mustahkam bo'lsa, tepadagi dastlabki o'ralgan soch yaxshi va chiroyli chiqadi. Pastdagi sochlarni ham shunga o'xshatish uchun keyingi tutamni ko'proq ajratib olib, birinchisiga o'xshatish uchun, lozim bo'lsa, bir necha bor o'rab, qizdirib olish kerak. Qisqich bilan burab yasalgan soch to'lqinlari chiroyli va tabiiy ko'rinishga ega bo'lishini ta'minlashga harakat qilish lozim. Bunday ko'rinishni ta'minlash uchun soch tutamlarini qisqichning yarim ochiq holatida tarab yuborilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda, taroq bilan qisqich harakatining yo'nalishi bir-biriga teskari bo'lishini ta'minlash lozim.

Shaklni bezash usuli. Shunday qilib, asosiy e'tibor birinchi o'ralgan tutam shakliga qaratiladi. Ustaning mahorati ham shunga qarab belgilanadi. Birinchi shakl unchalik issiq bo'lmagan qisqichda bajariladi. Undan keyingi asosiy to'lqin ham chiroyli bajarilishi kerak. Qolgan to'lqinlar ham bir-biriga o'xshagan holda, to'g'ri bajarilishiga harakat qilishi kerak.

Sochga yaxshi shakl berish uchun usta yana bir usulni mukammal egallab olishi zarur. Bu usul qo'shib burash yoki qo'shib, silab yuborish usuli deyiladi. Masalan, ba'zida mijozning sochi 15-20 sm uzunlikda bo'lib, unga 2-3 ta to'lqin qilish bilan ish tugaydi. Ayniqsa, sochning orqa bo'yin ustidagi sochlarni alohida burashning iloji qolmaydi. Shunday hollarda, oxirida burashning iloji bo'lmagan sochlarni, oldingi buralgan to'lqinga ohista qo'shib yuborishning quyidagi ikki usuli mavjud:

1. Qo'shib-burab yuborish usuli sochlarning hamma joyiga, hatto orqa bo'yin tarafiga ham bir tekisda shakl berishga yordam beradi. Buning uchun tepadagi dastlabki o'ralgan to'lqindan ozrog'ini, qisqichning uchini sal ko'targan holda, pastdagi o'ralmagan sochlarni taroq bilan ajratib olib, qo'shib o'ralib yuboriladi. Keyin har ikkisini qo'shgan holatda, qisqichni ochib-yopib yana bir marta to'lqin yasaladi. So'ng qisqichni yopiq holatda yana eski usulda to'lqin yasashda davom etiladi.

2. Ikkinchi usulda soch tutamlarini tepadan pastga qaratib, birin-ketin o‘rab tushaveriladi. Lekin bunda, shunga e‘tibor berish kerakki, pastdagi talayotgan soch tutamini ajratib o‘rashda tepadagi o‘ralgan sochning bir qismi ajratilib, yangi o‘ralgan soch ustiga yotqizilib borishi kerak. Bu usul yangi o‘ralgan to‘lqinni oldingisiga o‘xshab ketishiga ham yordam beradi, sochni oxirigacha o‘rab chiqqandan so‘ng, boshidan boshlab, yana bir marta qisqich yordamida qisib, silab siqish kerak.

Sochni tepaga qaratib, gajjak bo‘lib, buralib turadigan shaklini yasash usuli ham mavjud. Bu usulni amalga oshirish uchun qisqich sochning uchidan emas, balki ildiz tarafidan qisiladi.

Qisqich bilan soch o‘rami qisib olingach, uni asta-sekin, ochib-yopib, pastga qarata tortiladi. Sochning uchiga yaqinlasha borgach, chap qo‘ldagi taroq bilan sochning uchi qisqich bilan tepaga qarab o‘raladi va 3-5 soniya qizdiriladi. Keyin asta orqaga burab, qisqich sug‘urib olinadi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, agar tepaga burash usulini yaxshi bajarish mumkin bo‘lmasa, uni yana pastga burab to‘g‘rilash imkoni bo‘lmaydi.

Sochning tepaga qarab yaxshi buralib turishi uchun 4 sm chamasida soch tutami ajratib olinadi. Ajratib olingan soch tutami taroq bilan ko‘tarilib, sochning tepa qismidan qisqich bilan qisiladi. Qisqichning soch tutami bo‘ylab, tepadan pastga yurgazib, soch uchiga yetganda, qisqichga o‘rab qizdiriladi. Soch tutamlarini ham har o‘rab qizdirganda, soch uchlarini issiqdan sinishining oldini olish uchun qisqichning uchini ochib-yopib turish kerak. Sochning o‘ziga qarata tortib burashni yaxshi o‘rganib olish katta ahamiyatga ega.

Soch tutamlariga yaxshilab ishlov berish kerak. Buning uchun tarab olingan soch tutamini chap qo‘l bilan ushlab, o‘ng qo‘lga taroqni olib, soch ildizidan 4 sm qoldirgan holda, teskari tarab shishirish kerak. So‘ngra chap qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i taroqning uchi bilan sochni yaxshilab ichkariga qaratib o‘rab chiqiladi. Keyin ko‘rsatkich barmoq soch orasidan chiqa-

rib, o'rniga o'rta barmoq tiqiladi. Ko'rsatkich barmoq qo'yilib, kerakli shakl beriladi.

Sochga issiq usulda farq ochib shakl berish 3 turga bo'linadi: o'rtadan ikki chetga qarab teng farq ochish, yuz qaratib uchta to'lqin yoki 2,5 ta to'lqin tushirib shakl berish mumkin. Bu shakllar to'lqinlarning mutanosibligi bilan ajralib turadi. Keyin farq ochilgan joydan boshlab ishlov bera boshlash kerak. Taroq bilan ozroq soch ajratib olinadi va ozroq ko'tarilib, chala yopilgan qisqich bilan ushlab qizdiriladi. Taroq yordamida esa sochlarga kerakli bo'lgan yo'nalish beriladi. Sochga to'lqin yasayotgan paytda avval tepa qismi, keyin past qismiga ishlov berilib, bir tarafdagi ikki to'lqinning shakli belgilab olinadi va ikkinchi tarafga o'tib, shunga o'xshash ikki to'lqin belgilanib ishlov beriladi. Keyin har ikki tarafdagi to'lqinlarning ichki qismlariga ham ishlov berib chiqiladi. Orqa tarafdagi sochlarni qisqich va taroq yordamida burab qo'yiladi va chap qo'l bilan silab yuboriladi. O'rtadan farq ochib, yuzga qaragan 2,5 ta to'lqinli soch shakllari ham shu usulda bajariladi. Uning uchun birinchi to'lqin tepaga, ya'ni teskariga buraladi, ikkinchi to'lqin yuzga qarab buraladi, uchinchi teskari va to'rtinchi yuzga tomon buraladi. Dastlabki tepaga qarab burab yasalgan to'lqin – yarim to'lqin deyiladi.

Sochni o'rtadan emas, balki yon tarafdin farq ochib, to'lqin yasaladigan bo'lsa, soch ko'p tarafdin uchta to'lqin, soch kam tarafdin ikkita yuzga qaragan to'lqin yasasa bo'ladi. Sochni yuzga qaragan to'lqin yasab, orqaga tarash uchun peshonaning o'rtasidan ikki yon tarafga keskin buralib, to'lqinlanib ketadigan markazini belgilab olish kerak. Peshonaning o'ng va chap tarafidagi yuzga qarab buralgan har ikki to'lqinning hajmi va ko'rinishi bir xil bo'lishi kerak. Undan keyin, boshning tepa qismidagi sochlar orqaga qarab buraladi. Ajratib olib buralayotgan o'rimlarning eni 5 sm dan oshmasligi kerak. Bosh ustidagi to'lqinlarning hajmi kattaroq qilib yasalishi lozim. Shundan so'ng, ikki yon tomondagi sochlarga ishlov beriladi va ikkinchi hamda uchinchi to'lqinlar yasaliq qo'yiladi. Sochning uchlari qayirib qo'yiladi.

Kalta olingan sochlarga shakl berishda avval ularni bosh terisiga nisbatan gorizontal holatda burab, barcha sochlar gajjak qilib chiqiladi. Undan keyin tikanli taroq yordamida tarab yuboriladi. Shunday qilinsa, katta hajmli burama ko‘rinishdagi shakl paydo bo‘ladi. Sochni burashda diametri 1,5-2 sm bo‘lgan qisqichdan foydalaniladi. Bu usulda yasalgan shakllar juda ixcham va chiroyli chiqadi.

6.5. Soch quritish

So‘nggi paytda sochni quritish uchun turli yangi moslamalar yaratilmoqda. Ular avtomatik ravishda havoning bosimi va haroratini me‘yorlab berish, kerakli vaqtda o‘zi yoqilib-o‘chiriladigan taymerlar bilan jihozlangan. Sochni quritayotganda, uni biroz silkitib turishni ta‘minlovchi generatorlar bilan jihozlangan quritish moslamalari ishlab chiqarilgan. Bigudiga o‘ralmagan kalta sochlarga shakl berishda sochni yaxshilab oxirida quritib olish lozim bo‘lganda oddiy fendan foydalaniladi. Oz quritilganda soch shakli mustahkam chiqmaydi va bo‘sh bo‘lib qoladi. O‘ta qurib ketgan sochga shakl berish qiyinlashadi, ular havodan tezda namlikni so‘rib olib, shaklini o‘zgartiradi. Ko‘p quritilganda bosh terisi ham qurib ketib, qazg‘oq paydo bo‘lishiga olib keladi.

Bigudiga o‘rashdan oldin, soch haddan ziyod ho‘l bo‘lmasligi lozim. Bigudiga keragidan ortiq soch o‘ralsa, uning tepasi qurib, ichkaridagi sochlar nam bo‘lib qolaveradi. Uzun sochlarni quritayotganda, barmoq yoki taroq yordamida vaqti-vaqti bilan soch orasini titib turish kerak, agar soch tikanli bigudiga o‘ralgan bo‘lsa, soch orasidan issiq havo yaxshi o‘tadi va soch tez quriydi. Quritish vaqti soat bilan o‘lchanadi.

Mijozlar sochni yaxshilab quritish uchun qancha vaqt ketishini juda yaxshi biladilar. Yosh sartaroshlar ba‘zan sochni tikanli taroq bilan yaxshilab tarab shakl berolmaydi. Bu esa mijozlarning kayfiyatini buzadi. Sochga shakl berish uchun avval yaxshilab tarab yuborilsa chiroyli chiqadi. Ba‘zi joylarini

teskari tarab, shishirilgan shakl berib qo'yilgach, shakllarning usti yaxshilab tekislab qo'yilib, lak sepiladi.

Sochga shakl berish. Sochdagi bigudilar yechib olinishi bilan uni tikanli taroqda tarab, to'liqlik shakl berish kerak. Silliqlik taroqlik bilan sochning uchlari chuqurroqlik tarab olinib, dastlabki to'liqlik yasalgach, chap qo'l bilan ushlab turgan holda, ikkinchi to'liqlikni, o'ng qo'l bilan ushlab turgan holda, uchinchi to'liqlik yasay boshlanadi.

Soch shaklini balandroqlik qilib yasash uchun sochning tepa qismi teskari tarab shishiriladi. Sochga shishirilgan shakl berish uchun uni to'rttoqlik qilib shakl bergan ma'qul. Bunda filirovka asosiy ahamiyatga ega. Filirovka qilinmagan soch yaxshi hurpayib ko'rinmaydi va yaxshi taralmaydi. Demak, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Soch shakli uzoqlik muddat saqlanib qolishi uchun uni avval uzoqlik muddatga turmaklash kerak. Shunda shaklga berilgan to'liqliklar yengil va katta chiqadi. Uni yana ham mustahkamlash uchun lak ishlatiladi. Ishlatilgan lak tarkibiga suv ko'p bo'lsa va sifatli bo'lsa, soch undagi suvni shimib olib, qattiqliqlik kamayadi hamda shakl ko'pgacha bormaydi. Agar lak juda ham kuchli bo'lsa, u sochlarni bir-biriga yelimlab qo'yadi va taragan paytda bosh terisi og'riydi.

Sochga lak sepihdan maqsad, uning namligini oldini olish hisoblanadi. Buning uchun sochning tepa qatlamiga lak yupqa qilib sepi qo'yiladi. Hozirgi paytda laklar aerosol idishlarda ishlab chiqarilmoqda. Ular yordamida soch ustiga juda yupqa qilib lak sepsa bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Soch turmaklashning asoslari nimalardan iborat?
2. «Ondulyatsiya» deganda, nimani tushunasiz?
3. Bigudi bilan sochga qanday shakl beriladi?
4. Sochga qisqichlarsiz qanday shakl beriladi?
5. Sochga qisqichlar yordamida qanday shakl beriladi?
6. Soch qisqa muddatga qanday jingalak qilinadi?
7. Soch qanday quritiladi?

8. Soch turmaklashning qanday turlari bor?
9. Bigudining qanday turlari mavjud?
10. «Ondulyatsiya» vositalari nimadan iborat?

Amaliy topshiriqlar

1. Fen bilan sochni quritishni mashq qilish.
2. Sochga ployka yordamida shakl berish.
3. Sochga bigudi o'rash.
4. Sochni hurpaytirish (nachyos), tarab tushirish.
5. Ondulyatsiya qilish va tarab tushirish.
6. «Bombaj», «Brashing» usulida sochga shakl berish.

7-bo'lim. SOCH-SOQOLNI QIRIB OLISH

7.1. Soqol va mo'ylovni olish

Tayanch iboralar: losyon, gel, pomazok, ustara.

Yuzning tuzilishiga qarab, soqol va mo'ylovning shaklini tanlab olishdan oldin, ularning bo'liqligi va qattiqligi turli xil bo'lishini bilish lozim. Soch va soqol odamning tashqi ko'rinishini bezabgina qolmasdan, uning yuzidagi ba'zi kamchiliklarni va hatto tashqi qiyofasini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shuning uchun soqol va mo'ylov har bir kishida o'ziga xos bo'ladi. Ozg'in yuzli odamlarga to'rtburchak, yarim aylanma, trapesiya shaklidagi soqollar ko'proq yarashsa, semizroq kishilarga cho'zinchoqroq shakldagi soqollar tavsiya etiladi.

Konus shaklidagi soqollar uchining uchililigi va chekkalarining tekis tushganligi bilan ajralib turadi. Ularning chetlarini notekis yoki qayrilgan shaklda yasab bo'lmaydi. Ish quyidagicha bajariladi: soqolning ostki qismiga chap qo'lni qo'yib yaxshilab tarab yuboriladi. Soqolni pastdan boshlab, iyak tepasidagi bo'rtib turgan yon taraflarga qadar olinadi. Kesa borib, asta-sekin soqol tugagan joyni yo'qqa chiqarish kerak. Unga shakl berishda pastki uchi baqbaqaning qoq o'rtasiga tushishi kerakligiga e'tibor beriladi. Shundan keyin ikki yon tarafning atroflari quloqlargacha tekislanadi va sayqal beriladi.

Uchli soqollarda, odatda, ikki chekkadagi soqollar qirqib tashlanadi. Agar chekkalarida soqol qirilmagan bo'lsa, bo'yin va chekkadagi soqol 0,2 mm li mashinkada olinadi. Soqol qancha uzun bo'lsa, yondagi soqollar shuncha kamroq olinadi. Ikki yondagi soqolni qaychi bilan olishda pastdan tepaga qaratib, yanoq va quloqqa nisbatan biroz qaychini qiyshaytirgan holda qirqiladi. Yuzdagi soqolni usti bilan qirqib bo'lgach, atir sepib kompress qilinadi keyin mo'ylov tekislanib, soqolni tartibga solish boshlanadi. Undan keyin taroq va qaychi yoki 0,2 mm li mashinkada shakl beriladi. Soqolning qayrilgan burchaklari nozik qilib qirqiladi.

Bu ish mashinkada amalga oshiriladigan bo'lsa, uning bir qismini terining qirgan joyiga tegib turish, ikkinchi yarmi esa biroz ko'tarilgan holda ushlanishi kerak. Soqolning ustki qismi qirqilayotganda, 0,2 mmli mashinka ostiga taroq qo'yilib, avval pastki lab ostidagi yunglar, keyin ikki yon tarafdagilari olinadi.

Yarim aylana soqol quyidagicha olinadi. Oldin 0,2 mmli mashinkada bo'yin va yon chekalaridagi yunglar olinadi. Keyin taroq va qaychi yordamida, o'ng tomoni tepaga qarata oxirigacha olinishi kerak. Bunda usta o'tirgichning o'ng tarafida turishi lozim, keyin chap tarafga o'tib, chap taraf ham olinadi. Yana o'ng va chap taraflarga o'tib, chetlarini tekislab, soqolga yarim aylana shakl beriladi.

«O'ruscha soqol». Bu ham yarim aylanaga o'xshab olinadida, ham aslida belkurak shaklida bo'ladi. Bunday soqolning uchi qirqiladi, lekin ikki yon va chekkalariga tegilmaydi. Ular go'yo sochning davomiga o'xshab ulanib ketgan bo'lishi kerak. O'ng va chap tarafga o'tib soqolning ikki past tarafi ozroq olinadi. Yuqori chekkalari esa kaltaroq qilib qo'yiladi. Shakl yaxshiroq ko'rinishi uchun mo'ylovning osti ham taroq bilan ko'tarilib, ozroq kesib tekislanadi. Pastki lab ostidagi mo'ylov — espanolka biroz olinadi va cheti tekislanadi. Keyin soqolga yakuniy shakl beriladi va chiroyli qilib tarab qo'yiladi.

To'g'ri to'rtburchak shaklidagi soqollar uzun yoki qisqa bo'lishi mumkin. Ular «kare» deb ham yuritiladi, ruscha soqoldek olinib, faqat unga to'rtburchak shakl beriladi. Ikki yuz chekkasidagi soqol 0,2 mmli mashinkada batamom olinadi. Mo'ylovni soqoldan keskin ajratib qirqiladi.

Bu shaklning kaltaroq turi yana tirishqoqlik bilan olinadi. Quloq uchidan mo'ylovning chetigacha soqollar yaxshilab olinadi. Ikki chekka va bo'yindagi soqol mashinkada olinadi yoki ustarada qiriladi. Qirqilgan va qirilgan joylarning hammasi yaxshilab tekislanadi.

Mo'ylov shakllari. Mo'ylovning shakli burunning nomutanosibligi yoki yuzdagi ayrim kamchiliklarning o'rnini to'ldirib turishi kerak. Ular uzun, kattaroq, o'ta kalta, burama ingichka va enli bo'lishi mumkin. Mo'ylovni tanlashda burunning shakli va yuzning ko'rinishini hisobga olish lozim.

Uzun mo'ylovlar «ukraincha» yoki o'zimizda «shop mo'ylov» deb ataladi. Bunda mo'ylovni oralab qirqish orqali uchlari ingichka shaklga keltiriladi. Mo'ylovning hajmini kamaytirish uchun uni oralab kesish kifoya qiladi. Agar uzunligini qisqartirish kerak bo'lsa, mo'ylovni pastdan tepaga chap qo'l yoki taroq bilan ko'targan holda kesish kerak.

Amalda sartaroshlar soch yoki soqolni shaklga keltirishning juda ko'p usullarini qo'llashadi. Eng asosiysi — mijozning istagi va yuz tuzilishini hisobga olgan holda, to'g'ri usul bilan olinsa bas.

7.2. Soqol olish usullari

Sartaroshlar amalda soqol olishning juda ko'p usullarini qo'llashadi. Soqolni tez, sifatli va xavfsiz olishning usullari ham mavjud.

Sovunlash — soqol olishdagi tayyorgarlik jarayoniga kiradi. Undan maqsad yuz terisining ustki qismini yumshatishdan iboratdir. Soqol olishdan oldin sartarosh mijozning yuzidagi xalaqit berishi mumkin bo'lgan har bir husnbuzar, chandiq, xol kabi kamchiliklarni yaxshilab ko'rib chiqadi.

Sovun surtish amali maxsus mo'yqalamda bajarilib, foydalanganda dezinfeksiya qilib turiladi. Mo'yqalam o'ralgan qog'oz idish mijozning ko'z oldida ochiladi. Sovun ko'pirtiriladigan idishlar maxsus patnischaga joylashtiriladi. Ishlatilayotgan ko'pik sovib qolmasligi uchun uni issiq suv solingan idishchada saqlanadi. Ular patnischaning ustida turishi kerak. Mo'yqalam issiq suvga tiqib olinib, sovun ko'pirtiriladi. Ko'pik quyuq va iliq bo'lishi kerak. Soqolni sifatli olishda, uning ahamiyati katta. Mo'yqalamni spiral tarzida, aylanma harakatga keltirib ko'pik surtiladi. Avval bag'bag'a soqoli sovunlab olinadi, so'ngra chap tarafini chap yonoq orqali quloqning oldi tarafigacha ko'pik surtiladi. Shu usul o'ng tarafda ham amalga oshiriladi. Mo'ylovning ustiga ko'pik surtilganda, aylanma harakat qilmasdan uzunasiga surtiladi. Shu usul o'ng tarafda ham amalga oshiriladi. Mo'ylovning ustiga ko'pik surtilganda, aylanma

harakat qilmasdan uzunasiga surtib qo'yiladi. Ko'pik surtishda mijozning burni, labi yoki qulog'iga ko'pik tegib ketsa, toza ro'molcha bilan artib qo'yiladi.

Ko'pik surtib bo'linishi bilan soqol olishga kirishiladi. Agar «mijozning soqoli dag'al, lekin terisi nozik bo'lsa, ko'pik surtishdan oldin issiq kompress qilib, yuz terisiga ozroq vazelin surtib yuborish lozim.

Soqol olishda ustara ushlashning ikki xil usuli bor. Bu usullar ustaraning teriga nisbatan holati va barmoqlarning ustarada va uning dastasida joylashishi bilan farq qiladi.

Birinci usulda ustaraning kesish qismi pastga qaratilgan, jimjiloq ustara dastasining oxirida, ko'rsatkich o'rta va yordamchi barmoqlar ustaraning ostida bo'lib, uning kesish qismi bilan dastasi ulangan joyi siqib turiladi. Dastaning o'zi jimjiloq bilan yordamchi barmoq orasida joylashishi kerak.

Ikkinchi usulda ustaraning kesish qismi tepaga qaratilib, bosh barmoq usta turgan tarafda, ko'rsatkich va yordamchi barmoqlar dastaning boshqa tarafida joylashib, jimjiloq bilan yordamchi barmoq o'rtasida dasta joylashadi.

Agar soqol o'sish yo'nalishiga qarshi olinsa, yuzga nisbatan 30° da ushlanadi. Shunda qolib ketgan mo'ylov tagi bilan qiriladi.

Terini ustaraning yo'nalishiga teskari tortish orqali, sarta-rosh soqol olish sifatini oshirib, kesilib ketishining oldini oladi. Soqolni faqat panjaning o'zini harakatga keltirib, ohista, teriga qattiq bosmasdan, qisqa-qisqa olish kerak. Yuzda qolib ketgan ko'pik va soch qoldiqlari toza ro'molcha bilan artib olinib, yuz terisiga atir sepiladi. Kesish qismi almashtirib turiladigan ustaradan foydalanganda, yuz terisini kesib olishdan ehtiyot bo'lish kerak.

Soqol olishda o'ng tarafdagi yonoqdan boshlansa, bira-to'la sochning quloq oldida tugagan joyiga ham shakl beriladi. Bunda bakenbard (chekka soqol)ni to'g'ri, uchli yoki yarim uchli shaklga keltirish mumkin. Bu amalni bajarishda ustaraning orqa tomoni bilan bakenbarddagi ko'pik olib tashlansa, unga shakl berishni aniqlab olish osonlashadi. Ustarani chek-

kaga joylashtirib olgandan keyin, chap qo'lining bosh barmog'i bilan qirilayotgan joydagi teri ustara yo'nalishiga teskari tortiladi. Terini tortishda barmoq ustaradan 1-2 sm yuqoriroqda joylashishi kerak.

Ustaraning harakati tugashi bilan bosh barmoqning joylashgan joyi ham o'zgartiriladi. Soqolni tez olishda ustaraning harakati biroz yonga burilsa, terini kesib olish xavfi kamayadi. Yonga burib harakat qilishda, yo'nalish ustaraning uchidan ketiga qarata borishi kerak. Bu harakat ustaraning tezda o'tmas bo'lib qolishining oldini oladi.

Soqol olishni o'rganish oson bo'lishi uchun uni qismlarga bo'lib o'rgangan ma'qul.

O'ng tarafni olish.

1. Birinchi usulda sartarosh ustaraning tig'ini pastga qaratgan holda ushlaydi. Avval soch turgan joydan boshlab, yuzning chekka qismi yonoqqacha qiriladi. Undan keyin quloqning yumshoq qismining ostidan boshlab bo'yindagi mo'ylar qiriladi.

2. Sartarosh ikkinchi usulda ustara tig'ini tepaga qaratib ushlaydi va soqolni bo'yin ostidan boshlab, tepaga qarata ola boshlaydi va yuzning chekkasi hamda mo'ylovning bir qismigacha oladi. Keyin ustarani yana pastga qaratib, bo'yin ostini gardangacha oladi.

3. Soqolning o'sish yo'nalishiga qarab ustara pastga yoki tepaga qaratib ushlanadi. Iyakning ostidan boshlab, gardanga qarata soqol olinadi. O'ng tarafni olib bo'lgandan keyin, mijozning boshini o'ng tarafga burib, o'tirgichning bosh tiraydigan joyiga joylashtiriladi. Bunda usta mijozning o'ng tarafida turib oladi.

Chap tarafni olish:

Usta ustarani tepaga qaratib ushlagan holda, panjasini shunday burishi kerakki, ustara soqolning o'sish yo'nalishida harakat qilsin. Bu amal ham o'ng tarafni olish usulidek bajariladi.

4. Usta ustarani birinchi usulda ushlab, bo'yingacha oladi.

5. Usta ustarani ikkinchi usulda ushlab, soqol o'sish yo'nalishiga qarata iyakning ostidan boshlab, bo'yin osti va gardanigacha oladi.

6. Usta ustarani ikkinchi usulda ushlab, iyak ostini oladi.
 7. Ustarani birinchi usulda ushlab mo'ylov olinadi. Mo'ylovni ikkinchi marta olganda, ustarani mo'ylov o'sish yo'nalishiga teskari tortiladi.
 8. Ustarani tepaga qaratgan holda, bo'yinning ostidan boshlab, yuz chetlari va quloq oldi tarafigacha olinadi.
 9. Ustarani shu holda tutib o'rindiq o'ng tarafida turgan holda, bo'yinning o'rta qismidan boshlab labning osti va mo'ylovning chetlariga qadar olinadi.
 10. Chap tarafda turgan holda, ustarani tepaga qaratib, bo'yinning chetidan boshlab yonoqqacha qiriladi.
 11. O'rindiqlarning orqa tarafiga o'tgan holda, yonoqdan boshlab chakkagacha olinadi.
- Ishning shu yo'sinda bajarilishi ko'p uchrasa ham boshqacha usulda qo'llaniladi. Mijozning iltimosiga qarab, soqol o'ta tozalab qirilishi ham mumkin. Soqol olingan joylarning tozalab olinganligini tekshirib ko'rish uchun chap qo'l barmoqlarini soqol olish yo'nalishiga qarshi siypalab aniqlanadi. Aniqlangan joylarga biroz ko'pik surtib o'sish yo'nalishiga qarshi qiriladi. Terini tortib turadigan chap qo'l barmoqlarining harakati ustaraning harakatiga mos kelishi kerak va barmoqlar, albatta, quruq bo'lishi lozim. Terining kesilgan yoki qirilgan joylariga 3 %li vodorod aralashmasi surtiladi.
- Ish yakunlangach, mijozning xohishiga ko'ra, kompress yoki massaj qilish, yelpib qo'yish yoki upa surtib qo'yish mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Qanday soqol turlarini bilasiz?
2. Qanday soqol olish usullari bor?
3. Ustaraning qanday turlari bor?
4. Ustara qanday charxlanadi?
5. Ustaradan qanday foydalanish usullarini bilasiz?

Amaliy topshiriqlar

7. Ustara ushlab va ishlatishni mashq qilish.
8. Mo'ylov kesishni mashq qilish.

8-bo'lim. MANIKYUR VA PEBIKYUR ISHLARI

8.1. Manikyur haqida umumiy ma'lumotlar va manikyur qilishda ishlatiladigan asboblalar

Tayanch iboralar: vodorod peroksidi, yod, qisqichlar pilka, lak.

Odatda, manikyur deganda, tirnoqni parvarish qilish, bo'yash va lak surish tushuniladi.

Aslida, manikyur fransuzcha so'z bo'lib, qo'lni barmoqlardan boshlab yelkagacha uqalash, massaj qilish ma'nosini anglatadi.

Hozir manikyur xonalarida qo'lni parvarish qilish, tirnoqlarni olish, unga shaki berish, bo'yash, lak surish, tirnoq milk-larini olib tashlash kabi amallar bajariladi. Manikyur xonalariga haftada bir marta borib turish tavsiya etiladi.

Bu amalni yaxshi bajarish uchun maxsus asbob-uskunalar jamlanmasi kerak bo'ladi.

Ulardan biri tirnoq egovchasi hisoblanadi. Egovchalarning tirnoq egovlaydigan yuzasi ham, katta qisqichligi ham har xil bo'ladi. Ular yordamida tirnoqni kichraytirish va shaki berish mumkin. Buning uchun egovchalardan tashqari, juda mayda zarrachali qumqog'ozlar ham ishlatiladi. Ular bilan tirnoq uchlari va qirralariga sayqal berish va tirnoq milk-larini tozalash mumkin. Yaxshi sayqal berilgan tirnoq tekis va silliq bo'lishi, ular bilan juda mayda tolalarni ham ushlab olish mumkin.

Tirnoq oladigan qaychilar, odatda, kichkina bo'ladi. Ular to'g'ri yoki egilgan shaklda, tirnoq olishga qulay bo'ladi. Ularning uchi uchli bo'lib, bir-biriga mahkam tegib turishi kerak. Ortiqcha terilarni olib tashlaydigan qaychilar undan ham nozikroq bo'lib, ehtiyotkorlik bilan ishlatishni va saqlanishni talab qiladi. Ularni faqat tirnoq atrofidagi terilarni kesishga ishlatish kerak.

Qarovsizlik natijasida qalinlashib ketgan tirnoqlar va qavarib ketgan terilarni kesib tashlash uchun maxsus omburga o'xshagan

keskich ishlatiladi. Uning dastasi orasidagi prujina — keskich yopilganda yana dastlabki holatga keltirishga ko'maklashadi.

Undan tashqari, tirnoq ustidagi terini ko'tarib kesish va surib qo'yish uchun mo'jazzina kurakchalar ham ishlatiladi. Ular o'tkir bo'lmasligi kerak, aks holda, teri va tirnoqqa jarohat yetkazishi mumkin.

Shuningdek, tirnoq va teri orasini tozalash uchun uchli qilib ishlangan qoshiqcha yoki kurakchalardan ham foydalaniladi.

Tirnoq ostini kirdan tozalash uchun yog'och, plastmassa yoki fil suyagidan tayyorlangan maxsus tayoqchalar ishlatiladi. Ularning bir tarafi yapaloq, ikkinchi tarafi uchli bo'lib, ishatilayotganda uchiga paxta o'raladi. Uning o'rniga metall moslamalar ishlatilishi mumkin emas.

Tirnoq ustidagi osti singan tirnoqlarni kesish qiyin bo'lgan taqdirda dastali, maxsus pichoqcha ham ishlatiladi. Tirnoqqa sayqal berish uchun oshlanmagan teri bo'lakchasi yoki maxsus mato ham manikyur jamlanmasiga kiradi.

Manikyur uchun ishlatiladigan asbob va moslamalar kamida ana shulardan tashkil topishi kerak. Ba'zi jamlanmalarda ulardan boshqa turli hajm va shakllardagi maxsus, qo'shimcha moslamalar ham bo'ladi.

Manikyur qilish uchun, shuningdek, turli xildagi rangli laklar, ulardan oldin tirnoqqa surtiladigan asosiy, rangsiz lak, lakni qotiradigan maxsus suyuqlik hamda lakka qo'shiladigan suyuqlik ham bo'lishi lozim.

Manikyur qilishda talab etiladigan gigiyena qoidalari:

Muolaja vaqtida mijozning qo'llari stol ustiga maxsus tirgakka qo'yilgan holatda joylashtirilishi kerak. Ustaning qo'liga ham tirgak kerak bo'ladi. Hamma ishlar ikki qo'lda bajariladi. Bir qo'l bilan mijozning barmog'iga shikast yetkazmaslik uchun ushlab turiladi, ikkinchi qo'lda tegishli asbob ushlanadi. Mijoz ham, usta ham ish paytida o'tirgan holatda bo'lishlari lozim.

Tirnoq orasiga turli xil mikroblar joylashib olishini unutmaslik lozim. Shuning uchun manikyurda ishlatilgan har bir asbobni yaxshilab dezinfeksiya qilib, ularning ozoda saqlanishiga e'tibor berish lozim.

Shuni esda tutish kerakki, faqat sog'lom tirnoqlarnigina manikyur qilsa bo'ladi. Kasallikka chalingan tirnoqlarni avval, albatta, davolash kerak.

Asboblarni 70 foizli spirtga bo'ktirib qo'yish, dezinfeksiya qilishning eng qulay usuli hisoblanadi.

Ikkinchi usuli ularni qaynatish hisoblanadi. Buning uchun sirli idish ostiga ro'molchani qo'yib, ustiga asboblarni taxlanadi. So'ngra ularni ko'mib turadigan qilib, suv solinadi va 45 daqiqa davomida qopqog'ini bekilib qaynatiladi. Shundan keyin uni qisqich bilan olib, stol ustidagi toza salfetkaga joylashtirib, ustaga qulay joyga qo'yiladi.

Ba'zida bexosdan qilingan noto'g'ri harakat tufayli mijozning qo'liga jarohat yetishi mumkin. Shunday paytda asboblarni sterilizatsiya qilingan bo'lmasa, mijozga biror kasallik yuqishi mumkin.

Bunday holat sodir bo'lmasligi uchun asboblarni ishlatgandan keyin, albatta, sterilizatsiya qilib qo'yish muhim.

Har holda jarohat yetkazilgan paytda o'sha joyni 3 %li vodorod peroksidi bilan dezinfeksiya qilib, maxsus krem surib qo'yish kerak. Agar jarohat jiddiyroq bo'lsa, uni bog'lab qo'yish kerak. Jarohat kichkina bo'lsa, bog'lash shart emas.

- a) manikyur qilishning tartibi quyidagicha:
- b) eski lakni ko'chirib tashlash (ketkazish);
- d) tirnoq chetlarini tozalash va unga shakl berish;
- e) 6 %li vodorod peroksidi aralashtirilgan, sovunli iliq suv solingan idishda qo'l terisini yumshatish;
- f) qo'l terisiga vazelin surtib singdirish;
- g) tirnoqlarning qirralarini egovlash, tekislash va tozalash;
- h) barmoqlarni uqalash;
- j) tirnoqqa sayqal berish;
- i) lak surish va bezak berish.

1. Avvalambor, mijozning tirnog'idagi eski lakni ketkazish kerak. Buning uchun maxsus suyuqlik ishlatiladi. Agar aseton ishlatiladigan bo'lsa, tirnoqqa ham, teriga ham zarar keltiradi. Maxsus suyuqlik tarkibida lakni ketkazish bilan birga, tirnoqni himoya va parvarish qiladigan vositalar ham bo'ladi.

Paxtani suyuqlikka botirib olib, tirnoqning ustidagi lak yoki yelimning ustiga joylashtirib namlanadi. So'ngra paxtani biroz bosib, tirnoqning uchiga qarata yo'nalishda ko'chirib olinsa, hamma eski lak bir yo'la ko'chib ketadi. Shunday qilib, hamma tirnoqlarning laki olib tashlanadi. Chala qolganlari yana bir marotaba tozalab chiqiladi. Agar tirnoq ustidagi teri oralarida lak qoldiqlari qolib ketsa, uchli tayoqchaning uchiga paxta o'rab, suyuqlikka botirib olib ketkazish kerak.

2. Tirnoqqa shakl berish, maxsus egov yordamida amalga oshiriladi. Egovni ushlaganda bosh barmoq pastda, qolganlari tepada turishi kerak. Tirnoqni keragicha kaltalashtirib, chetlarini tekislash lozim.

Egovni ishlatganda, uni tirnoqning chetidan o'rtasiga qarab ishqalash maqsadga muvofiqdir, shunda tirnoq uchlari titilib ketmaydi. Tirnoq burchaklarini qattiq egovlamaslik kerak. Aks holda, teriga shikast yetishi mumkin. Tirnoqni juda ham kalta qilib yuborish tavsiya etilmaydi. Uning uchini 2-3 mm qilib qoldirgan ma'qul.

Tirnoqlarga ishlov berishni chap qo'ldan boshlagan maqsadga muvofiq. Chunki o'ng barmoqlar yumshashi uchun suvda ko'proq ushlab turish talab qilinadi. Tirnoq olishda qaychi o'rniga keskichning o'zini ishlatsa ham bo'ladi.

Tirnoqqa shakl berish va uning qanday uzunlikda bo'lishini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Birinchidan, barmoqning shakli hisobga olinadi. Tirnoq uzun bo'lib, uchi tuxum (oval) shaklda bo'lsa, kalta va yo'g'on barmoqlar ingichkaroq va uzunroq bo'lib ko'rinadi, barmoqlar ingichka va uzun bo'lsa, tirnoq uchiga aylana shakl bergan ma'qul.

Agar mijoz xizmat yuzasidan yoki kundalik faoliyatida barmoqlarini ko'p ishlatadigan bo'lsa, tirnog'ini ko'p o'stirmagani ma'qul. Usta mijozning tirnog'iga shakl berishda tabiiylik va estetik talablardan chetga chiqib ketmasligi va oval shaklining afzalliklarini unutmasligi hamda mijozlarga tegishli maslahatlar berishi lozim.

3. Tirnoqqa tegishli shakl berilgandan keyin «kutikula» deb ataladigan o'smalarni olib tashlash lozim. Bu amalni ham chap qo'ldan boshlagan ma'qul.

4. 3 %li vodorod peroksidini 1 sm³ suvga aralashtirib, sovunli suv solingan sirli idishda qo'l terisi yumshatib olinadi. Teri yumshashi bilan bir qatorda tirnoq oralari kirdan tozalanib, shu bilan birga, qo'l terisi va tirnoq oralari dezinfeksiya qilinadi. O'ng qo'lning tirnoqlarini olayotgan paytda, chap qo'lni shu aralashmada yumshatib ishlashga tayyorlab tursa ham bo'ladi. Agarda qo'l terisi juda ham qurib ketgan bo'lsa, aralashmaga isitilgan o'simlik yog'idan qo'shib yuborsa ham yaxshi natija beradi.

5. Tirnoq o'sganda, u bilan birga, tirnoq ustidagi teri ham o'sib, birlashib ketadi. Qo'l terisi iliq sovunli suvda ushlab turilganda ham yumshab qoladi. Keyin uni ro'molcha bilan yaxshilab artib, ustiga vazelin yoki krem surtib qo'yish kerak.

6. Tirnoqlarni paxta o'ralgan tayoqcha, mo'yqalam yoki sovunli suvga bo'ktirib olingan junli mato bilan tozalash kerak. Tirnoq usti va atrofidagi terilarni olib tashlash uchun egovchani ishlatib bo'lmaydi. Aks holda, terini jarohatlab qo'yish mumkin.

Shundan so'ng, uchi to'mtoq belkurakcha bilan tirnoqqa yopishib turgan teri qatlamlarini ehtiyotlik bilan ko'tarib, mani-kyurga ishlatiladigan qisqich yoki qaychicha bilan tekis qilib kesiladi.

Tirnoq ustidagi terini juda ehtiyotkorlik bilan kesish kerak. Chunki aynan shu yerdan tirnoqning o'sadigan joyi boshlanadi.

Agar u yerga shikast yetsa, tirnoq noto'g'ri o'sishi mumkin. Agar uni juda chuqur qilib kesib yuborsa, qonab ketishi mumkin.

So'ngra ikkinchi qo'l barmoqlarida ham tartib bilan shu amallar bajariladi. Keyin ikki qo'lni yana sovunli iliq suvga solib ozroq ushlab turib qup-quruq qilib artiladi.

7. Keyingi bosqichda turli xil oziqlantiruvchi kremlarni ishlatib barmoqlar, kaftlar va bilaklar yaxshilab uqalanadi. Qo'lni uqalaganda limfa tomirlari kengayib, qon aylanish jarayoni yaxshilanadi va tomirlarni yumshatib terini mayinlashtiradi.

8. Odatda, uqalash amali tirnoqqa lak surtishdan oldin, mijoz qo'lni tirgakka qo'yib turgancha bajariladi.

Uqalashdan oldin bir yoki ikki qo'l bilan massaj uchun ishlatiladigan krem surtiladi.

Uqalaganda mijoz o'zi harakat qilishi yoki faqat ustaning harakatlari bilan massaj qilishi mumkin.

Uqalash amalini boshlashdan oldin, massaj kremini kaftning orqa tarafiga surtib olish, so'ngra barmoqlar, panja va bilak tomoniga silab yoyish kerak.

Uqalash amali bilak tomondan barmoq uchi tarafiga qarata bilak, kaft, barmoqlar va barmoq uchlarining usti, osti va yon-atroflarini silash, massaj qilish orqali bajariladi. Uqalash amali ko'rsatkich va o'rta barmoqlar uchidagi yumshoq joylar va bosh barmoqning birinchi bo'g'inidagi yumshoq joyi bilan bajariladi.

Qolni massaj qilganda, usta o'z barmoqlarini aylanma, pastdan tepaga, ko'ndalang va ilon izi harakatida yurgizishi mumkin, bilak, kaft va barmoqlarni uqalashda biroz tortib, bo'g'inlar orasidagi poylarni ohista cho'zib qo'yishga harakat qilish kerak.

Barmoqlar uqalangandan keyin kaftning orqa va oldi tomoni massaj qilinadi. Uqalash amali barmoq uchlaridan bilakka qarata yo'nalishi kerak. Uqalayotganda, barmoqlarning orasi ochilib tursa, har bir barmoqni hamma tarafini yaxshilab uqalab chiqishga imkoniyat yaratiladi. Kaftning yuzasi ham silash va ishqalash orqali uqalanadi. Undan tashqari, bosh va ko'rsatkich barmoq yoki bosh barmoq va jimjiloq yordamida egish, ishqalash, aylanma harakat qilish, tortib qo'yish mumkin.

Bilakning ham osti, yonlari turli xildagi massaj harakatlari bilan uqalanadi. Bilakning ustini uqalaganda panja pastga egilib tursa yaxshi bo'ladi. Massaj 5–10 daqiqa davom etadi.

9. Tirnoqqa och qizg'ish tabiiy tus berish uchun oshlangan teri bo'lakchasi yoki maxsus mato bilan sayqal berilib, avval rangsiz, so'ngra rangli lak surtilib, bezak beriladi va lak maxsus suyuqlik bilan qotiriladi. Agar massaj qilayotganda ishlatilgan krem yoki vazelin tirnoqqa ham tekkan bo'lsa, uni lak ketkazadigan suyuqlik bilan yaxshilab artish kerak. Aks holda, surtilgan lak tezda ko'chib ketadi.

10. Bezaydigan lak surtishdan oldin rangsiz lak surtilsa, tirnoqning bezagi yaxshi yopishib, uzoq muddatga yetadi va tirnoq

sargʻayib qolmaydi. Lakni avval bosh barmoqqa, keyin jimjiloq barmoqdan boshlab, boshqa barmoqlarga surtib chiqilsa, rangli lak surtilgunga qadar asosiy lak qotib turadi. Asosiy lak biroz qotganda keyin, oʻsha tartibda rangli lak surtiladi. Lekin, avvalambor, tirnoqning oʻrtasiga, soʻngra ikki yoniga surtish kerak.

Lakni tirnoqqa surtishda moʻyqalamni uzunasiga tez harakat qildirish lozim. Uni iloji boricha yupqaroq surtish kerak. Quyuq lakni ishlatmagan yaxshi. Chunki qalin qilib surtilgan lak tezda yorilib, parchalanadi va toʻkilib ketadi.

Endigina surtib qoʻyilgan lak panjalarga tegib ketmasligi uchun barmoqlar orasini ochib turish kerak. Lak surtishdan oldin barmoqlar orasiga paxta yoki paralon qoʻyib, lak quriganidan soʻng, olib qoʻysa ham boʻladi. Agar lozim boʻlsa, yana bir marta lak surtib qoʻyish mumkin.

Undan soʻng lakni qotiradigan suyuqlikni qotirib qoʻymasdan chaqqonlik bilan surtish kerak.

Agar lak chaplashib ketsa, uni ketkazib, quritib, birozdan soʻng takroran surtsa ham boʻladi.

Tirnoq atrofidagi teriga lak tegib ketsa, tayoqchanning uchiga paxta oʻrab, lak ketkazadigan suyuqlikka botirib olib, artib qoʻyish kerak.

Lak surtilgandan keyin fen bilan quritish, issiq batareyaga tutib turish, shamolda ushlab turish mumkin emas. U oʻzoʻzidan qurib qoladi. Aks holda, pufakchalar va gʻadir-budirlar paydo boʻlib qolishi yoki oqib ketishi mumkin.

Tirnoqqa rang tanlashda ham baʼzi narsalarni hisobga olish lozim. U mijozning kiyimi yoki lab boʻyogʻiga mos kelishi kerak. Tantanali kechalarda esa tirnoqni xohlagan rangga boʻyasa boʻladi. Kumush rang, tilla rang, qora, qizil va hokazo. Manikyur qilishda tirnoqqa yopishtirib qoʻyiladigan turli shakllaridan foydalanish yoki moʻyqalam bilan har xil gullarning rasmini chizib qoʻyish ham mumkin.

Har kuni foydalanish uchun rangsiz, sargʻish yoki och qizil rangli laklar toʻgʻri keladi. Ustalar mijozga turli xil zamonaviy shakl va ranglarni tavsiya etishlari mumkin.

Agar mijozning tirnogʻi toʻrtburchak shaklida boʻlsa, uni

aylantirib kesib, chetlarini egovlab, o'rtasiga rangli lak surtib, ikki chekka qismiga oq lak surtib, so'ng lak qotiradigan suyuqlikni surtsa bo'ladi.

Uchli bo'lib qolgan tirnoqlarni oval shaklida egovlab, o'rtasiga lak surtib qo'yish ham mumkin.

Cho'zinchoq, bodomga o'xshab ketadigan tirnoqlarning o'zi yaxshi ko'rinadi. Unga o'zgartirish kiritmasdan lak surtib qo'ysa ham bo'laveradi.

To'rtburchak tirnoqlar uzun yoki kalta bo'lishi ham mumkin. Ularni tekis qilib kesib, chetlarini egovlamasdan, tirnoqning butun yuzasiga yoki faqat o'rta qismiga lak surtsa ham bo'ladi.

Agar mijozning tirnog'i dumaloq shaklida bo'lsa, uning faqat o'rtasiga lak surtib qo'yish kerak.

Surtilgan lak tirnoqning ko'rinishini to'g'rilab yuborishi mumkinligini unutmaslik zarur. Agar tirnoqning boshidan oxirigacha lak surtilsa, u juda uzun bo'lib ko'rinadi. Tirnoqning oysimon joyidan ozroq qoldirib bo'yalsa, tirnoq kaltaroq ko'rinadi.

Tirnoqqa tasvir tushirish.

Ustalar mijozga turli xildagi tasvirlarni tavsiya etishlari mumkin:

Buning uchun gul, yulduzcha yoki barcha shakldagi maxsus narsalar tirnoq ustiga yopishtirilib, so'ngra ustidan lak surtiladi. Lak qurigach, rasmchalarni tirnoqdan ko'chirib olib, ustidan rangsiz lak surtilib, keyin maxsus suyuqlik bilan qotiriladi, natijada tirnoq ustida ajoyib tasvirlar paydo bo'ladi.

Fransuzcha manikyur usuli.

Fransuzcha manikyur qilish uchun tirnoqni to'rtburchakroq shaklda kesib, chetlari ozgina egovlab olinadi va ularni bo'yashda bir necha rangdagi laklar ustma-ust suriladi. Uning o'ziga xosligi shundaki, tirnoqning qirrasi va ostki tarafi oq rang bilan yoki maxsus oq qalam bilan bo'yab qo'yiladi. Agar bu usul yaxshilab bajarilsa, tirnoq betakror bo'ladi. Uni bajarish usuli:

Buning uchun oq, sariq lak kerak bo'ladi. Avvalambor, tirnoqqa kerakli shakl beriladi. So'ngra tirnoqning qirralariga

ehtiyotkorlik bilan mo'yqalamda oq lak surtib chiqiladi. Oq lakni tirnoqning qirrasiga surtayotganda, tirnoqning yuza qismiga ketmasligi uchun eni 4 mm, uzunligi 2 sm bo'lgan matoni kesib olib, ozroq ho'llab, tirnoqning ustiga yopishtirib qo'yiladi. Mato tirnoqdan 5 mm uzun oq bo'lishi kerak.

8.2. Pedikyur

Pedikyur qilishda umumiy tartiblar:

Odatda, odamlar qo'llariga ko'proq e'tibor berib, oyoqlariga kam e'tibor berishadi. Oyoqlarni parvarish qilish, uning ko'rinishini yaxshilash bilan birga, mijozning salomatligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Manikyur singari pedikyur ham faqat sog'lom tirnoqlarda bajariladi. Shuni e'tiborga olib, oyoq tirnoqlarida birorta kasallik alomatlari sezilsa, avval ularni davolash zarur.

Pedikyur deganda, oyoqni parvarish qilish tushuniladi, ya'ni barmoqlarni va tovonlardagi qavariqlarni ketkazish, tozalash, tirnoqlarni kesib sayqal berish, tirnoq atrofida qotib qolgan ortiqcha teri qatlamlarini olib tashlash, teriga kirib qolgan tirnoqlarni qirqib olish, uqalash, iliq suvda tutib turish amallari va boshqalar.

Pedikyurda ham manikyur uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar ishlatiladi. Lekin oyoq tirnoqlariga ishlatiladigan qisqich baquvvatroq bo'lishi kerak. Qavariqlarni ketkazish uchun maxsus qirg'ichlar ham ishlatiladi.

Pedikyur quyidagi bir nechta bosqichda bajariladi.

1. Avvalambor, oyoq terisi va tirnoqlar yumshatib olinadi. Buning uchun maxsus vannachaga issiq suv solib, unga sovun kukuni, choy sodasi yoki nashatir spirti qo'shiladi. So'ngra unga oyoqlarni botirib turish lozim. 15–20 daqiqalardan keyin oyoqni yaxshilab sochiq bilan artib quritiladi. Ayniqsa, barmoqlar orasini yaxshi artishni unutmashlik kerak.

2. Oyoq uchi, tovon va barmoqlar atrofiga krem surtib, qavariqlar yumshatib olinadi. So'ngra maxsus qirg'ich, pemza yoki maxsus ustara bilan qavariqlar asta-sekin qiriladi. Agar

qavariqlar yaxshi yumshagan bo'lsa, ularni ketkazish oson bo'ladi. Qavariqni ketkazish qiyin bo'lsa, unga 2-3 kunga plastir yopishtirib qo'yish kerak. Tirnoqda lak qoldiqlari qolib ketgan bo'lsa, ularni ham suyuqlik bilan ketkazish lozim bo'ladi.

3. Keyin tirnoqni kirlardan tozalash zarur. Uni uchliroq kurakchada amalga oshirish kerak. So'ngra tirnoq uchlarini qisqich yoki kichkina to'g'ri qaychicha bilan qisqartiriladi. Agar tirnoq bilan teri yaxshi yumshagan bo'lsa, bu amal osonlik bilan amalga oshiriladi. Mijozning tirnoqlari qalin bo'lib, juda qattiqlikqilsa, ularni yana bir marta issiqroq suvda yumshatib, qaychi o'rniga keskich ishlatish kerak bo'ladi.

Tirnoq olganda, uchlarini ozroq qoldirib, so'ngra egovcha bilan egovlab yuborib, qirralari tekislanga, tirnoqlarning etga o'sib kirishining oldi olinadi.

Ko'pincha, shunday holat oyoqning asosiy, katta barmog'ida uchraydi. Katta barmoqning tirnoqlari bosim ostida poyafzal uchining qarshiligiga uchrab, barmoqning terisiga qayrilib kirib qolishi mumkin. Ba'zan bunday holat terida yiring paydo bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

4. Tirnoq teriga kirib qolgan bo'lsa, oyoq terisini yana yumshatish kerak bo'ladi. Buning uchun vannachaga issiq suv solib, avval bitta oyoq, so'ngra ikkinchi oyoq botirib turiladi. Birozdan so'ng oyoqlar yaxshilab artilib, barmoqlar atrofiga yog'li krem surtiladi, barmoqning usti va tirnoqlar yaxshilab uqalanadi. So'ngra tirnoq o'sishi boshlanadigan joydagi yopishib turgan terini kurakcha bilan ko'tarib, maxsus manikyur pichoqchasi bilan kesib olinadi. Tirnoq atroflari, oralari va qavargan joylar pemza bilan tozalanadi.

5. Beshinchi bosqichda oziqlantiruvchi krem bilan oyoqni uqalab chiqish kerak.

6. Tirnoq ustini bezash uchun eski lak qoldiqlarini ketkazib olib, oyoq barmoqlari orasiga paxta tiqib qo'yiladi. Shunday qilinsa, barmoqlar bir-biriga tegmay, ishlashga qulay bo'ladi. So'ngra asosiy, rangsiz lakni surtib, keyin esa xohlagan rangdagi bezakli lak surtiladi va maxsus suyuqlik bilan qotiriladi. Tirnoq atrofidagi teriga tegib ketgan laklarni ketkazish uchun maxsus

tayoqcha uchiga paxta o‘rab, uni lak ketkazadigan suyuqlikka botirib olib, artib tashlanadi.

Oyoq tovon, panjalari va oyoq-tovon bo‘g‘inlarini uqalash.

Tirnoqlarni bezashdan oldin oyoq uqalanadi. Oyoqni uqalashning foydasi juda ko‘p. Uqalanganda, oyoq terisida qon aylanishi yaxshilanadi. Undan tashqari, oyoq ostida juda ko‘p refleks zonalari bo‘lib, uqalash jarayonida butun organizmning holatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Agar oyoq tomirlari kengaygan (varikoz) bo‘lsa, uqalash tavsiya etilmaydi.

Uqalashdan oldin kaftga yog‘ yoki massaj kremini olib, oyoqning atroflari va panja oralariga surtib chiqiladi. Uqalayotganda mijoz yotgan yoki o‘tirgan holatda bo‘lishi mumkin. Uni oyoqning uchlaridan boshlagan ma‘qul. Har bir barmoq navbat bilan uqalanib chiqadi. Barcha bo‘g‘inlarni avval to‘g‘ri silab, so‘ngra spiral shaklida uqalash lozim. Bu amalni bir yoki ikki qo‘lda bajarish kerak.

Barmoqlar uqalangach, asta-sekin barmoq oralari, oyoq uchlari, uning osti, usti va yonboshlari uqalanadi. Oyoq ostini musht bilan yoki o‘rta barmoqni qayirgan holda uqalanadi. Uqalash harakati aylanma bo‘lishi va barmoqlardan tovonga qarab yo‘nalishi kerak. So‘ngra tovon qismiga o‘tiladi. Avval bir necha bor chimchib olish amali qo‘llaniladi. Undan keyin to‘rtta barmoq bilan ezib chiqiladi.

Tovondan so‘ng paylarga o‘tiladi va asta-sekin boldir ham uqalanadi. Bu joylarni, albatta, ikki qo‘lda uqalash kerak. Aylanma va to‘g‘ri silaganda harakat barmoqning uchidan oyoqning tepasiga qarata yo‘nalishi kerak. Chap qo‘l bilan oyoqning uchini (tagidan) ushlab o‘ng qo‘l bilan oyoq usti tepaga va pastga qarata silanadi.

Keyin bir qo‘l bilan oyoq uchining ustidan ushlab, ikkinchi qo‘l bilan oyoqning ostini barmoq uchlaridan tovon uzra tizaga qarab silash kerak.

Boldirni silayotganda, oyoqqa ozroq og‘irlik berib tortiladi.

Uqalashni tugatishdan oldin oyoqlarni bukib, yoyib bir necha marta aylanma harakatga keltiriladi. Xuddi shu tartibda ikkinchi oyoq ham uqalanadi.

Takrorlash uchim savollar

1. Qanday manikyur turlari mavjud?
2. Manikyur bajarilishining ketma-ketligi nimalardan iborat?
3. Manikyurda qanday asboblardan foydalaniladi?
4. Manikyurda ishlatiladigan asbob-uskunalar qanday dezinfeksiya qilinadi?
5. Qo'l massaji qanday bajariladi?
6. Massaj qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?
7. Pedikyur qilishning tartiblari nimalardan iborat?
8. Oyoq massaji qanday amalga oshiriladi?
9. Pedikyurning qanday turlari mavjud?
10. Pedikyurda qanday asbob-uskunalaridan foydalaniladi?

Amaliy topshiriqlar

1. Manikyurni bajarish uchun ish joyini tayyorlash va ishlatiladigan asboblarni dezinfeksiya qilish.
2. Tirnoqlarni yumshatish uchun suv vannasini amalga oshirish.
3. Tirnoqlarni tozalash va ularga shakl berish.
4. Lak, emal yordamida tirnoqlarga shakl berish.
5. Pedikyur ishlarini amalga oshirish (manikyur va pedikyur ustaxonasida o'tkaziladi).

9-bo'lim. SOCH BO'YASH

9.1. Rang berishning imkoniyatlari

Tayanch iboralar: toner, vazelin, vitamin, yog'lar, shampun, zaytun yog'i, shinyon, shpilka.

Soch bo'yashda ustaning ko'pincha juda qiyin muammolarni hal qilishiga to'g'ri keladi. Ba'zan mijoz o'z sochi rangini o'zgartirishni chin dildan xohlasa ham qaysi rangga bo'yashni bilmaydi. Umuman olganda, bugun mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalanib, har turdagi sochlarga har qanday rang imkoniyatlardan foydalanib, har turdagi sochlarga har qanday rang berish mumkin. Hamma narsa qo'llaniladigan usulga bog'liq. Soch bo'yashning quyidagi 3 xil asosiy usuli mavjud: rang berish, bo'yash va rangsizlantirish.

Rang berish usuli: bu usulda bo'yoq sochning faqat ustki qatlamini o'rab, qoplab turadi.

Bo'yash usuli: usulda bo'yoq soch orasiga singadi.

Rangsizlantirish: bu usulda sochdagi pigmentlar rangni parchalaydi. Ular orasida qanday farq bo'lishi mumkin? Sochga qanday ta'sir ko'rsatadi? Qaysi biri zararli va qaysi biri zararsiz?

Uning afzalligi shundaki, ko'pikli, suyuq, kremli va fiksator bilan ishlatiladigan ranglarga soch bo'yashda ishlatiladigan kislotalar qo'shilmaydi. Ular qanday bo'lsa, shundayligicha sochga surtiladi.

Uning xususiyati shundaki, soch bo'yash uchun bevosita ishlatiladigan bo'yoqlar unda mujassamlashgan bo'ladi. Soch ustida tarqalganda, ular sochning ustki qatlamiga singishi mumkin. To'qroq rang ishlatilganda esa sochning tabiiy rangiga rang qo'shiladi. Agar mijozning sochi och malla rang bo'lsa va bu sochlar yana shu rangga bo'yalsa, u yanada jilvalanib, hatto kumush rangda tovlana boshlaydi. Tabiatan to'q sochlarga och rang berilganda unchalik ko'zga tashlanmaydi. Lekin och rangli va rangsizlantirilgan sochlarning rangini o'zgartira oladi.

Sochning keratinga umuman ta'sir etmasligi sababli, rang berish mutlaqo zararsiz hisoblanadi.

Sochga berilgan rangni yo'qotish ham qiyin emas, chunki sochning faqat ustidagina joylashgan bo'yoqni yuvib tashlash mumkin. Rang berish o'sib chiqayotgan sochlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Och rangli sochga hech qachon yanada ochroq rang berishning iloji yo'q. Oqargan sochlarning rangini o'zgartirish mumkin, lekin ularga to'q rang berib bo'lmaydi. To'q rangdagi sochlarga esa biroz to'q rang berish mumkin. Agar mijoz biror-bir rangning o'ziga mos kelishini yoki kelmasligini aniq-laganidan keyin doimiy va uzoq muddatga rang berish mumkin.

9.2. Sochni «Londe Color», «Palette» kabi kremli bo'yoqlar bilan bo'yash

Soch bo'yashni «koloratsiya» deb ham atashadi va bu usul qo'llanilganda, sochga berilgan rang anchagacha saqlanib qoladi. Buning uchun belgilangan vositalarni farqlab olish qiyin emas. Chunki ularning idishida doimo bo'yash uchun qo'shiladigan kislotali ashyolar bo'ladi.

Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

Asosiy bo'yoq, odatda, kremsimon emulsiya (yelim) holatida bo'lib, uning tarkibida juda mayda zarrachalardan tashkil top-gan bo'yash vositasi bo'ladi. Bu zarrachalar soch bo'yash jaray-onining dastlabki bosqichini amalga oshiradi, ya'ni sochning tangasimon qatlamidan o'tib, uning asosiga kirib boradi (19-rasm). Ikkinchi bosqichda kislotali vositalar ishga solinadi. Natijada sochga surtilgan bo'yoq, uning asosidagi pigment bilan qo'shilib, ta'siri shunchalik kuchli bo'ladiki, uni sochdan o'chirib tashlashga iloj bo'lmaydi.

Dastlabki krem-bo'yoqlar 1951-yilda ishlab chiqa-rilgan bo'lib, tezda sartaroshlar orasida ommalashib ketgan. Kremlarning ijobiy tomoni ularning tiniqligi va yopishqoqligida edi.

Ishlatilayotganda ular oqib ketmaydi va kerakli joyga bir tekisda surtib olishga imkon beradi. Bundan tashqari, krem terini yumshatadi va unga ozor yetkazmaydi.



19-rasm. Bo‘yoq surtish usuli

Suyuq bo‘yoqlar bilan qanday ishlash kerak bo‘lsa, krem-bo‘yoqlar ham shunday ishlatiladi. Kerakli hajmdagi krem likopchaga siqib olinadi va 6–8 foizli vodorod peroksidi bilan aralashtiriladi. Sochning o‘sib chiqqan joylarini bo‘yash uchun idishdagi bo‘yoqning yarmi siqib chiqarilib, 30 sm³ vodorod peroksidi bilan aralashtiriladi. O‘rtacha uzunlikdagi sochning hammasini bo‘yash uchun idishdagi hamma bo‘yoqlar siqib chiqarilib, 8–10 foizli vodorod peroksid bilan aralashtirilsa yetadi. Sochni aralash ranglarga bo‘yash uchun turli xil ranglarni aralashtirib foydalansa ham bo‘ladi. Shuning uchun faqat bitta sharti bor. Bir maromdagi rang kelib chiqishi uchun ishlatiladigan mo‘yqalamning metall qismlari bo‘lmasligi kerak. O‘sha mo‘yqalamning o‘zi bilan bo‘yoq mayda qilib ajratilgan soch o‘ramlariga bir tekisda surtiladi.

Agar soch unchalik yog‘li bo‘lmasa, uni bo‘yashdan oldin yuvish shart emas. Agar sochni zaruriyat yuzasidan yuvish kerak bo‘lsa, uni yaxshilab artib fen bilan quritish lozim. Agar oqargan sochlar ko‘p bo‘lib, mijozning sochiga bo‘yashdan oldin och rang berish zarur bo‘lsa, bunda sochga och rang beruvchi vosita surtiladi.

Sochlar kerakli rangga kirgan-kirmaganligini aniqlashda usta vaqti-vaqti bilan soch tutamini toza paxta bilan artib ko‘rib, kuzatib turadi. Sochni bo‘yab bo‘lgandan keyin yuvib, quritilib, boshqa ishlar bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda sochni rangsizlantirish usulini qo‘llamasdan turib, sochga och rang beradigan krem-bo‘yoqlar mavjud. Bunday bo‘yoqlarning foydalanish qoidalari bo‘yoq qutisida

batafsil yozilgan bo'ladi. Bunday bo'yoqlar rangsizlantiruvchi bo'yoqlar deyiladi. Ulardan foydalanishda ko'rsatmalarga amal qilish lozim. Aks holda, kutilmagan rang chiqib qolishi mumkin.

9.3. Sochga och rang berish orqali tez rangsizlantirish va bo'yalgan sochlarni rangsizlantirish

Sochga och rang berishda vodorod peroksidi ishlatiladi. Sochning tabiiy rangi uning asosidagi keratinda mavjud bo'lgan pigmentning miqdoriga bog'liq. Kislotali reaksiya tabiiy rangga och rang beradi. Och rang berishning ikki usuli mavjud: tez rangsizlantirish va soch yuvish orqali rangsizlantirish.

Tez rangsizlantirish uchun 6-12 foizli vodorod peroksididan tayyorlangan qorishmaga ko'mir kislotali ammoniy, suyuq sovun yoki sovun kukunidan solinadi. Qorishmaning hajmi soch hajmiga, ya'ni uning uzunligiga qarab belgilanadi.

Qattiq va dag'al sochlarga kuchliroq aralashma ishlatiladi. Tabiiy sochlar ikki xil rangga o'zgartirilishi mumkin. Qora sochlar jigar rangga aylanadi, jigar rang sochlar esa och malla rangga kiradi. Tarkibida och malla rang pigmentlari mavjud bo'lgan sochlar oson rangsizlanadi. Tarkibida sariq-qizil rangli pigmenti bor sochlar esa deyarli och tus olmaydi.

Agar aralashmani quyuqroq qilib tayyorlash kerak bo'lsa, suyuq sovun yoki sovun kukuni qo'shiladi. Shampun, odatda, qo'shilmaydi. Chunki u soch asosidagi pigmentlarga vodorod peroksidi o'tib ta'sir etishiga yo'l qo'ymaydi. Soch rangsizlantirilayotganda havo harorati 18-20 darajadan kam bo'lmasligi lozim.

Bo'yashdan oldin sochga singdirishga ishlatiladigan peroksid aralashmasini tayyorlashda soch va uning ildizi sarg'ayib ketmasligi uchun ammoniy tuzlari qo'shiladi. Usta ishni rezina qo'lqop kiyib bajarishi kerak. Bunda, chinni, shisha yoki plastmassa idishdan foydalanib, sochga paxta yoki gubka bilan surtib chiqiladi. Bosh terisiga yomon ta'sir qilmasligi uchun vazelin surtiladi. Ish boshlashdan oldin mijozi yelkasiga penyuar yopiladi. Yuqorida aytilganidek, 50 gr vodorod peroksidiga 3-4 gr

ammoniy tuzi qo'shiladi. Shunday qilinganda, mijozning bosh terisiga shikast yetmaydi va soch sarg'ayib qolishining oldini oladi.

Barcha soch bir maromda rangsizlantirish uchun bu amalni chaqqonlik bilan bajarish kerak. Agar 20-30 daqiqa ichida soch och rang olmasa, sochni yuvib tashlab, quritib yangi aralashma bilan bu amalni yana bir marta takrorlash zarur.

Sochning uchlari kerakli tusga kirgandan so'ng ildizga yaqin joylari alohida rangsizlantiriladi. Ildizi sochning boshqa qismlaridan rangsizlanib ketishi yoki boshqacha rangda bo'lib qolmasligiga e'tibor berish kerak. Agar hammasi bir xil rangda bo'lsa, jarayon tugallangan bo'ladi (20-rasm).



20-rasm. Oqartiruvchi bo'yoqni surtish

Tumanlarning qaysi qismiga aralashma uzoqroq ta'sir etishini ham hisobga olish kerak. Misol uchun, orqa tomondagi sochlar doimo to'qroq va baquvvatroq bo'ladi. Ungacha boshqa tomondagi sochlar juda ham rangsizlanib ketmasligi uchun ularga, sirka qo'shilgan suv yoki limon kislotali suv surtib qo'yiladi. Bu aralashmalar rangsizlantirish jarayonini to'xtatadi. Agar soch kutilgandan oldin och rang olsa, uning ranggi mijozga yoqib tushsa, kerakli joyga surtilib, orqa tomonlari esa qoldirilib, oxiriga yetkaziladi.

Juda to'q sochlarni rangsizlantirishda, aralashma ikki marta qo'llaniladi. Birinchi bor qo'llanganda, soch yuvilib quritilishi kerak.

Ayrim bitta yoki bir necha tutamining o'zini rangsizlantirish ham mumkin. Bu ish ham odatdagidek bajariladi. Lekin aralashma surtilgan soch tutamlari nam o'tmaydigan matoga o'rab, ajratib qo'yiladi.

Agar bir necha ingichka tutamlar ajratib olinib rangsizlantirilsa, yana ham yaxshiroq ko'rinish beradi. Ayniqsa, uchi tekislangan sochlar rangsizlantirilsa, ajoyib ko'rinish hosil bo'ladi. Buning har bir och tutami qo'lga olinib, teskari taraladi. Shunda uzunroq sochlar qo'lda qolib, kaltaroqlari ildiz tomonga surtiladi. Sochning hammasini to'g'ri taraganimizdan keyin, bo'yalgan va bo'yalmagan sochlar uchlari bir-biriga aralashib ketib, betakror ko'rinish beradi. Bu usul keyingi safar qaytarilishi uchun sochning biroz o'sishini kutish kerak. Keyin soch uchlari qirqilib, bo'yashni yana takrorlasa bo'ladi.

Tajribasiz ustalar ba'zi xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Misol uchun, ko'z bilan chamalab, taxminan tayyorlashadi, sochning boshidan oxirigacha birdan rangsizlantiriladi, kislotaning chayish usulini yaxshi bajarishmaydi, aralashmaning oldingi sochlarga tegib ketishiga yo'l qo'yishadi. Bu xatolar natijasida bosh terisi kuyib qolishi, soch buzilishi va ko'rimsiz rang olishi mumkin.

Agar soch bo'yashdan oldin, unga kuchli ta'sir etadigan bo'yoqlar ishlatilgan bo'lsa, ularni rangsizlantirish qiyin bo'ladi va bu jarayon sochga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar soch endigina bo'yalgan bo'lib, ranglar soch asosiga joylashib olishiga ulgur-magan bo'lsa, rangsizlantirish ancha oson bo'ladi. Sun'iy bo'yoqlar bilan bo'yalgan sochlardan ko'ra tabiiy rangdagi sochlarni bo'yash ancha oson. Bo'yalgan sochlarni rangsizlantirishda ehtiyotkor bo'lmasa, sochning umumiy ko'rinishini buzuvchi har xil rangdagi dog'lar paydo bo'lib qolishi mumkin. Ayniqsa, qora sochlarni rangsizlantirish qiyin bo'ladi. Ularga berilgan rang bir tekisda chiqmaydi.

Bo'yalgan sochlarga maromida och rang berish uchun aniq muddatga rioya qilish kerak. Chunki sochga ikkinchi marotaba faqat 5-7 kundan keyin och tus berish mumkin. Bu vaqt ichida sochni vodorod peroksidi ta'sirida qurib ketishidan asraydigan yog' qatlami bilan to'la qoplanadi. Sochni tezroq rangsizlantirish uchun 8-10 foizli vodorod peroksidi bilan aralashtirilgan «Blondaron-supra» vositasidan foydalaniladi. Bu vosita yordamida soch bo'yalib, unga keyinchalik och rang

berish uchun lozim bo'lgan tus ham beriladi. Bunday vaqtda soch faol holatda bo'lishini hisobga olib, unga rang tanlaganda, 2-3 barobar ochroq ishlatishni unutmaslik lozim.

Tabiiy xina yordamida turli aralashmalar qo'shilib bo'yalgan sochni limon suvi bilan o'z holiga keltirsa bo'ladi. Agar soch xina bilan yaqinda bo'yalgan bo'lsa uni vodorod peroksidi bilan ham yuvib tashlasa bo'ladi.

Shuni unutmaslik kerakki, sochdagi barcha turdagi bo'yoqlarni ketkazishning hamma usuli sochga ziyon yetkazadi. Shuning uchun mo'rt bo'lib qolgan sochlarga vaqti-vaqti bilan ularning holati va asosini yaxshilaydigan vositalar surtib turish kerak.

9.4. Sochni yuvish orqali och rang berish

Odatda, uy sharoitida soch shampun bilan rangsizlantiriladi. Agar unchalik to'q rangda bo'lmasa, yaxshi natijaga erishish mumkin. Shampun sartaroshxonadagi aralashmadan ko'ra kuchsizroq ta'sir ko'rsatadi. Yuvib rangsizlantirish uchun suyuqlikni o'zi tayyorlab olsa ham bo'ladi. Buning uchun 25 sm^3 suyuq sovun, 25 sm^3 10–12 foizli vodorod peroksidi, 5-7 tomchi ammiak ishlatiladi. Bunday shampun bilan soch namlanadi.

Kevin yengil ko'pik paydo bo'lgunga qadar sochga uqalanadi va shu alfozda 10–30 daqiqa ushlab turiladi. Keyin sochni yuvib, ozroq kislota araiashtirilgan suv bilan chayiladi.

Agar kalta sochni kuchsiz rangsizlantirish kerak bo'lsa, 3 foizli vodorod peroksidning o'zini olib, hech narsa aralashtirmasdan, taroqni botirib tarash kerak. Har tarashda taroq aralashmaga tiqib olinadi. Soch asta-sekinlik bilan 2-3 kunda rangsizlanadi. Natijada soch tabiiy holda rangsizlanadi.

Oqargan sochlarni bo'yash uchun unga yaxshilab suyuqlik shimdirilsa, bo'yoq shimib yaxshi singadi. Shunday qilish kerakki, oqargan sochlar yonidagi to'q sochlarning rangi ham 1-2 baravar och tus olsun. Shunday qilsa, oqargan sochlar ham, boshqa sochlar ham bir xil hajmda rangni shimib oladi. Bo'lmasa, oqargan sochlar rang olmay, to'q rangli sochlarning rangi ustiga rang qo'shilaveradi. Sochning rangi keta boshlag-

anda, to‘q sochlar qolaveradi, oqargan sochlar esa tezda rangsizlanadi. Agar sochni qop-qora rangga bo‘yash kerak bo‘lsa, bularning unchalik ahamiyati yo‘q.

Sochni tabiiy rangga bo‘yash uchun 6-8 foizli vodorod peroksidi ishlatiladi. Sochning oqlari qancha ko‘p bo‘lsa, aralashma shunchalik kuchli bo‘lishi kerak. Lekin eng dag‘al sochlar uchun ham 12 foizdan oshmasligi lozim. Ammiakdan 3-6 tomchi tomiziladi. Ochroq rang berish uchun ammiakdan 10 tomchigacha qo‘shish mumkin. Agar noto‘g‘ri rangsizlantirish natijasida soch buzilgan bo‘lsa, ularni sirka qo‘shilgan aralashma, o‘tlardan tayyorlangan giyoh yoki maxsus ashyolar yordamida ancha yaxshilash mumkin.

Yuqorida aytilgan usullar orqali sochni uzoq muddatga bo‘yash mumkin. Undan tashqari, sochga bir yuvingunga qadar tus berish usuli ham bor. Sochni chayish orqali ham unga turli xil tus berish mumkin. Buning uchun pastasimon suyuq yoki kukun holatdagi bo‘yoqlar ishlatilib, soch faqat yuzaki bo‘yaladi, xolos. Bu usul och rangli sochlarga ishlatilganda, yaxshi natija beradi. Agar sochning rangi to‘q bo‘lsa, bu usulni qo‘llashdan oldin sochni rangsizlantirish kerak. Ishlatishga qulay bo‘lishi uchun qo‘llaniladigan vositalarni aralashtirib suyuq holga keltirib olgan ma‘qul. Lozim bo‘lgan rang chiqqunga qadar tomizgich yordamida turli ranglar 50 gr oddiy suvga tomizib aralashtiriladi. Buni sochga paxta yordamida yoki gupkani botirib olish usuli bilan surtiladi. Aralashmani ishlatishdan oldin, boshning orqa tarafida ozroq sochga surtib, sinab ko‘riladi. Agar natijasi yoqmasa, soch yuvib tashlanadi.

Zaruriyatga qarab, 6 foizli vodorod peroksidiga ammoniy yoki nashatir spirtidan qo‘shib ishlatlsa ham bo‘ladi. Sochga keyingi safar ishlov berishda, aralashma kuchsizroq tayyorlanib, gupka yoki yumshoq mo‘yqalamda suriladi. Aralashma sochning uchidan boshlab surtilsa, oqib ketib dog‘ qoldirmaydi. Ortiqchasini siqib tashlasa ham bo‘ladi. Sochning uchi aralashmani tez shimib olish xususiyatiga ega. Chunki uning ustki qatlami ancha bo‘shashib qolgan bo‘ladi. Ildiz oldilari baquv-

vatroq bo'lganligi uchun rangni to'qroq yoki aralashmani kuchliroq tayyorlash kerak bo'ladi. Sochga chayish orqali tus berishda, bir-biriga o'xshash ranglarni aralashtirib yuborsa ham bo'ladi. Shu orqali ranglar jilovlanishiga erishish mumkin.

Bo'yoq tusini tanlash uchun ham shaxsiy malaka (tajriba) kerak, turli darajada rangsizlantirilgan sochlar bo'lganidek, tabiatan turli xil och ranglardagi sochlar ham mavjud. Sochga tus berishdan oldin, uning natijasi qanday bo'lishini usta yaxshi bilishi va ranglar mutanosibligini hisobga olishi kerak. Misol uchun, «Blondoron-supra» vositasida sochlarga moviy va och qizg'ish ranglar ishlatilsa, ular kul rang, sarg'ish yoki tilla rang bo'lib tovlanishi mumkin.

Agar rangsizlantirilgan sochning rangi malla yoki sariq bo'lib chiqsa va u mijozga yoqmasa, uni o'zgartirish mumkin. Buning uchun sariq sochga qora yoki moviy rangdan ozroq qo'shilgan kuchsiz aralashma surtilsa, och sariq yoki kul rangga aylanadi. Kutilgan rang chiqmagan taqdirda ham boshqa rangdagi aralashmani ishlatish mumkin. Agar yashilroq rang kelib chiqadigan bo'lsa, unga och qizil aralashmani ishlatish kifoya qiladi.

9.5. Sochni bo'yama shampunlar bilan yuvish orqali bo'yash

Sochni yuvish jarayonida bo'yash uchun suyuq yoki pasta-simon holatdagi bo'yoq shampunlar ishlatiladi. Bu jarayon ko'p kuch talab qilmaydi. Lekin bu usul kislotali bo'yoqlar ishlatilganda, beradigan natijaning o'rnini bosa olmaydi. Oqargan sochlarni bo'yamasdan faqat rangini o'zgartirib qo'yadi, xolos. Ularning vazifasi sochning tabiiy rangiga qarab jilo berishdan iborat. Shuning uchun avval oqargan sochlarni bo'yab chiqib, keyin sochni bo'yovchi shampun bilan yuvilsa, yaxshi natija beradi. Sochni ba'zi ranglarga bo'yash uchun suyuq bo'yoqda foizli vodorod peroksidi va oddiy shampundan tayyorlangan aralashmani ishlatilsa ham bo'ladi.

Bo'yovchi shampunni ishlatishdan oldin, sochni yuvib, sochiq bilan artish kerak. Keyin nam sochga bo'yash uchun

mo'ljallangan shampunni surtib, ko'pik hosil bo'lgunga qadar uqalash lozim, so'ngra 20—25 daqiqalar bosh o'rab qo'yiladi. Agar shampun yaxshi ko'pirtirilmasa, bo'yoq yuz va bo'yinga oqib ketaveradi. Ma'lum muddat o'tgandan keyin bo'yalgan soch iliq suv bilan yuviladi. Soch bu usulda bir marotaba bo'yalganda, rangi uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bu usulni sochni har yuvganda (bir oy davomida) takrorlash lozim.

Takrorlash uchun savollar

1. Soch bo'yashning qanday turlari bor?
2. Soch bo'yashning afzalliklari nimalardan iborat?
3. Soch bo'yashning kamchiligi nimalardan iborat?
4. Sochga rang berishning qanday usullarini bilasiz?
5. Soch bo'yoqlari to'g'risida qanday tushunchaga egasiz?
6. Soch yuvish orqali qanday bo'yaladi?
7. Soch krem bo'yoqlar yordamida qanday bo'yaladi?
8. Sochni rangsizlantirish deganda, nimani tushunasiz?
9. Bo'yalgan sochlar qanday parvarish qilinadi?

Amaliy topshiriqlar

1. Bosma va xina yordamida sochlarni bo'yashni o'rganish.
2. Sochni bo'yash vaqti, bo'yoqni surtish qoidasi, bo'yoqni ushlash vaqti, yakuniy ishlar.
3. Bo'yoq shampunlari yordamida sochni bo'yash.
4. Sochni «Londe Color», «Palette» kabi kremli bo'yoqlar bilan bo'yash.
5. Kimyoviy bo'yoqlar yordamida oqargan sochlarni bo'yash.
6. Butunlay soch uzunligi bo'yicha va o'sgan soch ildizini bo'yash, vaqtini belgilashni o'rganish va yakuniy ishlarni amalga oshirish.
7. Blondoron yordamida sochga tus berish (sartarosh ustaxonasida o'tkaziladi).

10-bo'lim. SOCHNI UZOQ MUDDATGA TURMAKLASH

10.1 Sochni bug' yordamida turmaklash

Tayanch iboralar: jingalak, permanent, koklyushka, fiksaj, tiaglikol kislotasi, keratin, formaldegid, atir.

1904-yili K. Nessler ismli nemis ustasi uzoq muddatga turmaklash usulini kashf etdi U dastlab sochni elektr qizdirgichlar yordamida jingalak qilgan. Bu usul bizlargacha yetib kelgan.

1910-yilda esa soch turmaklashning yangi, kimyoviy usulini kashf etdi. Bunda sochlar go'yo tabiiyga o'xshab turar edi.

Shunday qilib, uzoq muddatga turmaklashning ikki xil usuli: kimyoviy hamda issiqlik yordamida turmaklash vujudga keldi. Bu har ikki usulni qo'llash ham yuqori malaka, ham tajriba, ham diqqatni talab qiladi. Mijoz bilan ishlashdan oldin sochning xususiyati va umumiy holati yaxshilab o'rganib chiqiladi va shundan keyin tegishli kimyoviy aralashma tayyorlanadi hamda kerakli usulda turmaklanadi.

Ma'lumki, sochning dag'al, oddiy, qattiq, ingichka, yumshoq, tabiiy, to'liqlik yoki jingalak bo'yalgan, och rang berilgan, noto'g'ri munosabat tufayli buzilgan va kasal turlari mavjud.

Dag'al va qattiq sochlar issiqda osonlik bilan buraladi va shakl berish oson kechadi. Lekin buning uchun, ularga oldin yaxshilab kimyoviy aralashmani singdirib olish kerak.

Bunday sochlarga kimyoviy aralashma, oddiy sochlarga qaraganda tezroq ta'sir qilishi sababli, o'ralgan tutamlar yirik-yirik chiqadi va shaklini ancha uzoq saqlab qoladi.

Ingichka va yumshoq sochlarni turmaklash qiyinroq. Ularni elektrda qizdirib, turmaklanadigan bo'lsa, ko'p vaqt ketkazish mumkin yoki kerakli aralashmani kuchaytirish zarur bo'ladi. Bunday holatda sochni asrab qolish va himoya qilish maqsadida aralashma tarkibiga glitserin qo'shiladi.

Tabiiy to'liqlik sochlarni turmaklash uchun kuchsizroq aralashma tayyorlash va issiqdan kamroq foydalanish kerak bo'ladi. Aks holda, u yana ham kuchli to'liqlanib ketib, ularni bir shaklga solish murakkablashadi.

Oldin bo'yalgan yoki och rang berilgan sochlar nozikla-

shib qolishi sababli, ular bilan ehtiyotkor bo'lib ishlash kerak. Bo'yalgan sochlarni turmaklash jarayonida, sinib ketish hollari ko'p uchraydi. Buning oldini olish uchun, turmaklashni boshlashdan avval bir tutamni alohida sinab ko'rish orqali dastlab soch qaysi turdagi kimyoviy aralashma bilan bo'yalganini bilib olgan yaxshi. Chunki ko'pchilik mijozlar sochlarining ilgari nima bilan bo'yalganini bilishmaydi. Agar oldingi safar metall bo'yoqlardan foydalanilgan bo'lsa, ularni turmaklamaslik kerak. Chunki soch turmaklash uchun tayyorlangan aralashma qaynagan paytda, oldingi metall bo'yoqdan qolgan tuzlar bilan reaksiyaga kirishib, sochdan mutlaqo ajralib qolishi mumkin. Bu hol yuz bermaganda ham sochning rangi o'zgarishi, unda yashil va to'q doglar paydo bo'lib qolishi aniq. Sinab ko'rganda, sochda metall, tuz qoldiqlari mavjud ekanligi aniqlansa, ularni batamom ketkazmaguncha, turmaklashni qoldirgan ma'qul. Agar sinovda xina, bosma, vodorod peroksidi yoki boshqa o'simlik hamda tabiiy bo'yoqlar qoldiqlari mavjudligi aniqlansa, turmaklashni bemalol boshlasa bo'ladi. Bunda aralashma kuchsizroq tayyorlanib, qizdirish muddati qisqartirilsa bas.

Agar soch bo'yashda tabiiy bo'yoqlar ishlatilib, vodorod peroksidi mutlaqo ishlatilmagan bo'lsa, u holda oddiy sochlarni bo'yash uchun mo'ljallangan aralashmadan foydalaniladi. Agar mijoz bir yo'la ham bo'yab, ham turmaklab qo'yishni istasa, oldin sochni turmaklab, keyin bo'yash kerak, lekin bu holatda ham oldin soch kimyoviy bo'yalmagan va och rang berilmagan, ya'ni rangsizlantirilmagan bo'lishi kerak. Agar shunday qilingan bo'lsa, sochning rangini, avvalgi, asl holiga keltirib olish lozim bo'ladi. Faqat shundan keyingina, turmaklash amalini, yuqori sifatli qilib bajarish mumkin bo'ladi. Soch rangini yo'qotish va ochartirishda me'yordan oshirib yuborish, bosh terisiga va sochning asl tarkibiy tuzilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu ikki amalni baravar bajargandan ko'ra, bir necha kun kutib turgan ma'qul.

Rangsizlashtirilgan sochlarni avval sinchiklab ko'rib chiqish kerak va uzoq muddatli turmaklashni qo'llash yoki qo'llamaslikni aniqlab olish lozim. Agarda oldin sochlar bir necha

bor rangsizlantirilgan va u po‘kakka o‘xshab qolgan bo‘lsa, turmaklamagan ma’qul. Juda zarur bo‘lsa, kuchsiz aralashma tayyorlab kimyoviy usulning o‘zida turmaklab qo‘ya qolgan ma’qul. Buning uchun, birinchidan, sochni yuvmasdan vitaminlashtirilgan yog‘ surtib turmaklash kerak bo‘lsa, ikkinchidan, sochga lak sepilmagan bo‘lishi ham kerak.

Soch rangsizlantirilgandan so‘ng yaxshilab kislotali aralashma bilan chayib yuborilishi kerak, bo‘lmasa, soch tarkibida qolib ketgan kislorodning qizdirish jarayonida harorati ikki barobar oshib, sochni butunlay kuydirib qo‘yishi mumkin. Bu holat yuz bermasligi uchun sochning nobud bo‘lgan qismlariga yog‘ surtib qo‘yiladi. Eng yaxshisi, yuz foiz kafolatga ega bo‘lish uchun bir o‘ram sochda amalni sinab ko‘rgan ma’qul. Natija yomon chiqadigan bo‘lsa, amal bajarilmaydi.

Hozirgi kunda ko‘p ayollar malla soch bo‘lishni yoqtirishadi. Keyinchalik ular sochlarini yana ham boshqa ranglarga bo‘yashni istab qolishlari mumkin. Soch rangini ochartirish, «rangni chayish» usuli orqali amalga oshiriladi. Bu usul unchalik qiyin emas, uning ustiga bu usulni qo‘llash sochni turmaklashga ham xalal bermaydi.

Ba’zida ayollar bitta yoki bir nechta soch o‘ramini ochartirib qo‘yishni iltimos qilishadi. Bunday holda aralashmani kuchsizroq tayyorlab, turmaklash muddati ham qisqartiriladi. Agar ajratib olingan soch o‘rami juda ham rangsizlantirib yuborilgan bo‘lsa, ularga elektr qizdirgich yordamisiz ham shakl bersa bo‘ladi.

Oq sochlarga kelsak, ularni turmaklaganda, aralashma va harorat ta’sirida biroz rangi sarg‘ayib qolishi mumkin. Bu holning oldini olish uchun aralashma biroz kuchsizroq tayyorlanib, unga glitserin moyi va biroz (sinka) ko‘k rang qo‘shib yuboriladi. Agar avval bu sochga tiklovchi — ya’ni o‘z holiga keltiruvchi suyuqlik ishlatiladigan bo‘lsa, turmaklashdan keyin harorat ta’sirida kir yashil rangga kelib qolishi ham mumkin.

Sartaroshlik amaliyotida yaxshi parvarish qilinmayotganligi tufayli, buzilgan sochlar bilan ishlashga ham to‘g‘ri keladi. Bu sochlar aslida sekin o‘sadigan, kuchsiz va uchlari yoyilib

ketgan sochlar bo'lib, bigudiga tinimsiz o'ralavergach, turmaklashga mutlaqo yaroqsiz ahvolga kelib qolgan bo'ladi. Odatda, bunday sochlarning rangi xiralashib, uchlari gullab, ildizi qurib, jonsiz bo'lib qolgan bo'ladi. Kasalga chalingan sochlarning ichlarida g'ovaklar paydo bo'lib, havo bilan to'lib qoladi. Turmaklanayotgan paytda, ular doimo harakatlanib turishi inobatga olinib, yuvishdan oldin biroz turmaklab olgan ma'qul. Agar bu sochlarni sinchiklab ko'zdan kechiradigan bo'lsak, soch tolasining ayrim joylari yo'g'onlashib qolganini sezamiz. Bunday hollarda aralashmani kuchsizroq qilib tayyorlab, uzoqroq mud-datga kuchsizroq haroratda turmaklash kerak. Bunday sochlarni turmaklashdan oldin, mijozni natija ko'ngildagidek bo'lmasligi mumkinligi haqida ham ogohlantirib qo'yish kerak.

Shunday qilib, turmaklashdan oldin sartarosh sochni yaxshilab ko'zdan kechirishi, turmaklash mumkinmi yoki mumkin emasligini aniqlashi, soch uchlarida oldingi turmaklash qoldiq va asoratlari bor-yo'qligini bilishi lozim.

Turmaklash sifatli bo'lishi uchun oldingi turmaklash natijasida qayrilib qolgan soch uchlarini kesib tashlash kerak.

Turmaklash maqsadida soch olinayotganda, sochga qanday yakuniy shakl berishni oldindan aniqlab olish lozim. Shundan keyin, tutamlari ajratib olinib, ularni oralab kesish orqali har bir tutamning uchiga ingichkalashib ketgan shakl beriladi. Agar shakl bermasdan turmaklanadigan bo'lsa, soch tutamlari oddiy usulda, uchi to'mtoq qilib kesiladi. Soch oralab kesilsa, berilgan shakl shishib turadi, bir tekisda tortilib, jingalaklar tekislanib o'raladi. Turmaklangandan keyin soch kalta ko'rinish oladi. Shuni hisobga olgan holda, sochni qirqishda uzunroq qilib qoldirgan ma'qul. Uni turmaklangandan keyin ham mijozning xohishiga qarab qisqartirish kerak.

Turmaklashdan oldin sochni yuvish yoki yuvmaslik kerakligini ham aniqlab olish lozim. Agar soch elektr yordamida turmaklanadigan bo'lsa, sochni yuvmasa ham bo'ladi. Chunki sochning yog'li qatlami uni kuyib qolishining oldini oladi. Agar kimyoviy usulda turmaklanadigan bo'lsa, uni albatta yuvish kerak.

Soch turini aniqlab olgach, yuvish vositasi tanlanadi. U ishqorli yoki ishqorsiz bo'lishi mumkin. Ishqorli vosita sochni shishirib yuborishi mumkin. Bu vositani qattiq va baquvvat sochga ishlatgan ma'qul. Ishqorsiz vositalar, asosan, oldin rangsizlantirilgan va bo'yalgan sochlarga ishlatiladi. Agar suv qattiq bo'lsa, uni yumshatuvchi vositalar bilan yumshatish kerak. Soch turmaklashda qisqich (klemma)lardan foydalanish zarur. Ular nafaqat soch tutamlarini alohida-alohida ajratib turadi, balki bosh terisini kuyib qolishdan ham himoya qiladi. Buning uchun soch ildizidan 1-2 sm qoldirib klemma o'raladi va u joyga kimyoviy arashma surtilmaydi. Shunda aralashma qaynaganda toshib ketganlari o'sha qoldirilgan joylarga shimib ketadi va teriga tomchilab, kuyib qolish oldi olinadi. Soch tutamlari bir tekisda ajratib olinishi kerak. Sochlar siyrak bo'lganda ham tutamlar sonini kamaytirmaslik kerak. Yaxshi turmaklash uchun har qanday turdagi sochdan 26-30 ta tutam ajratib olinib, klemma o'rnatilishi kerak. O'rim va klemmalar soni sochning ko'p yoki kamligi bilan emas, bosh katta yoki kichikligiga qarab ham belgilanadi. Klemmalarni o'rashda barcha tutamlardagi sochlar miqdori baravar bo'lishiga e'tibor berish kerak. Soch miqdori kam bo'lib qolsa, u o'ta qizib ketishi va soch tutami qalin bo'lgan turmaklar bo'sh bo'lib qolishi, natijada soch shakli yaxshi chiqmasligi mumkin.

10.2. Soch o'rash usullari

Sochni turli usullar bilan o'rash mumkin. Asosan, ular naychaga bir tekisda tortilib o'ralishi lozim. Kuchsiz tortib o'ralganlari shalpayib turadi. Kuchli tortilib o'ralganlari esa o'ta jingalak bo'lib qoladi. Natijada shakl berish og'irlashib, yaxshi chiqmaydi.

Spiral ko'rinishda o'rash usullari. Vertikal holatda turmaklashdan oldin soch sathi kvadratlarga bo'lib olinadi va klemmalar bilan alohida qilib qotiriladi, ildiz tarafdan uchiga qaratib naychaga o'raladi. Soch tutami naychaga o'ralmaydi, balki tekis va qattiq qilib taxlanib boriladi. Ikkinchi taxlam birinchi

taxlam ustining yarmini qoplab boraveradi. Soch tutamining oxirini qog'oz yoki latta bilan o'rab, sim bilan qotirib qo'yiladi. Bosh terisini kuydirib qo'ymaslik uchun naychaga himoyalovchi qog'oz o'raladi.

Gorizontal o'rash. Teskari amalga oshiriladi. Bunda soch tutami uchidan ildiziga qarab, ixcham qilib, yetarli darajada tortib o'raladi. Turmakning sifati tortishga ham bog'liq. O'ram bir tekisda, ba'zi joylari yo'g'on bo'lib ketishiga yoi qo'ymasdan o'raladi. Soch o'raladigan naychanning o'rtasi ingichkaroq bo'lsa, soch sifatli o'raladi.

Bu usul anchadan buyon ma'lum hisoblanadi. Uni qo'llash uchun ishlatiladigan asbob-uskunalarni ham yasash murakkab emas. Ayniqsa, ingichka va quruq sochlar uchun ular juda qo'l keladi. Lekin bu usulda qo'llanadigan rezinali bog'ichlarning uzilishi yoki ishdan chiqishi natijasida mijoz yoki ustaning terisi kuyib qolishi mumkin.

Mazkur usulni qo'llash uchun, avvalambor, suv qaynab turadigan unchalik katta bo'lmagan idish bo'lishi, so'ngra uning qaynashidan hosil bo'lgan bug'larning boshqa idishga yig'ilishi, hosil bo'lgan bug'lar bosim ostida bir-biri bilan o'zaro ulangan rezina va metall naychalari orqali soch turmaklangan bigudilar orasidan o'tib quritiladi va bug' yana suv holiga kelib boshqa idishga to'planadi.

Bu jarayon aslida unchalik murakkab bo'lmasa ham, sarta-roshdan katta mahorat va diqqatni talab qiladi.

Avvalambor, suv qaynab bug' yig'iladigan idishda to'plangandan keyin bug' maxsus naychalar orqali chiqib ketadigan yo'llar ochiqligi tekshirib ko'riladi. Agar asbobda maxsus manometr bo'lsa, u orqali bug' bosimi kuzatib turiladi va salbiy oqibatlarining oldi olinadi. Rezina naychalar ham yorilib ketmaydi.

Suv qizib maromiga yetgunga qadar, usta mijoz sochini qir-qib, tutamlarga ajratib, klemmalar bilan qotiradi. Soch tutamlari orasidagi ochiq joylardagi bosh terisi kuyib qolmasligi uchun ular iloji boricha bir-biriga yaqinroq qilinib, oralariga paxta joylashtirib chiqiladi. Keyin soch tutamlariga aralashma bilan ishlov beriladi va uchiga pergament qog'ozi o'raladi va bigudiga o'rab chiqiladi.

Aslida bu bigudilar metall naychalar bo'lib, hozirgi davrda ommaviy ishlatiladiganlaridan tubdan farq qilgan. Shu naychalar rezina naychalar yordamida bir-biri bilan bog'lanib, boshdagi barcha turmaklar orasidan barobar bug' o'tishini ta'minlaydi. O'ralgan turmaklar ustiga maxsus (bannik) temir qopchiq kiygiziladi. Bu qopchiqlar ma'lum vaqt ichida sochni jingalak holatga kelishi uchun sharoit yaratib beradi.

Soch turmaklari orasidan o'tadigan bug' yo'li ochiqligi puf-lab tekshirib ko'riladi. Agar uning yo'llari biror sabab bilan bekilib qolmagan bo'lsa, unda bug' chiqaruvchi moslama naychasiga ulanadi. Turmaklar orasidan bug' yaxshi o'tayotganligini barmoqlarni naychalarga tekkizib chiqish orqali aniqlanadi. Ularning barchasi issiq bo'lsa, demak, hammasi joyida bo'ladi. Bu usulda turmaklash vaqti va harorati sochning xususiyatiga qarab belgilanadi. Umuman, sochni o'ta qizdirib yuborgandan ko'ra uni kamroq qizdirgan ma'qul. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin bug' o'chiriladi va naychalar sovigach, turmaklash natijasi ko'zdan kechiriladi. Naychalar butunlay sovitilgach, yechilib soch yuviladi.

Sochning xususiyatiga qarab turli xil kuchga ega bo'lgan aralashmalardan foydalaniladi. Quyida eng ko'p tarqalgan aralashmalarni tayyorlash usulini keitiramiz: sochni uzoq mud-datga turmaklashda 1 l suvga 180 g kristall sulfat (70 g quruq sulfit), 15 g 30 foizli nashatir spirti va 10 g glitserin solinadi.

Qaynatilgan suvni 60-70 darajagacha sovitib, unda sulfit eritiladi. Sulfit to'la erib bo'lgach, unga nashatir spirti va glitserin qo'shiladi. U yaxshilab aralashtirilib, toza idishga solinadi va og'zi yaxshilab berkitiladi. Yangi tayyorlangan aralashma darhol ishlatilmaydi. Uni ikki kun davomida saqlash kerak. Aralash-maning kuchliroq bo'lishi uchun nashatir spirtidan ko'proq qo'shish kerak. Shunda soch yanada ham yaxshi turmakla-nadi. Oldin bo'yalgan va yumshoq sochlarga ishlatiladigan ara-lashmaga glitserin ko'proq qo'shiladi.

Agar turmaklanayotgan sochlarga oldin vodorod perok-sidi qo'shilgan bo'yoqlar ishlatilgan bo'lsa, sochning holatini hisobga olgan holda, aralashmaga ma'lum miqdorda suv qo'shi-

ladi. Bug' yordamida soch turmaklashdan oldin, 6-7 kun boshni yuvmaslik tavsiya etiladi.

10.3. Kimyoviy usulda turmaklash

Hech qanday boshqa usul ko'rimsiz sochlarga joziba berish va sog'lom sochlarni barbod qilish imkoniyatiga ega emas. Chunki bu usul qo'llanganda, uning salbiy asoratlari amalda tikianmaydi. Shuning uchun ham mijoz kimyoviy usulda turmaklashni iltimos qilib, murojaat qilgudek bo'lsa, usta e'tiborni quyidagilarga qaratmog'i lozim:

1. Sochni kimyoviy usulda turmaklashda soch turi, holati va soch shaklini hisobga olish lozim. Sartarosh mijozni va uning sochini yaxshi bilsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

2. Mijoz aslida nimani xohlashini bilib olish lozim. Undan o'ta jingalak turmaklanishnimi, yirik to'lqinlarnimi, yumshoq to'lqinlarnimi yoki umuman, sochni to'lqinlantirmasdan faqat shishirib qo'yish so'ralayaptimi? Bunday holda, turli jurnallar va rasmlar bo'lgani yaxshi yordam beradi.


3. Har qanday soch shakli ham uni bir necha marta kaltaroq qilib ko'rsatadi. Yelkagacha tushib turgan silliq sochlarga shakl berilganda, ular bo'yingacha ko'tarilib qoladi. Buning ustiga shakl berishdan oldin yoki keyin sochning shikastlangan joylarini kesib tashlashga ham to'g'ri kelishi mumkin.

4. Kimyoviy turmaklashning natijasi sochni qanday olishga ham bog'liq. Faqat zinapoya usulida qirqilgan sochlardan haqiqiy jingalak yaratish mumkin. Agar mijoz to'lqinli sochlarni istasa, unda sochning uzunligini bir xil qilib, uchini to'mtoq etib kesgan ma'qul.

5. Kimyoviy usulda soch turmaklaganlar doimo sochini tartibga keltirib turishi kerak. Havo yordamida faqat qattiq jingalaklarni quritsa boiadi. To'lqinli soch tutamlarini esa doimo bigudiga o'rab turish yoki ko'pikli fiksator bilan joylashtirib turishni talab qiladi. Kimyoviy usuldan yagona maqsad – oldingi to'g'ri taraladigan bo'shroq shakl o'rniga mustahkam va qattiq shakl yaratishdan iborat.

6. Yaxshilab parvarish qilib turilmasa, kimyoviy turmaklangan shaklning chiroyli ko'rinishi uzoqqa bormaydi.

Sochni uzoq muddatga jingalak shaklga keltirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: issiqlik bilan, bug' yordamida va kimyoviy usulda. Ishda maxsus bigudilar — naysimon qalamchalar va yog'och qalamchalar (koklyushki)lardan foydalaniladi. Qalamchalarning aylanasi (diametri) 0,3 sm dan 1,2 sm gacha bo'lishi mumkin. Buning uchun sochning ko'ndalang shaklini o'zgartirish va jingalak shaklni iloji boricha ko'proq muddat saqlanishini ta'minlashga harakat qilinadi (21-rasm).



21-rasm. Koklyushkani o'ragandan so'ng joylashishi

Bunda yuqori darajadagi issiqlik va maxsus aralashmalardan samarali foydalaniladi. Uzoq vaqt saqlanib qolmaydigan shakllarni berish va sochlarni jingalak qilish uchun aylanasi 2 sm dan 5 sm gacha bo'lgan bigudilar ishlatiladi. Sochga ma'lum shakl berib, uni quritish uchun mo'tadil aralashmalardan foydalaniladi. Bu usulda sochning ko'ndalang shakli tubdan o'zgar-maydi va hosil qilingan shakl uzoq muddat saqlanmaydi.

Sochga jingalak yoki burama shakl berish jarayoni alohida amalga oshirilishi bois, birin-ketin har ikkala amalni bajargan ma'qul. Buning uchun avval uzoq muddatli turmaklash usulini qo'llab, keyin yirik bigudilar yordamida sochga shakl berilsa, bunday shakl uzoqroq muddat saqlanib qolishi mumkin.

Tushunarliroq bo'lishi uchun bigudi so'zini ishlatish ikki turga bo'linsa, maqsadga muvofiq bo'ladi (22-rasm).

Sochga umumiy shakl beruvchi va diametri 1,5 sm dan yuqori bo'lgan soch o'rash moslamalarini bigudi deb ataylik. Sochni uzoq muddatga saqlanadigan gajjak holiga keltirishda,

ishlatiladigan moslamalarni, tayoqchalar (koklyushki) va nay-simon tayoqchalar deb ataymiz.

10.4. Kimyoviy usulda turmaklashning bosqichlari

Soch turmaklashning har qanday kimyoviy usuli 3 bosqichdan iborat bo‘ladi va har bir bosqich alohida va katta e’tiborni talab qiladi.

Birinchi bosqich. Sochni to‘lqinlantiradigan suyuqlik sochning ichiga kirib o‘ziga xos ko‘priklarni shakllantiradi (sernye mostiki). Bu kimyoviy suyuqlik sochga berilgan shaklni mustahkam tutib turishga ko‘maklashadi. Suyuqlik surtilgan dastlabki paytda soch yumshab, sochga kirish osonlashadi. Bu kimyoviy suyuqlikning nomi tioglikol kislota deyiladi yoki unga yaqin bo‘lgan tioglikol kislota efiri ham shu vazifani bajaradi.

Qo‘llanilgan suyuqlik va unga ta’sir etish vaqti sochning xususiyatiga to‘la mos kelishini unutmaslik lozim. Juda kuchsiz suyuqlikni, oz vaqt davomida ushlab turish natijasida sochga berilgan shakl ham kuchsiz chiqadi. Juda kuchli aralashma ko‘p ushlab turilsa, salbiy ta’sir qiladi.

Ikkinchi bosqich. Suyuqlik ta’siridagi sochning ichki ipsimon qatlami yumshab, tayyoqchalarga ulanib berilayotgan shaklga tobora bo‘ysuna boshlanadi. Sartarosh bu jarayoni diqqat bilan kuzatib borishi lozim. Har zamonda o‘ralgan sochlarni ochib sochni eng sog‘lom qismi bo‘lgan ildiz tarafini ko‘zdan kechirib qo‘yish lozim. Bigudining diametri qancha ingichka bo‘lsa, jingalak ham shunchalik mayda va mustahkam, qanchalik yirik bo‘lsa shunchalik bo‘sh bo‘lib chiqadi.

Uchinchi bosqich. Kimyoviy aralashma o‘z vazifasini bajarib bo‘lishi bilan sochni yaxshilab chayib yuborish kerak. Aralashmaning kuchsiz yoki kuchliligiga qarab, soch 3 daqiqadan 5 daqiqagacha chayiladi. Agar soch yaxshi chayilmasdan, kimyoviy aralashmaning qoldig‘i qolib ketsa, o‘z ta’sirini davom ettirib, sochni butunlay ishdan chiqarib qo‘yishi mumkin.

Yuvilgan soch yangi shaklga ega bo‘lib, bu shaklni endi mus-

tahkamlash kerak. Buning uchun vodorod peroksididan foydalangan holda, «fiksaj» ishlatiladi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, agar sochga «fiksaj» yaxshilab surtib chiqilmasa, unda berilgan shakl uzoq vaqt saqlanib qolmaydi.

10.5. Kimyoviy usulda turmaklangan sochlarni parvarish qilish

Sochlar jilosi va mustahkamligini saqlab qolish uchun ularni doimo parvarish qilib turish lozim. Kimyoviy usulda turmaklangan sochlarga alohida e'tibor berish lozim. Soch turmaklangan kuni unga hech qanaqa taroq tekkizmasdan, o'z holiga qo'yish kerak. Bajarish qiyin bo'lsa ham bu maslahatga amal qilish lozim.

Bunga sabab, soch ildizining himoya qatlami, keratin, bo'sh yasalgan sun'iy ko'priklar hali bir-biriga qovushmagan bo'ladi. Bunday paytda behudaga sochni tortmagan ma'qul. Faqat uchinchi kunga kelib, sochni yuvsa bo'ladi, sababi sochning suvga chidamliligi ham kamaygan bo'ladi.

Birinchi kunlarda bigudi va fenni ham ishlatmagan ma'qul. Shunda kimyoviy usulda berilgan shakl uzoq muddatga yetadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Soch uzoq muddatga qanday turmaklanadi?
2. Sochni bug' yordamida turmaklash deganda, nimani tushunasiz?
3. Uzoq muddatga turmaklangan soch qanday parvarish qilinadi?
4. «Permanent» qilish uchun qanday modda ishlatiladi?
5. Permanent qilishda qanday asbob-uskunalardan foydalaniladi?
6. Sochni kimyoviy usulda turmaklash mumkinmi?
7. Bo'yalgan sochlar qanday parvarish qilinadi?
8. Sochni kimyoviy usulda turmaklashning qanday turlarini bilasiz?

Amaliy topshiriqlar

1. Sochni termik usulda jingalak qilishni o'rganish.
2. Sochni kimyoviy usulda jingalak qilishning tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish.
3. Kimyoviy usulda sochga shakl berayotganda, sochni o'rash texnologiyasini o'rganish (gorizontal va vertikal chiziqlar bo'yicha).
4. Kimyoviy usulda jingalak qilingan sochlarni davolash.
5. Kimyoviy usulda sochga shakl berish usullari (spiralli, 2 ta koklyushkali, parallel joylashgan koklyushkalar).
6. Sochni o'rash sxemasini o'rganish (sartarosh ustaxonasida o'tkaziladi).

XULOSA

«Sartaroshlik ishlari texnologiyasi» o'quv qo'llanmasi hamma vaqt odamlarga qiziqish uyg'otgan soch parvarishi va turmaklashga bag'ishlangan bo'lib, mazkur qo'llanmada sartaroshlik ishlarini amalga oshirish jarayonida uchraydigan muammolar yechimi ko'rsatib berilgan. Mazkur o'quv qo'llanma orqali o'quvchi soch qirqish turlari, boshni yuvish va massaj qilish, soch kasalliklari, soch turmaklash, sochni bo'yash, manikyur va pedikyur, soch-soqolni qirib olish kabi mavzularni o'rganib chiqishi mumkin.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi — milliy guruhlarda tahsil olayotgan o'qituvchilarning ta'lim jarayonida nazariy va amaliy mashg'ulotlarda hamda mustaqil tayyorlanishlari uchun imkoniyat yaratib berishdir. Shunday ekan, yoshlarimiz oldida bu kasbga astoydil mehr qo'yib, sartaroshlik sir-asrorlarini chuqur o'rganib, xalqaro ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, xalqimizga malakali xizmat ko'rsatish bilan birga, yurtimiz dovrug'ini olamga yoyishdek vazifalar turibdi. Buning uchun barcha sharoitlar mavjud.

Taqdim etilayotgan «Sartaroshlik ishlari texnologiyasi» o'quv qo'llanmasi hozircha O'zbekistonda o'z ona tilimizda qaratilgan sartaroshlik haqidagi ilk kitoblardan biridir. Shu sababli ham turli xil bahs-munozarali savollar tug'ilishi tabiiy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А.В Константинов. Основы парикмахерских работ. — Москва, Высшая школа. 1986.
2. В.Д. Корнеев. Мы причесываем женщин. — Москва, Легкая индустрия. 1978.
3. А.Д. Ляпича. Парикмахерское мастерство. — Киев, Будивельник. 1982.
4. С.С. Фельдман. Окраска и завивка волос. — Москва, Легкая индустрия. 1966.
5. В.Д. Корнеев. — Москва, «Легкая индустрия». 1978.
6. И.Ю. Одинакова, Т.А. Черниченко. Технология парикмахерских работ. — Москва, Асадема. 2004.
8. О.В. Луканова, Л.В. Федрова. Технология парикмахерских услуг. — Ростов-на Дону, Март. 2002.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

1-bo‘lim. SARTAROSHXONALAR HAQIDA UMUMIY MA‘LUMOTLAR

1.1. Sartaroshxonalarni jihozlash	5
1.2. Sartaroshxonalarning sanitariya-texnik tuzilishi va yong‘inni oldini olish choralari.....	10

2-bo‘lim. SARTAROSHLIK ASBOB-USKUNALARI

2.1. Soch tarash uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar	12
2.2. Soch olish va qirqishda ishlatiladigan asbob-uskunalar	16
2.3. Sochni uzoq muddatga turmaklash uchun ishlatiladigan vositalar	22
2.4. Sochga shakl berish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar	24

3-bo‘lim. MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISH BO‘YICHA TAYYORLOV VA YAKUNIY ISHLAR

3.1. Ish joyini tayyorlash	33
3.2. Yakuniy ishlar	37

4-bo‘lim. BOSHNI YUVISH VA MASSAJ QILISH

4.1. Soch haqida umumiy tushuncha	39
4.2. Sochning kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari	43
4.3. Soch kasalliklari	47
4.4. Soch yuvish va bosh massaji qoidalari	50

5-bo‘lim. SOCH OLISH

5.1. Soch qirqish	56
5.2. Sessun usuli	62
5.3. Yojik usuli	63
5.4. Garson usuli	63
5.5. Gribok shakli	64

6-bo‘lim. SOCH TURMAKLASH

6.1. Sochlarga sovuq vositalar bilan shakl berish	66
6.2. Bigudi va qisqichlar yordamisiz, sochga sovuq usulda shakl berish	67

6.3. Sochga bigudi va qisqichlar yordamida shakl berish	69
6.4. Sochni qisqa muddatga jingalak qilish	71
6.5. Soch quritish	76

7-bo'lim. SOCH-SOQOLNI QIRIB OLISH

7.1. Soqol va mo'ylovni olish	79
7.2. Soqol olish usullari	81

8-bo'lim. MANIKYUR VA PEBIKYUR ISHLARI

8.1. Manikyur haqida umumiy ma'lumotlar va manikyur qilishda ishlatiladigan asboblari	85
8.2. Pedikyur	93

9-bo'lim. SOCH BO'YASH

9.1. Rang berishning imkoniyatlari	97
9.2. Sochni «Londe Color», «Palette» kabi kremli bo'yoqlar bilan bo'yash	98
9.3. Sochga och rang berish orqali tez rangsizlantirish va bo'yalgan sochlarni rangsizlantirish	100
9.4. Sochni yuvish orqali och rang berish	103
9.5. Sochni bo'yama shampunlar bilan yuvish orqali bo'yash	105

10-bo'lim. SOCHNI UZOQ MUDDATGA TURMAKLASH

10.1 Sochni bug' yordamida turmaklash	107
10.2. Soch o'rash usullari	111
10.3. Kimyoviy usulda turmaklash	114
10.4. Kimyoviy usulda turmaklashning bosqichlari	116
10.5. Kimyoviy usulda turmaklangan sochlarni parvarish qilish	117

Xulosa	119
--------------	-----

Foydalanilgan adabiyotlar	120
---------------------------------	-----

**S.A. GANIXODJAYEV, N.SH. SALIXANOVA,
U.S. TULYAGANOVA, S.A. TURSUNBOYEVA,
N.A. RAXMONOVA**

SANITARIYA VA GIGIYENA

O'quv qo'llanma

Muharrir O. Jumayev
Badiiy muharrir M. Odilov
Kompyuterda sahifalovchi K. Boyxo'jayev

Nashr list. AI №174. Bosishga ruxsat 31.10.2016da berildi.
Bichimi $60 \times 84^{1/16}$. Ofset qog'ozi. TimET garniturası.
Shartli b.t. 7,2. Hisob-nashr t. 7,4. Adadi 538.
Buyurtma 50.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur shohko‘chasi, 60^a-uy.